Doimiy ravishda kuchli zo'riqish bilan jismoniy va aqliy mehnat faoliyati bilan shug'ullanish ham immunitet sistemasini izdan chiqaradi. O'g'ir jismoniy faoliyat bilan shug'ullanish natijasida organizm zo'riqadi va bu o'sha organizmdagi rezerv energiyaning sarf bo'lishiga olib keladi. Yillar davomida ishlatilgan rezev energiya tugab, organizm kuchsizlanadi va immunitet sistemasini pasayishi natijasida tez kasalga chaluvchan bo'lib qoladi. Masalan, sportchilarda doimo faol harakatda bo'lgan mushaklar birdan sust harakat tarziga o'tsa (nafaqaga chiqqandan so'ng, o'g'ir jarohat olgandan so'ng sport bilan shug'ullanmay qo'ysa, yoki biron sabab bilan sportni tark etsa) mushaklardagi hujayralarda avvalgi faol jarayonlar kechmaganligi sababli organizmda turli o'zgarishlar yuzaga keladi. Aqliy faoliyat ham immun sistemasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ko'ra ko'proq energiya sarflaydi, bu esa o'z-o'zidan ko'p kuch talab qiladi. Uzoq vaqt aqliy faoliyat bilan shug'ullangan insonlar asabiy va jahldor bo'lishadi, bu ham albatta immunitet sistemasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi insonlar mehnat faoliyatini aqliy mehnat bilan almashtirib turishlari, xuddi shunday aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'z faoliyatlarini jismoniy faoliyat bilan almashtirib turishlari tavsiya etiladi. Bu organizmni tetiklashtirib, immunitet tizimini yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Jismoniy mashqlar bilan bog'liq holda, Amerika profilaktik tibbiyot jurnalida chop etilgan tadqiqotga ko'ra, sedentary turmush tarzi va mashqlardan voz kechish tananing infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Limfa tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun jismoniy faollik juda muhimdir.

Bugungi fan-texnika rivojlangan asrda biz hayotimizni turli gadjetlar, kompyuterlar, planshetlar va albatta, oddiygina telefonlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ular bizning hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylanib ulgurgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu qurilmalar albatta bizning og'irimizni yengil qilish uchun xizmat qilyapti, lekin ular bizning foydamizdan ko'ra ko'proq zararimizga xizmat qilyapti desak to'g'riroq bo'lar edi. Chunki bu qurilmalar o'z-o'zidan ishlamasligi aniq. Ularning ishlab, xizmat qilishi uchun albatta energiya, radiatsiya kuchlari zarur. Misol uchun oddiy uyali aloqa vositalari-telefonlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular bizning doimiy hamrohimiz, uzog'imizni yaqin qiladigan, muammolarimizni tezroq hal qilishimizda asosiy sababchilardan hisoblanadi.

Shunday ekan, ayniqsa hozirgi kunda telefonlar doimo biz bilan birga. Telefonlardan chiqadigan radiatsiya nurlari natijasida hozirgi kunda ko'z bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud. Bu bilan cheklanibgina qolmasdan, ulardan chiqayotgan radiatsiya nurlari inson organizmidagi hujayralarga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatib, ularning

faoliyatida bir qancha o'zgarishlar bo'lib, natijada saraton(rak) kasalligini kelib chiqishiga ham sabab bo'lmoqda. Nafaqat telefonlar, balki kasalxonalaridagi bir qancha apparatlar ham o'zidan radiatsiya nurini tarqatishi hisobiga xizmat qiladi. Masalan, rentgen apparati, uzi apparati, tomografiya va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu qurilmalardan ham iloji boricha kamroq foydalanish, foydalanganda ham juda oz fursat foydalanish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda yosh onalarimizning farzandlariga o'zlari anglab yoki anglamagan tarzda telefonlar olib berish orqali qaysidir ma'noda farzandlarining to'polonlari yoki injiqliklarini kamaytirishga harakat qilishayotgani achinarli holat albatta. Ular ushbu qurilmalar farzandining kelajagi uchun foydadan ko'ra ziyoni ko'proq ekanligini ongli ravishda his etmasliklari mumkinmi? Ular bolasini vaqtinchalik jim bo'lishi uchun uning sog'ligiga, kelajagiga katta zarar yetkazadigan usullardan foydalanishga harakat qilishi bu o'ta ayanchli vaziyat. Yosh bolalarda nurlanish katta yoshdagi insonlarga qaraganda xavfliroq hisoblanadi, negaki ularning hujayralari hali ko'payishda davom etmoqda, tabiiyki zararlangan hujayralar xuddi o'zlari kabi zararlangan hujayralarni hosil qilib ko'payadi va natijada butun bir organizm kasal hujayralar bilan to'ladi va bu bola salomatligida o'ta jiddiy vaziyatlarga sabab bo'ladi. Va bu jarayonning oqibati katta ehtimol bilan saraton kasalligi bilan tugaydi, bilamizki hozirgi kunda hali saraton kasalligining davosi topilgani yo'q va bu o'z-o'zidan oxiri o'linga borib taqaladi. Bundan tashqari nafaqat hujayralar nurlanishi, balki bu telefonlar va gadjetlar ko'z nurini pasayishiga ham olib keladi va ko'plab oftalmologik kasalliklarga ham olib keladi. Hozirgi atrof muhitimiz radiatsiya nurlari bilan to'lgan bir paytda onalar o'zlarini va farzandlarini salomatligini homiladorlik paytidan o'ylashlari maqsadga muvofiq. Chunki barcha omillar ona bilan birgalikda bolaga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, nurlanish esa onadan ko'ra ko'proq bolaga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Iloji boricha ona homiladorlik paytida uyali aloqa vositalaridan foydalanmasligi lozim, negaki undan chiqayotgan radiatsiya nurlari bolaga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ona homiladorlik vaqtida uzi apparatlariga tushishi natijasida ham bola birmuncha nurlanishga uchraydi va bu unga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi shuning uchun onalar homiladorlik vaqtida o'zini asrashi, nurlanishga sabab bo'ladigan vositalardan o'zlarini uzoq tutishlari, xususan, iloji boricha kamroq uzi apparatlariga tushishlari, uyali aloqa vositalaridan foydalanmasliklari, foydalansa ham maksimal darajada kamroq foydalanishlari, kompyuterlardan o'ta kam foydalanishlari, faqat zarurat tug'ilsagina foydalanishlari tavsiya etiladi va bu albatta sog'lom ona- sog'lom bola kelajagi uchun foydali hisoblanadi.

REFERENCES

1. Shaxmurova G.A., Egamberdieva L.N. Immunologiya. O'quv qo'llama. 2020 Chirchiq.
2. R. M. Xayitov. Immunologiya: struktura va funksional immunoyn sistema. 2013 yil Moskva.
3. R.Tsinkernagel. Osnovnye immunologiya. 2008 yil.
4. B. Ibragimxonov. Immunologiya. Metodik qo'llanma. Toshkent 2010 yil.
5. Alimova, X. B., & Ramazonov, B. R. (2021). "O'quvchi-o'quvchiga ustoz" tamoyili asosida tabiiy fanlar darslarini tashkil etishda pedagogik muammolar. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 940-945 betlar.
6. Бахтиёр Рамазонович Рамазонов, & Шавкат Шодиевич Курбонов (2021). Формирование компетенции у студентов биологического направления вузов в обучении предмета почвоведение и биологические основы сельского хозяйство. *Academic research in educational sciences*, 2 (4), 319-325. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00597.
7. Курбонов, Ш. Ш., & Рамазонов, Б. Р. (2021). Қишлоқ хўжалиқ фанларини ўқитиш методикасининг педагогика ва бошқа фанлар билан боғлиқлигининг илмий-амалий аҳамияти. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 51-59.
Ахборот resurslari:
 1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Dori>.
 2. <https://www.ekoloji.com/detay.php?kate=ekoloji&baslik=ekoloji-nedir>.
 3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Antibiotiklar>.
 4. <http://cgon.rospotrebnadzor.ru/content/ostalnoe/chto-takoe-serotonin-i-dlya-chego-on-nuzhen>.
 5. <https://77.rospotrebnadzor.ru/index.php/press-centr/186-press-centr/9314-gazirovannye-napitki-polza-ili-vred>

ПРОБАЦИЯ ХИЗМАТИ ФАОЛИЯТИНИ УМУМИЙ ТАВСИФИ: ТУШУНЧАСИ, ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Турдимурод Анварович Анваров

Тошкент вилояти Ички ишлар бош бошқармаси Терроризм ва экстремизмга қарши
курашиш бошқарма бошлиғининг Кадрлар бўйича ёрдамчиси, майор, мустақил
тадқиқотчи

E-mail: murodanvarov021@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада муаллиф томонидан Ўзбекистонда жиноятчиларни қайта ижтимоийлашувини ва ахлоқан тузалишини амалга оширишда сўнгги пайтларда муҳим иштирокчилардан бирига айланиб бораётган пробация институти илмий ва амалий жиҳатдан кўриб чиқилган. Хусусан, мазкур институтнинг тарихий келиб чиқиши, тавсифи, тушунчаси ва ўзига хос жиҳатлари, пробация ҳукуматини шакллантириш ҳуқуқий асослари, бу борадаги ижобий хорижий тажрибалар атрофлича ўрганиб чиқилган. Мақолада ушбу институт ҳозирги кунда ўзининг ижобий жиҳатларини кўрсата бошлагани, тегишли шахслар категориялари пост пенитенциар ижтимоийлашуви ва уларни назорат қилиш функциясини муносиб равишда удалай олаётганлиги қайд этилиб, айтилган даврада қонунчиликдаги айрим жиддий бўшлиқлар ва камчиликлар, амалиётда пробация ходимлари иши самарасига салбий таъсир ўтказилишига сабаб бўлаётгани кўрсатиб ўтилган.

Мақолада муаллиф томонидан пробация хизмати нуфузи, ҳуқуқий мақоми ошириш ва фаолиятини янада тартибга солиш бўйича илмий ва амалий таклиф, тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: “пробация” атамаси, Пробациянинг ижтимоий мақсадлари ва вазифалари ҳамда Пробация институтининг ўзига хос хусусиятлари.

ABSTRACT

In this article, the author considers the institution of probation from scientific and practical positions, which has recently become one of the most important participants in the process of resocialization and correction of criminals in Uzbekistan. In particular, the historical origin, characteristics, concept and features of this institution, the legal basis for the formation of the probation service, and positive foreign experience in this area are studied in detail. The article notes that this institution has already begun to show its positive aspects, performing the functions of post-penitentiary socialization of convicts and control over the relevant categories of persons, at the same time it is indicated that some serious gaps and shortcomings in the legislation in practice have a negative impact on the effectiveness of the work of probation officers. In the article, the author presents scientific and practical proposals and

recommendations for increasing the authority and legal status of the probation service, further regulating their activities.

Keywords: the term "probation", social goals and tasks of Probation and specific features of the Probation Institute.

КИРИШ

Мамлакатимизда демократик қадриятлар, инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилишда ички ишлар органлари ҳар доим ва ҳар замонда муҳим бўлган. Шу билан бирга, одил судлов мақсадларини рўёбга чиқаришда, жиноий қилмиш содир этган шахсларнинг қайта ижтимоийлашуви ва тузалиши, ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини ошириш учун шароит яратишда, постпенитенциар мослашув жараёнида қонун талаби ва инсонийлик манфаатлари мувозанатини таъминлашга кўмаклашишда ҳамда бунда фуқаролар иштирокини амалга оширишнинг таъсирчан ва амалий механизми сифатида ИИВ пробация хизмати аҳамияти бугунги кунга келиб ғоятда ортиб бормоқда.

Пробация хизмати ходимларининг айрим тоифадаги фуқаролар устидан назоратни ўрнатишдаги вазифалари жамиятнинг давлат билан ўзаро самарали алоқасини таъминлашнинг муҳим воситаларидан бири бўлиб ҳисобланади. Жамоатчиликнинг постпенитенциар мослашув ишларида фаол иштироки пробация фаолияти очик-ошкоралигини кенгайтиради, фуқароларнинг ИИИ органига ишончини мустаҳкамлайди.

Шу муносабат билан, ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси ИИВ Пробация хизмати ҳуқуқий асослари ва фаолиятининг айрим жиҳатларини ўрганиш бўйича таҳлилий тадқиқот ишларини амалга ошириш ғоят долзарб ҳисобланади.

ТАДҚИҚОТНИНГ МАҚСАДИ

Мазкур жиноят-ижроия институтини ўрганишдан асосий мақсад унинг жорий этилишида қонун чиқарувчи томонидан кўзланган ижтимоий-сиёсий мақсадлари ва унинг тушунчасини аниқлаш, пробация хизмати институти асосий фойдали "иш коэффициентини" мўлжаллаш, вазифалари ва функцияларини таҳлил қилишдан иборат, ҳамда илмий жиҳатдан асосланган таклифларни ишлаб чиқишдан иборат.

МАТЕРИАЛ ВА МЕТОДЛАР

Мазкур илмий мақолани тайёрлашда илмий билишнинг мантиқий ва илмий услубларидан фойдаланилган, хусусан, мантиқий таҳлил, синтез, тарихий, қиёсий-ҳуқуқий каби услублар қўлланилган.

ПРОБАЦИЯ ИНСТИТУТИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ВА ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Пробация узок тарихга эга бўлиб [1], ушбу сўз лотинча «probatio» – синов сўзидан олинган бўлиб, халқаро амалиётда озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларнинг ижро этилишини таъминлаш ва назоратини олиб бориш маъносини англатади. Бугунги кунда “пробация” атамаси жуда кўплаб ҳолатларда кенг қўлланиб келинмоқда: 1) жиноий жазоларни ижро этиш тизимини тадқиқот қилишга оид ишларда [2]; 2) халқаро ҳуқуқий ҳужжатларда, жумладан, БМТ Бош Ассамблеяси томонидан тасдиқланган Маҳкумлар билан муомала қилишнинг минимал стандарт қоидалари (1955 йил) [6], Европа пенитенциар қоидалари (1987) [7] ва бошқалар.

Жумладан, дунёнинг ривожланган Америка Қўшма Штатларида жазолар тизимининг асосий элементлари ўлим жазоси, озодликдан маҳрум қилиш, пробация ва жарималарни [8] қўлланиши ҳамда Англия ва Франция давлатларида ушбу пробация соҳаси кўп йиллар давомида фаолият юриши аммо кейинчалик континентал ҳуқуқий тизим мамлакатлари Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги давлатларида ҳам озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга ҳукм қилинган шахслар устидан назорат функциялари амалга ошириш пробация фаолияти томонидан амалга оширилиши ҳар томонлама ўзини ижобий томондан кўрсатган.

Масалан, АҚШда Пробация хизмати 1878 йилда ташкил этилиб, Федерал пробация қонунчилигини қабул қилинишга уринишлар 1908 йилдан бери амалга оширилган, аммо тегишли қонун фақат 1925 йилда қабул қилинган. Англияда эса пробация институти 1887 йилда "Биринчи маҳкумни суд жараёни тўғрисида" ги қонуннинг қабул қилиниши муносабати билан пайдо бўлган [9].

Англияда бўлгани каби, бугунги кунда пробация хизмати АҚШ, Дания, Швеция, Финландия ва бошқа бир қатор ривожланган давлатларнинг жиноят-ижроия қонунчилигига кириб келган ҳамда ушбу хизмат фаолияти турли давлатларда турлича йўлга қўйилган бўлса-да, жиноят содир этган шахсларни ахлоқан тузатиш, уларни жамиятдан ажратмаган ҳолда жамоатчилик билан узвий ҳамкорликда қайта тарбиялаш борасида кўплаб ривожланган мамлакатларда шундай хизмат фаолият юритади.

Кўришимиз мумкинки ривожланган давлатлар амалиётидан ҳамда бир қатор давлатларда ўтказилган тадқиқотлар ва ўрганишлар асосида жиноий жазо чоралари сифатида инсонга қўлланиладиган озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазолар ижро этилиши такомиллашишига олиб келди.

Шунингдек, қуйидаги давлатларда озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга ҳукм қилинган шахслар устидан назорат функциялари пробация фаолияти томонидан амалга оширилиши Молдова Республикасида 2008 йилдан, Украинада 2015 йилда ҳамда Арманистон, Қозоғистон Республикаларида 2016 йил бошида шунингдек,

Қирғизистон Республикасида 2017 йилдан жорий этилган ҳамда пробацая хизматининг фаолияти ҳуқуқий таъминланган [10].

Ушбу давлатларда озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларни ижро этишдаги амалий тажрибаси ва олимларнинг фикрларини инобатга олиб, жиноят ижроя қонунчилик фаолиятини ҳуқуқий такомиллашганлигини инобатга олиб, Ўзбекистоннинг амалдаги қонунчилик амалётида озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларнинг ижро этилишини назорат қилувчи Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бош бошқармасининг озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларни ижро этилишини назорат қилиш бошқармаси ва унинг ҳудудий бўлинмалари негизида суд ҳукми ёки ажрими билан озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга ҳукм қилинган шахсларни жазоларини ижро этилишини таъминлайдиган бошқарма Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 ноябрдаги *"Жиноят қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"*ги ПҚ-4006-сонли Қарори билан 2019 йил 1 январдан жорий қилинган [11].

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2020 йил 24 октябрь кундаги “25 октябрь— Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар органлари ходимлари кунини” муносабати билан йўллаган табрикларида: *“Билиб-билмасдан жиноят йўлига кириб қолган ва жазони ўтаётган фуқароларнинг ижтимоий мослашувини, соғлом ҳаётга қайтишини таъминлашда ҳам ички ишлар органларининг ўрни ва роли ортиб бормоқда. Бу йўналишда илгариги жазони ижро этиш инспекцияси ўрнига пробацая хизматини ташкил этдик. Ушбу хизмат маҳкумларни зарур касб-ҳунарларга ўқитиш ва тайёрлаш, ишга жойлаштириш, уларни хусусий тадбиркорликка жалб этиш, энг асосийси, иш берувчилар томонидан уларнинг ҳуқуқ ва манфаатлари таъминланишида яқиндан ёрдам кўрсатмоқда [12]”* деб такидлаган эди.

Ушбу хизматни изчиллик билан ривожлантириш мақсадида, 2021 йил 3 февраль кундаги ПФ-6155-сон Фармони билан тасдиқланган “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури”нинг 30-бандида халқаро стандартлар ва инсонпарварлик тамойилини кенг жорий этган ҳолда жазони ижро этиш ва пробацая хизматини янада такомиллаштириш бўйича қатор вазифалар белгиланган. Жумладан:

- пробацая хизмати марказий ва ҳудудий маҳкамалари мақомини ошириш, ушбу хизматнинг кадрлар салоҳияти ва моддий-техника базасини мустаҳкамлаш;
- пробацая назоратидаги шахсларнинг хулқ-атворини назорат қилиш, уларни ижтимоий мослаштириш ва янги жиноят содир этишининг олдини олиш механизмларини такомиллаштириш;
- пробацая назоратидаги шахсларнинг хатти-ҳаракатларини, уларга электрон браслет воситасини таққан ҳолда,

реал вақт режимида электрон кузатиш ва мониторинг қилиш тартибини жорий қилиш;

– “пробация фаолияти” таълим йўналиши ва мутахассислиги бўйича кадрлар тайёрлашни йўлга қўйиш;

– ҳокимликлар ҳузуридаги озодликдан маҳрум этиш жойларидан озод қилинган шахсларни реабилитация қилиш ва ижтимоий мослаштириш марказлари фаолиятини такомиллаштириш вазифалари белгиланган.

Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикасининг амалдаги жиноят-ижроия қонун ҳужжатларида «пробация», «пробация назорати», «пробация хизмати» атамалари ҳанузгача қўлланилмаган. Республикамизда жиноят-ижроия қонунчилигининг ривожланиш босқичларида ушбу тушунчаларга муқобил атамалардан фойдаланиб келинган: меҳнат-ахлоқ тузатиш ишлари, жиноий жазоларни ижро этиш тизими, жазони ижро этиш инспекцияси, озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ жазоларни ижро этувчи органлар тизими ва ҳ.к.

ПРОБАЦИЯ ТУШУНЧАСИ МУҲОКАМАСИ

Олимлар томонидан мазкур тизимга оид турли фикрлар билдирилган. Жумладан, озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган ёки қамоқдан озод қилинган жазоларга маҳкум этилганлар билан ишлаш фаолиятини (хизматларини) институционализация қилиш учун қўлланилади [13] деган тариф берилган.

Пробация маҳкумнинг хулқ-атворида шундай таъсир қилишлари, у ўз жавобгарлигини ангашиши ва онгли равишда тузатиш йўлини тутсин [14], деган фикрлар ҳам мавжуд. Айрим олимлар томонидан пробация хизмати деганда, шартли судланганлик шакли тушунилиб, бунда маҳкум озодликдан маҳрум қилинмасдан махсус органлар назорати остида бўлади, синов муддати ва унга қўйиладиган талаблар суд ҳукми билан белгиланади [15] деб кўрсатилади.

Пробация бу ижтимоий ва ҳуқуқий назоратнинг бир шакли [16] эканлиги ҳақида ҳам фикрлар кўрсатиб ўтилган, шу билан бирга яна бир тарифда пробация – бу белгиланган жазони шартли равишда адо этмасдан маҳкумни муайян муддатга махсус мансабдор шахснинг (агент, ёрдамчи, пробация бўйича вакил) индивидуал назорати остида жойлаштиришдан иборат [17] деб айтилади.

Шунингдек, Қозғистон Республикасининг Пробация тўғрисидаги қонунни бўйича Пробация - бу тоифалари аниқланган шахсларнинг хатти-ҳаракатларини тўғрилашга қаратилган, янги жиноий ҳуқуқбузарликлар содир этилишининг олдини олиш учун индивидуал равишда белгиланган назорат ва ижтимоий-ҳуқуқий характердаги тадбирлар тизимидир [18].

Ақсарият олимлар томонидан пробация «ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар тизими» ёки «суд тизими» тушунчасига сингдириб юборилади ва алоҳида эътироф этилмайди. Бизнингча, бундай ёндашув ҳам тўғри эмас. Аслида, *пробация хизмати жамиятда қонунийликни*

мустаҳкамлаш, жиноятларнинг олдини олиш ва жиноят содир этган шахсларни ахлоқан тузатиш билан боғлиқ комплекс тадбирларни қамраб олган алоҳида ҳуқуқий-ижтимоий тузилма ҳисобланади.

Айрим олимлар пробацция атамасига нисбатан тор ва кенг ёндашувни таҳлил қилган ҳолда ушбу тизим озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жиноий жазоларни ижро этувчи давлат органлари ва муассасаларини, маҳкумларни ахлоқан тузатиш мақсадига эришишни таъминлайдиган ташкилий-ҳуқуқий, ижтимоий ва жамоат тузилмаларини ўз ичига олишини [19] таъкидлайди.

Ушбу тарифларларга яқин бўлган яна бир тушунчага асосан пробацция институти бир қатор ижобий жиҳатларга эга, хусусан:

-жазони ўташ учун инсонпарварлик тамойилининг намоёниши сифатида муқобиллик;

-маҳкумликда ижтимоий масъулиятли хатти-ҳаракатни шакллантириш;

-ижтимоий мослашувни рағбатлантириш ва такрорий ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш;

-ҳуқуқбузарни жамият ҳаётига киритишга кўмаклашиш;

- пенитенциар тизимларни сақлаш харажатларини камайтириш [21].

Узоқ тарихга эа бўлган бу юридик институтнинг ривожланиши давомида у ижтимоий хизматларнинг кенг доирасига асос солди [22]. Шу билан бир қаторда, XX аср охирида пробацция институти Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг этиборини тортиб, жиноятчиликка қарши кураш доирасида бир қатор халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилинди [24].

“Пробацция хизмати” атамаси илмий муомалада ва умумий маънода қўллаш учун зарур, чунки у озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жиноий жазоларни ижро этиш субъектлари, маҳкумларни ахлоқан тузатишда иштирок этадиган ташкилий-ҳуқуқий, ижтимоий ва жамоат тузилмалари йиғиндисини тўлиқ белгилаш имконини беради.

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, “**Пробацция** – бу озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жиноий жазолар ва бошқа жиноят-ҳуқуқий таъсир чораларини ижро этувчи давлат органлари ва муассасаларини ҳамда уларнинг маҳкумларни ахлоқан тузатиши ва қайта ижтимоийлашуви мақсадига эришишга қаратилган тарбиявий-ахлоқий, педагогик-психологик, сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий ва бошқа фаолият йўналишларини ўз ичига қамраб олган тузилма” дир.

ПРОБАЦИЯНИНГ ИЖТИМОЙ МАҚСАДЛАРИ ВА ВАЗИФАЛАРИ

Ўзбекистон Республикаси пробацция хизмати пенитенциар тизимининг муҳим элементи ҳисобланади. ЖИКнинг 3-боби қоидаларига мувофиқ, жиноят-ижроия тизимига жазоларни ва бошқа жиноят-ҳуқуқий таъсир чораларини ижро этувчи муассасалар ва органлар қиради.

Жиноят-ижроия тизими кўп тармоқли, кўп функцияли ижтимоий тизим ҳисобланади [25].

Пробация хизматининг самарадорлиги муаммолари ижтимоий жараёнларни бошқаришда мақбулликни таъминлаш, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг жиноятчиликка қарши курашиш борасидаги фаолиятини яхшилаш ва мазкур курашнинг самарадорлигини ошириш вазифалари биринчи ўринга чиқаётган ҳозирги шароитда уларни чуқур тадқиқ этиш зарурияти мавжудлигини кўрсатади. Ҳар қандай фаолият, шу жумладан, пробация фаолиятини ҳам унинг пировард натижаларига кўра баҳолаш давр талабидир.

Ҳозирги кунда пробация хизматининг фаолиятини етарлича самарали дейиш ўринли бўлмайди. Чунки жиноят-ижроия муносабатлари доимий равишда ривожланаётгани боис, тизимнинг ўзгарувчи элементлари эскириши ва ўзгарган янги шароитлар билан мос келмаслиги мумкин. Шу сабабли, амалдаги пробация тузилмалари самарадорлигини ўрганиш, ижтимоий муносабатларнинг ривожланиши тенденцияларини аниқлаш, пробация органларини такомиллаштириш мақсадида уларни янада ривожлантириш йўллари прогност қилиш борасида изчил тадқиқот олиб бориш зарур.

Давлат, умуман олганда, қўриқлаш функциясини бажаради. Аммо айрим органлар учун бу асосий эмас, балки қўшимча вазифа бўлса, бошқа органлар учун айнан шу функция уларнинг бош мақсадини белгилайди, айти шу функцияни амалга ошириш учун ҳам улар ташкил этилади. Давлат механизмнинг турли бўғинлари ҳуқуқий тартиботни қўриқлаш, таъминлаш, ҳимоя қилишни амалга оширади, бунда мазкур элементлар бирикмаси айти бир орган доирасида ҳар хил бўлади.

Бу тўлалигича пробация тузилмасига ҳам тегишли: унинг турли элементлари ҳуқуқий тартиботни ҳам қўриқлаш, ҳам таъминлаш, ҳам ҳимоя қилишни у ёки бу даражада амалга оширади, бироқ асосан бу вазифалардан бирини бажаришни мақсад қилади.

Мамлакат иқтисодий ва сиёсий тизимларидаги ўзгаришлар хусусиятини ҳисобга олганда, пробация органи мақомининг назарий ва амалий жиҳатларини тадқиқ этиш ҳозирги вақтда алоҳида қийинчиликлар туғдиради. Бу ерда ҳуқуқий давлат ғоясини идрок этиш биринчи даражали аҳамият касб этади. Ҳуқуқий давлатда жамият ҳаёт фаолиятининг барча соҳаларида қонун ҳукмронлиги, шахс эркинлиги, инсон ҳуқуқлари ва манфаатларининг дахлсизлиги, давлат ва шахснинг ўзаро жавобгарлиги принциплари, давлат ва жамият ҳаётининг муҳим принципларидан бири – қонунийликнинг мазмунига жиддий қўшимчалар киритилиши талаб қилинади [26].

Ҳозирги даврда пробация хизмати мамлакатимизда ислохотларни маърифатли воситалар ёрдамида, қонуний тартиб-таомиллар доирасида, ҳеч кимнинг ҳуқуқлари ва манфаатларини камситмасдан амалга

ошириш, аммо шу билан бир вақтда жиноятчиликка қарши курашни кучайтиришнинг кафолатларидан бири бўлиши лозим.

Пробация хизмати бир қатор белгиларга эга:

– алоҳида ваколатларга эга бўлган, махсус тузилган давлат органи тузилмаси ҳисобланади;

– жиноят, жиноят-ижроия ва бошқа қонун ҳужжатлари билан тартибга солинган пробация муносабатларининг барча соҳаларида амал қилади;

– қоида тариқасида, жиноят қонунчилиги бузилиши туфайли амалга оширилади;

– ўз вазифаларини давлат ҳокимияти органлари, маҳаллий ўзини-ўзи бошқарув органлари, жамоат бирлашмаларидан мустақил амалга оширади.

Аксарият ҳолларда пробация органлари таркибий жиҳатдан ижро ҳокимияти органларига киради. Ўзбекистон Республикасида жинойий жазони ижро этадиган органлар ва муассасалар асосан Ички ишлар вазирлиги ҳамда прокуратурада жамланган бўлиб, ушбу органларга Мудофаа вазирлигининг интизомий ҳарбий қисмлари ҳам киради. Ички ишлар вазирлиги ва Мудофаа вазирлиги ижро этувчи ҳокимият органлари ҳисобланади.

Ҳар қандай ижтимоий жараённинг самарадорлиги, энг аввало, уни ташкил этувчи ҳуқуқий муносабатлар субъектлари тизими қай даражада оқилона ташкил этилгани ва уларнинг ўз вазифаларини қай даражада бажаришлари билан белгиланади. Жинойий жазони ижро этиш тизими ўзаро алоқадор субъектлар озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жинойий жазоларни ижро этадиган муассасалар ва органларнинг ягона бошқарув комплекси [27].

Шунга ўхшаш фикрни А.А.Игнатъев [28] ва Н.И.Петренко [29] ҳам билдирганлар.

ЖИК 3-бобининг мазмунидан Ўзбекистон Республикасининг жинойий жазони ижро этиш тизими жазо ва бошқа жиноят-ҳуқуқий таъсир чораларини ижро этувчи муассасалар ва органлардан иборат, деган хулоса келиб чиқади.

ЖИК 14-моддасига мувофиқ, Ўзбекистон Республикасининг жазоларни ижро этувчи муассасалари ва органларига қуйидагилар киради:

– жарима Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси томонидан ижро этилади;

– муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш, ахлоқ тузатиш ишлари, мажбурий жамоат ишлари, озодликни чеклаш, озодликдан маҳрум қилиш ва умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазолари Ички ишлар вазирлиги Пробация хизмати томонидан ижро этилади. Муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш жазоси маҳкумнинг иш жойидаги маъмурият томонидан, шунингдек тегишли фаолият турлари билан шуғулланиш ваколати берилган рухсатномани бекор қилишга ваколатли органлар томонидан ижро этилади;

ҳарбий хизматчиларга нисбатан:

– хизмат бўйича чеклаш тариқасидаги жазо – ҳарбий хизматчи хизматни ўтаётган жойдаги ҳарбий қисмларнинг (муассасаларнинг) қўмондонлиги томонидан;

– интизомий қисмга жўнатиш тариқасидаги жазо – махсус ташкил этилган ҳарбий қисмлар томонидан ижро этилади;

– ҳарбий ёки махсус унвондан маҳрум қилиш тариқасидаги қўшимча жазо мазкур унвонни берган орган томонидан ижро этилади.

ЖИК 15-моддасида Ўзбекистон Республикасининг бошқа жиноят-ҳуқуқий таъсир чораларини ижро этувчи муассасалари ва органлар кўрсатилган.

Жиноят-ижроия кодексининг IV-бўлимида “Озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони ижро этиш тартиблари” алоҳида белгиланган, яъни жазони ижро этиш муассасаларининг тартиби ва турлари аниқ кўрсатилган, аммо “озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган” жазо чораси шахсларга нисбатан қўлланилишдаги ҳуқуқий аҳамияти ҳамда жазони ижро этиш фаолиятини таъминловчи давлат органининг қонуний мақоми, ваколатлари, назорат қилиш тартиби, ахлоқан тузатиш воситалари ва уларни қўллаш механизмларини тартибга солувчи ва таъминловчи давлат органини алоҳида норматив қонун асосида тўлиқ қамраб олувчи тизим шаклланмаган.

Ҳозирда оғир, айниқса, фуқароларни жамиятдан ажратиш билан боғлиқ бўлган жазоларнинг жиноятчиликнинг олдини олишдаги аҳамиятини ошириб кўрсатиш ўринсиз эканлигини ҳаётнинг ўзи исботламоқда. Жиноятчиликнинг олдини олиш, унга қарши курашиш самарадорлиги жазонинг оғирлиги ва шафқатсизлигига эмас, балки биринчи навбатда, қонунни бузган шахснинг жазонинг муқаррарлигини нечоғли англашига боғлиқ.

Ўзбекистон Республикаси ЖК 7-моддасида “Жазо ва бошқа ҳуқуқий таъсир чоралари жисмоний азоб бериш ёки инсон кадр-қимматини камситиш мақсадини кўзламайди. Жиноят содир этган шахсга нисбатан у ахлоқан тузалиши ва янги жиноят содир этишининг олдини олиш учун зарур ҳамда етарли бўладиган жазо тайнланиши ёки бошқа ҳуқуқий таъсир чораси қўлланилиши керак” дейилади. Аммо, “шахсни жамиятдан ажратиш билан боғлиқ жазолар қайд этилган принципга қай даражада мос келади?”, деган асосли савол туғилиши мумкин. Зотан:

а) жазолаш орқали инсонни нормал ҳаётий шароитларга мослаштиришни мақсад қилган ҳолда, озодликдан маҳрум қилиш жазоси шахсни жамиятдан бутунлай ажратиб кўяди;

б) жазо жиноят содир этган шахсларни қайта тарбиялашни, ўша шахс ва бошқа шахслар томонидан янги жиноят содир этилишининг олдини олишни мақсад қилиб қўйган ҳолда, озодликдан маҳрум қилиш жазоси уларни бошқа жиноятчилар гуруҳига қўшиб кўяди, бу эса, уларда тажриба алмашиш имконини яратади;

в) жазонинг мақсади жиноят содир этган шахсларни ижтимоий фойдали меҳнат муҳитига ўргатиш бўлгани ҳолда, озодликдан маҳрум қилиш жазоси уни эркин ҳаётдан бутунлай



узоқ бўлган муҳитга жойлаштиради, натижада озодликка чиққанидан кейин шахсда янги ҳаётида бар қанча муаммолар (масалан, ўзига мос иш топиб ишлаш, оилавий муаммоларни бартараф этиш, спиртли ичимликларга ружу қўймаслик ва ҳ.), туғилади бошқача айтганда, маҳкумни пассив ҳаёт тарзига ўргатиб қўяди. [30]

Бундан ташқари, амалдаги жазони ижро этишнинг маҳкумларни фаол ижтимоий ҳаётдан батамом узиб қўяди. Уларни умидсизликка тушириб, “қамоқхона” шароитига мослаштириб қўяди. Ваҳоланки, жазодан кўзланган мақсадлардан бири маҳкумларни ахлоқан тузатиш, уларни ижтимоий фойдали ҳаёт шароитига ўргатиш ҳисобланади. Шу мақсадда, маҳкумга муассаса доирасидан муайян муддатга четга чиқиш орқали уни ижтимоий фаол ҳаётга тайёрлаш механизмини кенгайтириш мақсадга мувофиқ. Бундай механизм кўплаб ривожланган давлатлар (Франция, Германия, Қозоғистон ва ҳ.к.)да амал қилмоқда.

Шу нуқтаи назардан республикада шахсни озодликдан маҳрум қилишга муқобил бўлган жазолардан самарали фойдаланишга қаратилган ислоҳотлар олиб борилмоқда. Ўзбекистон Республикаси ЖИКда белгиланган жазолар ва бошқа жиноят-ҳуқуқий таъсир чораларини ижро этувчи муассасалар ва органларнинг вазифаларидан келиб чиқиб, **пробация хизматининг вазифаларига қўйидагиларни киритиш мумкин:**

Мамлакатимизда пробация бўлинмаларининг асосий вазифалари этиб қўйидагилар белгиланган:

- ички ишлар органларининг озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларни ижро этиш бўйича фаолиятини бошқа давлат органлари ва ташкилотлари, шунингдек, жамоат тузилмалари билан ўзаро ҳамкорликда самарали ташкил этиш;
- шартли ҳукм қилинган ва жазони ўташдан муддатидан илгари шартли озод қилинган шахсларнинг хулқ-атвори устидан таъсирчан назоратни амалга ошириш;
- назорат остидагилар, шунингдек, жазони ижро этиш муассасаларидан озод этилган вояга етмаганларнинг ижтимоий мослашуви ва ишга жойлашишига, шу жумладан, уларнинг касбий тайёргарлиги бўйича тадбирларни ташкил этиш орқали ҳар томонлама амалий кўмаклашиш;
- назорат остидагиларнинг қайта жиноят содир этиш хавфини аниқлаш ва бунга йўл қўймаслик бўйича профилактик чора-тадбирларни амалга ошириш, уларнинг шахсини ижтимоий-психологик портретни тузган ҳолда ўрганиш.

Пробация тузилмаси ҳақида гапирганда, шуни қайд этиб ўтиш лозимки, республика бўйича жами 215 та бўлинма: пробация хизмати, 14 та ҳудудий пробация бўлимлари ва 200 та туман (шаҳар) пробация бўлинма (гуруҳ)лари фаолияти йўлга қўйилди [31].

Туман (шаҳар) пробация бўлинмаларининг шахсий таркиби улар зиммасига юклатилган вазифаларни бажаришда, қоида тариқасида, бир нафар ходимга шаҳарларда – 100, туманларда – 75 нафар маҳкум ҳисобидан келиб чиқиб тақсимланади.

Пробация бўлинмалари устуворлик асосида ижтимоий, педагогика ва профилактика соҳаларида иш тажрибасига эга бўлган офицерлар таркибидаги малакали ходимлар билан тўлдирилади. Катта амалий иш тажрибасига эга бўлган ва хизматдан салбий ҳолатларга кўра бўшатилмаган ички ишлар органларининг пенсионерлари, пробация бўлинмалари ходимлари лавозимига аттестациядан ўтган лавозим ҳисобидан тайинланишлари мумкин.

Жиноий жазоларнинг аксарияти Ички ишлар вазирлигининг муассасалари томонидан ижро этилади. Шу билан, бирга, ИИВ тизимида бўлган пробация хизмати жиноий жазоларни ижро этадиган орган бўлса ҳам, бир қатор ўзига хос хусусиятларга эга.

ПРОБАЦИЯ ИНСТИТУТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Хўш, пробация тузилмасининг ўзига хос хусусиятлари нималардан иборат?

Биринчидан, таъкидлаш лозимки, тарихий ривжланиш давомида пробация тузилмаларининг бир нечта институционал моделлари шаклланди. **Жазоларни ижро этиш тизимининг у ёки бу давлат идорасига қарашли эканлигига қараб, бундай тизимларни ташкил этишнинг беш моделини фарқлаш мумкин:**

- 1) Ички ишлар вазирлиги тизимидаги пробация;
- 2) Адлия вазирлиги тизимидаги пробация;
- 3) жазоларни ижро этиш тизими бирлаштирилган Адлия ва ички ишлар (полиция) вазирлиги бошқаруви остида бўлган пробация;
- 4) алоҳида давлат департаментининг таркибида бўлган пробация;
- 5) жазоларнинг турлари ёки процессуал мажбурият чоралари турли идораларнинг ихтиёрига берилган аралаш пробация.

Яна шуни ҳам қайд этиб ўтиш лозимки, айрим мамлакатларда пробация хизмати пенитенциар тизимдан ажратилган ва ички ишлар вазирлиги олдида эмас, балки бутунлай бошқа давлат идораси ёки нодавлат агентлиги олдида ҳисобдор. Масалан, Сингапурда пробация хизмати Ижтимоий ривожланиш ва спорт вазирлиги томонидан бошқарилади [32]. Латвияда пробация хизмати мустақил давлат хизмати ҳисобланади. Грузияда бу борада махсус агентлик мавжуд.

Жазоларни ижро этиш хизматининг тузилмаси ва уни ташкил этиш ҳам турли мамлакатда фарқ қилиши мумкин. Масалан, Финляндияда Бош директор томонидан бошқариладиган Жиноий жазолар бўйича агентлик икки хизматдан иборат: пробация хизматидан ва турмаларни бошқариш хизматидан. [33] Биринчи хизмат жамоат санкцияларини ижро этиш, жазони ўташдан муддатидан илгари шартли озод қилинган вояга етмаганларни назорат қилиш, жамоат ишлари тариқасидаги жазони ижро этиш, жазони ўташдан муддатидан илгари шартли озод қилинган шахсларни назорат қилиш ва озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган бошқа жазоларни ижро этиш билан шуғулланади. Иккинчи хизмат озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ



ҳукмларни ижро этади, шунингдек қамоққа олинган айбланувчиларни суд ҳукми чиқарилгунга қадар қамоқда сақлашни ташкил этади.

Шу нарса диққатга сазоворки, Нидерландияда пробацция хизмати учун бюджетдан маблағлар Адлия вазирлиги томонидан ажратилса-да, дастурлар уч нодавлат агентлик: асосан уй-жойсиз одамлар ва вояга етмаганлар билан ишлайдиган Халоскорлик Армиясининг пробацция бўлими; алкоголизм ёки гиёҳвандликка чалинган одамлар билан ишлайдиган Руҳий саломатликни сақлаш ташкилоти; ҳар бирида 11-15 ходим ишлайдиган 60 дан ортиқ офисларга эга бўлган Пробацция миллий хизмати томонидан амалга оширилади. Бюджет маблағларини тақсимлаш ва мазкур агентликлар фаолиятини мувофиқлаштириш билан Нидерландиянинг Пробацция бўйича жамғармаси шуғулланади [34].

Данияда 1973 йилгача пробацция хизматини ва озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ жазоларни ижро этувчи тизимни бундай ажратиш қўлланилган. 1951 йилдан 1973 йилгача Данияда пробацция хизмати функцияларини нодавлат ташкилоти – Дания ижтимоий таъминот жамияти бажарган. У мазкур фаолиятни хусусий хайр-эҳсонлар ҳисобига амалга оширган [35]. 1973 йилда пробацция хизмати тўлалигича Дания Адлия вазирлиги ихтиёрига ўтган. Мазкур ислохотга қуйидагилар: *биринчидан*, барча жазоларни ижро этиш айна бир вазирлик томонидан амалга оширилишининг афзалликлари; *иккинчидан*, пробацция дастурларини амалга ошириш учун хусусий хайр-эҳсонлар камлик қила бошлагани сабаб бўлган [35].

Шунингдек, Америка Қўшма Штатларида Пробацция хизматининг умумий бошқаруви АҚШ Олий судининг маъмурий идораси томонидан амалга оширилади ва соҳани бевосита бошқариш маҳаллий судлар томонидан амалга оширилади.

Буюк Британияда Адлия вазирлиги олдида ҳисобдор бўлган ҳуқуқбузарларни даволаш бўйича миллий хизмат томонидан амалга оширилади, ГФРда Пробацция институти суд тизимида пробацция бўйича судянинг ёрдамчиси шаклида таркибий тузилишга эга.

Швецияда мустақил қамоқ ва пробацция хизмати томонидан амалга оширилса, Эстонияда пробацция Адлия вазирлигининг Жиноят назорати бўйича давлат хизмати томонидан амалга оширилади.

Иккинчидан, ҳозирги замон пробацция хизмати ривожланиш жараёнига XVIII асрда Европа ва АҚШда вужудга келган либерал йўналиш ҳалигача ўз таъсирини кўрсатмоқда. [36] Бу ҳол халқаро ноҳуқумат ташкилотларининг фаолиятида ҳам намоён бўлмоқда. Масалан, “Жиноят учун жазолар тизимини ислоҳ қилиш халқаро ташкилоти” (PRI) турмалар сонини қисқартириш учун кураш олиб бормоқда. PRI собиқ бош котиби В.Спарк (Англия) фикрига кўра, турмаларга жойлаштирилган жиноятчилар сонини тўртдан бирга қисқартириш жиноятчиликни атиги 1% га қисқартиришга қодир. Бундан ташқари, турмалар бутун жамиятга салбий таъсир кўрсатади [38].

Давлат тузилиши ва сиёсий тизимнинг янги шакллари давлат ва жамиятнинг ўзаро нисбатини ўзгартиришга асосланиши лозим. Мазкур жараёнлар ҳам жамиятнинг ўзида, ҳам давлат механизмида ва бутун сиёсий-ҳуқуқий устқурмада, шу жумладан жинойт учун жазоларни ижро этиш тизимида ҳам ўз ифодасини топиши лозим.

Муаммонинг бундай қўйилиши ривожланган ғарб мамлакатларида ўринли бўлса керак. Аммо мамлакатимизда шундай бир менталитет шаклланганки, агар жинойтчи озодликдан маҳрум қилинган бўлмаса, атрофдагилар кўз ўнгида у умуман жазоланмаган ҳисобланади. Бундай ҳолатнинг сабаби шундаки, мамлакатимизда айнан озодликдан маҳрум қилиш реал ижро этилади, озодликдан маҳрум қилишга муқобил жазо, жумладан, ахлоқ тузатиш ишларининг самарадорлиги кутилган даражада эмас. Шу сабабдан, мамлакатимизда озодликдан маҳрум қилишга муқобил жазо турларини ижро этишнинг амалдаги механизмини такомиллаштириш, уларга сезиларли ўзгартиришлар киритиш зарурати мавжуд.

Жамиятимизда юз бераётган ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда, пенитенциар тизим жазони ижро этишга нисбатан умумэътироф этилган гуманистик ёндашувларни ўзида бирлаштирган, айтилиши вақтда мамлакатимиз воқелиги хусусиятларини, ҳуқуқий тартиботни мустаҳкамлаш талабларини, шунингдек ресурс билан боғлиқ имкониятларни ҳисобга оладиган моделга қараб йўналтириш лозим.

Шунга кўра, пробация муассасалари ҳуқуқий давлат механизмида ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ролини, аммо ижро этувчи ҳокимият функциялари доирасида бажаришлари лозим. Бошқача қилиб айтганда, улар бир вақтнинг ўзида ҳам ҳуқуқни муҳофаза қилиш, ҳам ижро органлари ҳисобланади. Биринчи ҳолда улар репрессив, жазоловчи органлар бўлмаслиги, балки аксинча, давлат ва жамиятда қонун устуворлигини таъминлашлари лозимлиги назарда тутилади. Иккинчи ҳолда мазкур органларнинг ҳокимият бўлиниши тизимидаги ўрни кўрсатилади ва улар шакл-шубҳасиз ҳокимиятнинг ижро бўғинига киритилади. Шундай қилиб, мазкур органлар ҳуқуқий давлат механизмида мустақил ҳокимият хусусиятини йўқотади ва бу ҳол уларнинг давлат механизмидаги, давлат ва жамиятдаги ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари сифатидаги ролини асло камайтирмайди.

Мамлакатимиздаги пенитенциар тизимнинг ҳозирги ҳолатини қониқарли, деб бўлмайди. Бугунги кунда пенитенциар тизимнинг самарадорлигини таъминлаш имконини берадиган янги, шу жумладан, ташкилий, амалий ва ҳуқуқий имкониятлардан бири – бу пробация хизматини жорий этишдир.

Учинчидан, пробация хизмати – бу репрессив орган эмас, аксинча, ижтимоий хизмат кўрсатиш тузилмасидир. Яъни унинг асосий ва бош вазифаси – бу жазони ижро этиш эмас, балки маҳкумнинг жамиятда қайта ижтимоийлашувини таъминлашдан иборат. Шу орқали инсонпарварлик тамойиллари ўз аксини топган миллий қонунчилигимиз мустаҳкам пойдевор бўлмоқда [40].

Шу ўринда, атиги бир йил ичида (2019 йил) пробация бўлинмалари томонидан амалга оширилган ишларга рақамлар мисолида назар ташлайдиган бўлсак:

– ички ишлар органлари пробация бўлинмалари томонидан 61 053 нафар шахс назорат остига олинган бўлиб, шундан ахлоқ тузатиш ишларида – 20 021 нафар, шартли ҳукм қилинлар – 2 340 нафар, муайян ҳуқуқдан маҳрум қилинганлар – 6 925 нафар, озодликни чеклаш – 9 767 нафар, мажбурий жамоат ишлари - 137 нафар ва шартли озод қилинганлар – 21 863 нафарни ташкил этади;

– кенг жамоатчилик вакиллари билан ҳамкорликда ўтказилган профилактик тадбирлар натижасида назорат остидаги 53 393 нафар шахслар ҳисобдан чиқарилди;

– ўзининг қонунларга итоаткорлиги ва меҳнатга бўлган ижобий муносабати билан қатъий тузалиш йўлига кирган 25 431 нафар назоратдаги шахслар Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 73- моддасига асосан жазодан муддатидан илгари шартли озод этилди;

– назоратдаги шахсларни ижтимоий мослаштиришга, уларни ўқишга ва ишга жойлаштиришга ҳамда қайта касбга йўналтиришга асосий эътибор қаратилди. Хусусан, назорат остидаги шахслар томонидан қайта жиноят содир этиш хавфини аниқлаш борасида 20 370 нафарини ижтимоий психологик портрети тузилиб, шу асосида тарбиявий профилактик таъсир чоралари олиб борилмоқда;

– назоратдаги шахсларни ижтимоий мослаштириш бўйича бандликка кўмаклашиш марказлари билан ҳамкорликда 1008 маротаба “Ишга марҳамат” тадбирлари ташкил этилиб, улардан 7 839 нафари ишга жойлаштирилди ва 9 090 нафарига ишга йўлланмалар берилди;

– муайян касбга эга бўлмаган 4 555 нафар шахслардан 3 794 нафари касб-хунарга ўқитилиб, 1 459 нафари касбга ўқитиш учун юборилди;

– назоратдагиларни ижтимоий мослаштириш ва ёрдам кўрсатиш масаласида мутасадди идора ва ташкилотларга 10 124 та тақдимномалар киритилди;

– назорат остидаги шахслар билан 22 190 маротаба учрашув ва давра суҳбатлари ўтказилиб, 303 005 та масалалар бўйича ҳуқуқий ёрдам кўрсатилди, жумладан: 243 174 нафарига жазони ўташ йўналиши бўйича; 30 209 нафарига ишга жойлаштириш; 4 916 нафарига соғлиғини тиклаш; 208 нафарига уй жой билан таъминлаш; 421 нафарига ўқишга кириши; 6 563 нафарига моддий ёрдам олиш; 2 550 нафарига маиший масалаларда ва 6 044 нафарига бошқа масалалар бўйича ҳуқуқий ёрдамлар кўрсатилди [41].

Ўз навбатида 2020 йилнинг бошида республика бўйича 20021 нафар маҳкум ушбу жазони ўтаётганлар ҳисобида турган бўлса, ушбу даврга қадар яъни 2019 йилнинг 12 ойи давомида 10499 нафар маҳкум ушбу жазони ўташдан муддатидан илгари шартли озод қилинган ҳамда 11057 нафар маҳкумга қўлланилган ахлоқ тузатиш ишлари жазосига ундан енгилроқ бўлган жазо турлари билан алмаштирилган [42].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ–4947-сонли Фармони билан тасдиқланган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид давлат дастурининг “Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари” деб номланган 2-бўлимида ички ишлар органлари фаолиятининг ташкилий-ҳуқуқий асослари ва самарадорлигини комплекс ўрганиш, таҳлил қилиш ва баҳолаш, биринчи навбатда, жазони ижро этиш тузилмалари фаолиятини такомиллаштириш зарурати назарда тутилган [43].

Фикримизча, бугунги кунда, Ўзбекистонда пенитенциар соҳадаги мавжуд қонунчилик замон талабларига, айниқса унинг превентив жихатларини кучайтириш нуқтаи назаридан, жавоб бера олмай қолган. Шунинг учун, ҳозирги кунда Ўзбекистон жазони ижро этиш тизимидаги ислохотлар фақат ушбу тизимни қайта ташкил этиш билан чекланмаслиги лозим, балки кенг кўламда, мамлакатда жиноятчилик ҳолати, тузилиши ва динамикасига боғлиқ ҳолда, давлатнинг келажақдаги жиноят ҳуқуқий сиёсати ва қонунчилигидаги ўзгаришларни инобатга олган ҳолда, жазони ижро этувчи органлар ва муассасалар тизимини, уларнинг вазифалари ва функциялари, ташкилий тузилмаси, ваколат доираси, умуман, бутун пенитенциар тизим ва унинг ҳар бир алоҳида таркибий бўғини фаолияти профилактик юклама нуқтаи назаридан қайта кўриб чиқилиши лозим.

Замонавий демократик жамиятда пробаця давлат ижроия ҳокимияти органлари тизимида бўлсада, ижтимоий назоратга доимо тайёр ва очиқ бўлади, зеро бу нафақат маҳкумларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлайди, балки ходимларнинг ижтимоий муҳофазаси этилиши даражасини оширади, жинойий жазоларни ижро этишда халқаро стандартларига риоя этилишига имкон яратади. [44]

Шу билан бирга, тан олиш зарурки, қарийб барча даврларда пенитенциар муассасалар нафақат давлат механизми, балки жамият сиёсий тизимининг энг муҳим элементларидан бири ҳисобланган. Аммо, биз эски “совет” тизими хатоларидан узоқ бўлишимиз, пенитенциар тизимнинг давлат ҳокимияти билан яқинлиги, давлат сиёсий репрессив кучига ва қуролига айланишидан воз кечишимиз даркор.

Бугунги кунда Ўзбекистонда том маънодаги пенитенциар тизим шаклланиши учун аста-секин зарур ижтимоий, иқтисодий ва ҳуқуқий асослар яратилмоқда. Пенитенциар тизим шаклланишининг ижтимоий-иқтисодий асослари шундаки, давлатда жинойий жазоларни ижро этиш бўйича махсус ижтимоий институтлар пайдо бўлмоқда – шулардан бири пробаця хизмат ҳисобланади.

Таъкидлаш лозимки, ҳозирги босқичда жазони ижро этиш тизими таҳлили унинг инсонпарварлашуви, маҳкумнинг инсоний қадр, қиммати ва шаъни тан олиниши, унинг ажралмас ҳуқуқ ва эркинликлари тўлақонли қафолатланиши тенденцияси мавжудлигидан дарак бермоқда.

Бизнингча, ҳуқуқий давлатда пробация хизмати роли мутлақо янги сифат касб этиши лозим. Репрессив, жазоловчи органлар туркумидан, у том маънода ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органга айланиши шарт, яъни унинг бутун фаолияти тўла-тўқис фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, жамият ва давлат манфаатларини муҳофаза этишга қаратилиши лозим. Шу орқали, пробация органи давлат ҳокимиятини эмас, қонун устуворлигини таъминлашга ўз хиссасини қўшади.

Тўртинчидан, ривожланган хорижий давлатларнинг пробация хизмати фаолияти ўрганилганда, уларда асосан тўрт шаклдаги пробация хизматлари мавжудлиги аниқланди:

Судгача пробация;

Пенитенциар пробация;

Ижроия пробация;

Постпенитенциар пробация.

Демак, уларни бирма-бир кўриб чиқамиз:

1) Судгача пробация - (*Буюк Британия, Венгрия, Словакия*) суд томонидан ҳукм чиқарилаётганда ҳисобга олинадиган муайян жиноятчининг психологиясини ўрганиш ва унинг ижтимоий хусусиятларини ўрганишдан иборат. Хорижий мамлакатлар тажрибасидан келиб чиққан ҳолда, жиноий жазони истисно қилувчи энг инсонпарвар чора судгача бўлган пробация ҳисобланади. Ушбу чора **Италияда** фаол қўлланилади ва 8 ойгача иш юритишни тўхтатиб туриш ҳисобланади. Ушбу даврда вояга етмаганлар кўпинча маҳаллий черков томонидан ташкил этилган реабилитация ва таълим дастурлари ва лойиҳаларига ташриф буюришади.

Гумон қилинувчилар ва судланувчиларга уларнинг хатти-ҳаракатларини тўғрилашга, янги жиноий ҳуқуқбузарликлар содир этилишининг олдини олишга, содир этилган жиноий қилмишнинг оқибатларини, шунингдек унинг сабаблари ва шароитларини минималлаштиришга қаратилган ижтимоий ва ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш. Судгача пробация гумон қилинувчининг хулқ-атворини тўғрилаш ва унинг янги жиноят содир этишининг олдини олишга қаратилган.

Пробация хизмати судгача пробацияга тортилган шахс мурожаат қилган кундан бошлаб ижтимоий ва ҳуқуқий ёрдам кўрсатишнинг индивидуал дастурини тайёрлайди ва унинг бажарилишини таъминлайди.

Судгача пробацияга тушган гумонланувчилар тоифаси:

- вояга етмаганлар;
- ногиронлар;
- аёллар: 58 ёш ва ундан юқори; уч ёшга тўлмаган ёш болалари бўлган ва ҳомиладор аёллар;
- эркаклар: 63 ёшдан катта; ёлғиз уч ёшга тўлмаган ёш болаларни тарбиялаётганлар.

Пробация хизмати гумон қилинувчи билан учрашганда суҳбат ўтказиши, унинг шахсий маълумотларини билиб олади,

инсоннинг психологик портретини аниқлаш учун тест синовини ўтказилади.

Шахсга психологик ва ижтимоий баҳо бериш учун гумон қилинувчи ҳақида маълумот тўплайди.

Амалга оширилган ишларнинг натижаларига кўра, пробацья хизмати судгача ҳисобот тайёрлайди, унга нисбатан судгача пробацья ўтказилган шахсга суд жараёни бошланишидан олдин тақдим этади.

2) Пенитенциар пробацья (*АҚШ, Швеция, Латвия*) – жазони ўташнинг якуний босқичида маҳкумни озодликка тайёрлаш мақсадида уни қайта ижтимоий тузатиш бўйича пенитенциар муассасалардаги тадбирлар мажмуасини ташкил этади.

Мазкур пробацья жазони ижро этиш (пенитенциар) тизими муассасаларида озодликдан маҳрум қилиш жазосини ўтаётган шахсларни қайта ижтимоийлаштириш бўйича чора-тадбирларни аниқлаш ва амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар кўради. Қамоқ жазосини ўташга бир йил қолган маҳкумлар ушбу тоифага киради.

7. POWO. Plants of the world online. (2022) //Facilitated by the Royal Botanic Gardens, Kew. [WWW Document].
8. Mion M. (2017). From “Circe's Root” to “Spongia Soporifera”: The Role of the Mandrake as True Anesthetic of Ancient Times. *Journal of Anesthesia History*, 3(4), 128-133.
9. Volis S. et al. (2018). Evolutionary history and biogeography of *Mandragora* L. (Solanaceae). *Molecular phylogenetics and evolution*, 129, 85-95.
10. Демидов С. М. (2020). Растения и животные в легендах и верованиях туркмен. *Серия «Этнография туркмен. №. 1*, 66.
11. Астахова В. Г. (1977). Загадки ядовитых растений. М., «Лесная промышленность», 176 с. с ил. (в оригинале), 196 с. с ил (электронная версия) //МОСКВА. – С. 633.88.
12. Топоров В. Н. Хаома // Мифы народов мира: Энциклопедия: В. – 1982. – С. 578-579.
13. Астахова В. (1983). Тайна мандрагоры // Юный натуралист. № 8. – С. 29.

14. Bosse-Griffiths K., Görg M., Brunner H. (1983). The fruit of the Mandrake. *Fontes atque pontes*, 62-74.
15. Germer, R. (1985). Flora des pharaonischen Ägypten [Flora of the Pharaonic Egyptian]. Mainz, Germany: Philip von Zabern.
16. Хлопин И.Н. (1991). Рец. на книгу: Авеста: избранные гимны. Пер. с авестийского и комментарии проф. И.М. Стеблина-Каменского. Душанбе, 1990. *Известия АН ТССР. Сер. гуманитарные науки*, 6, 86.
17. Аширова А. А. (1992). Лекарственные растения флоры Туркмении, и их применяемые в народной медицине. Ашхабад: Магарыф.
18. Kurbanov D. (1994). Flora of Kopetdagh. *Biogeography and ecology of Turkmenistan*. Springer, Dordrecht, 105-128.
19. Asilbekova D. T., Glushenkova A. (1998). I. Lipids of the seeds and flesh of the fruit of *Mandragora turcomanica*. *Chemistry of natural compounds*, 34(6), 664-667.
20. Askitopoulou H., Ramoutsaki I. A., Konsolaki E. (2000). Analgesia and anesthesia: etymology and literary history of related Greek words. *Anesthesia & Analgesia*, 91(2), 486-491.
21. Duke J. A. et al. (2002). Handbook of medicinal herbs second edition. P. 484-485.
22. Akhani H., Ghorbani A. B. (2003). *Mandragora turcomanica* (Solanaceae) in Iran: a new distribution record for an endangered species. *Systematics and Biodiversity*, 1(2), 177-180.
23. Gassen, Hans Günter, and Sabine Minol. (2006). Die Alraune oder die Sage vom Galgenmännlein: Science & Fiction. *Biologie in unserer Zeit* 36, 302-307.
24. Акмурадов А. и др. (2016). Эндемичные лекарственные растения Юго-Западного Копетдага, применяемые в туркменской народной медицине. *Сибирский медицинский журнал (Иркутск)*, 140(1), 56-61.
25. Мыратназарова Н. А. и др. (2021). Биологическая активность настойки листьев мандрагоры туркменской // Çölleri özleşdirmegiň meseleleri Проблемы освоения пустынь Problems of desert development. – С. 20-25.

MODERN VIRTUAL TECHNOLOGY AND ITS OPPORTUNITIES

Gulmira Tulenova

Department of Humanities Tashkent university of information technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi
Tashkent, Uzbekistan
tulenovag1961@mail.ru

Abror Sanaqulov

Department of Humanities Tashkent university of information
technologies named after Muhammad al-Khwarizmi
Tashkent, Uzbekistan
s_abror2904@mail.ru

ABSTRACT

The article analyzes the prospects for using the capabilities of modern virtual technologies in the information system of society, the strategic importance of socio-philosophical evaluation of indicators of virtual reality manifestation, the direction of research on virtuality, the impact of virtual reality on humanity and its significance in the organization and regulation of human life.

Keywords: information society, Internet, virtual reality, digital technologies, transformation, social institution, e-government

ANNOTATSIYA

Maqolada axborotlashgan jamiyat tizimida zamonaviy virtual texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari, virtual reallikni namoyon bo'lish indikatorlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan baholashning strategik ma'no-mazmuni, virtuallikni tadqiq etishning yo'nalishlari, virtual reallikning insoniyat uchun ta'siri hamda inson hayotini tashkil qilish va tartibga solishdagi ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, axborot jamiyati taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy institutlar transformatsiyasi, onlayn birlashmalar rivoji va ularning an'anaviy birlashmalar bilan hamkorligi, ijtimoiy kommunikatsiya tizimi o'zgarishiga Internet tarmog'i rivoji va ta'siri hamda zamonaviy ta'lim transformatsiyasi tadqiq qilingan

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, Internet, virtual reallik, raqamli texnologiya, transformatsiya, ijtimoiy institut, elektron hukumat

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы перспективы использования возможностей современных виртуальных технологий в информационной системе общества, стратегическое значение социально-философской оценки индикаторов проявления виртуальной реальности, направления исследований виртуальности, влияние виртуальной реальности на человечество и ее значение в организации и регулировании жизни человека.

Ключевые слова: информационное общество, интернет, виртуальная реальность, цифровые технологии, трансформация, социальный институт, электронное правительство

INTRODUCTION

In the system of the world information society, the effective use of the possibilities of modern virtual technologies is becoming more and more important.

This topic has already created virtual reality - beyond the boundaries of the field of cybernetics, and has become an object of research in fields such as social philosophy, psychology and culture.

Today, the process of wide implementation of information and communication technologies in world practice is also characterized by the virtualization of human activity. Because, as stated by M.Kastels, one of the founders of the information society, "networked structures form the basis of the modern world." [1].

The information explosion at the end of the 20th century - the 21st century is connected with new information and communication technologies, which in turn caused the formation of a new virtual reality, a new space where a person can exist. Among the technologies of virtual data transmission, its advantage is that the Internet not only transmits information, but also serves as a tool for interpersonal, group, and individual communication, and it continues to develop in parallel with the process of information collection, storage, transmission, and protection.

These, in turn, create the need to solve problems at various levels in the social-political, spiritual-cultural life of the society, education and training system.

We believe that the modern age is an informational age that creates a global media environment based on high and digital technologies, which is reflected in every aspect of our lives. As a result, the widespread use of digital economy and management methods based on it in practice has become one of the main factors in the development of the world economy. We believe that the modern age is an information age that creates a global media

environment based on high and digital technologies, which is reflected in every aspect of our lives.

WHAT DOES VIRTUAL REALITY IMITATE?

It can be known from the researches that the problem of virtuality was first of all attempted to be based on a scientific theoretical basis in the studies of postmodernists at the end of the 20th century, to characterize the conflict between scientific and technical development and culture.

On the other hand, the expansion of the scope of this problem is related to the development of the theory of information society, according to which virtuality is defined as the main and decisive feature of modernity. Different directions of theoretical research of virtuality have been defined. On the basis of such a classification, two ontologies were defined: the study of reality and virtuality according to the ratio of concepts. Thus, three directions were defined. First, the modernity of this phenomenon of virtuality and its man-made nature are studied separately - theories of virtual reality, virtualization, as well as postmodernist theories within this topic. A common feature of such studies is the contrast between virtuality and reality. Second, this approach has become a rather broad and well-described philosophical tradition.

Virtual reality is reality. The concept of "virtual" mass media is often used in the sense of "invented", "does not exist in reality". However, in the scientific discourse, "virtuality" has begun to be accepted as a type of reality. "Virtual reality, which is being talked about a lot these days, is not just another reality that we step into from time to time, but the reality that we actually live in.

In the early stages of the term virtual reality, panorama was understood. Panorama is Greek for field of vision. There are different forms of panoramas, such as drawn, shaped, photographed and video-film types. In IT, a panorama is a 360-degree view. The impact of virtual reality on humanity is clearly manifested in organizing and regulating human life, creating a new form of communication between people, increasing the positive impact of the main spheres of society's life on the spheres of politics, economy, art and tourism, etc.

Virtuality is an object or situation that does not exist in reality, does not exist in reality, but can occur under certain conditions. In virtuality, these conditions are implemented in different approaches. Ontologically speaking, we can learn that virtuality means a certain potential state of being, the existence of a certain active principle in it, a tendency to the occurrence of certain events or situations under certain conditions. With the help

of modern technical means, we can even dive deeper into virtual reality, in which we as a subject cannot separate the things and events of the real and virtual world from each other. Because this world affects a person directly through his emotions.

What VR imitates Virtual reality (VR, English virtual reality, VR, artificial reality) is a world created by technical means, transmitted to a person through his sensations: sight, hearing, touch and others. virtual reality?

Virtual reality simulates both exposure and responses to exposure.

To create a convincing set of sensations of reality, a computer synthesis of the properties and reactions of virtual reality is performed in real time.

Virtual reality objects usually behave close to the behavior of similar objects of material reality.

The user can influence these objects in accordance with the real laws of physics (gravity, water properties, collision with objects, reflection, etc.).

However, often for entertainment purposes, users of virtual worlds are allowed more than is possible in real life (for example: fly, create any objects, etc.).

Virtual reality should not be confused with augmented reality.

Their fundamental difference is that virtual reality constructs a new artificial world, while augmented reality only introduces individual artificial elements into the perception of the real world.

Technical tasks that are solved when providing immersion in virtual reality:

- *Image Broadcast ○ VR Headsets ○ MotionParallax3D Displays
- *Virtual retinal monitor
- *Sound broadcast
- *Simulated tactile sensations ○ Leap Motion ○ Gloves ○ Controllers
- *Tracking ○ Optical ○ Ultrasonic

STRUCTURING OF VR

Although there is a classification to define a specific type of "reality", there is also a classification by types within the concept of virtual reality [3]

Passive virtual reality - an autonomous graphic image and its sound accompaniment, not controlled by a person. Exploratory virtual reality - the ability to select options for image and sound scenarios provided to users in a limited number.

Interactive virtual reality (interactive virtual reality) is a virtual environment that the user can control and manipulate according to the laws of the synthesized world using special devices with the tracking function.

Tracking in virtual reality is a special technology that underlies human interaction with the virtual world.

It is aimed at accurately determining the coordinates and position of a real object (for example, a hand, head, or device) in a virtual environment using three coordinates (x, y, z) of its location and three angles (a, b, g) that specify its orientation in space.

APPLICATIONS OF VIRTUAL REALITY

Virtual reality is becoming more and more popular.

Despite the fact that the initial impetus for the development of VR was received from the gaming industry, in recent years VR has found its way into areas such as medicine, military affairs and astronautics.[4]

Virtual reality differs from objective reality, including our everyday life, because it is a specific state of consciousness. Similarly, virtual reality technologies are researched in the system of philosophy, psychology, aesthetics and social and humanitarian sciences in general. From this point of view, now it is of urgent importance to research virtual reality technologies, to determine the criteria of their application, their role in knowledge and practical activities, their relationship with the category of probability, the nature of virtuality in general with the properties of the universe and existence. According to B.V. Markov, telecommunications technologies enable democratization at the transnational level.

A unique definition of virtual reality is given in S.S. Khoruzhii's article: "Virtual reality, virtual events always have the characteristic of partially realized and relative existence, and are characterized by the lack or non-existence of one or another event of empirical reality". The fundamental research on the phenomenon of virtualization is the monograph "Virtualization of society" by D.V. Ivanov. It explains the logic of virtual reality as replacing real objects and actions with images - simulations. The author distinguishes three main characteristics of virtual reality: immaterial effect (what is depicted creates the effect of existing objects); conditionality of parameters (objects are artificial and changeable); ephemerality (freedom of entry/exit, i.e. allowing for re-existence in case of interruptions). Also, the author offers solutions to several problems in the work.

CONCLUSION AND DISCUSSIONS

First, in order to apply the dichotomy "real/virtual", it is necessary to observe and research the genesis of social reality. Secondly, in order to create a model of social changes such as "from reality to virtuality", it is necessary to generalize various empirical phenomena. Secondly, social changes such as "from reality to virtuality" can provide a solution

to this problem as a result of research on the processes that took place in the 20th-21st centuries and formed the social core of the proposed concepts - virtualization can provide an example and a single principle of social changes. In order to create a model, it is necessary to generalize various empirical phenomena.

Thirdly, in order to determine the theoretical status of the concept of virtualization, it is necessary to compare it with the models of society transformation used in the modern socio-humanitarian field. So, we can say that the ontological nature of virtual reality and virtualization mechanisms is still in the process of understanding and understanding in the modern scientific world. The main part of the research is carried out within the framework of electronic virtual reality, and when the researchers talk about this process, i.e., the new view of the transformation of society, about its "virtualization", they mainly mean the virtualization related to the space of the Internet network.

Today, we are witnessing that the virtual space is increasingly covering the human socio-cultural sphere and how true the above scientific hypothesis is. On the one hand, technical support creates the necessary conditions for socio-cultural activities and provides the necessary weapons, on the other hand, the availability of such weapons to everyone does not leave the need to turn to experts in the field. For example, opening a page of an event on a social network can certainly arouse great interest in the Internet audience. But on the other hand, the virtual world also attracts those who are eager to attend the event in reality. Because it is possible to observe every event without going, without spending financial, emotional and physical effort. According to F. Hammit, virtual reality is "a direction created on the basis of a "friendly" functional-interactive interface for human action in the world of electronic information.

REFERENCES

- [1] Castells M. Formation of a society of network structures // New post-industrial wave in the West: Anthology. - M.: Academia, 1999. - P.492-505.
- [2] Markov B.V. Democracy and the Internet // Technologies of the Information Society - Internet and Modern Society: Proceedings of the All-Russian United Conference. St. Petersburg, November 20-24, 2000 - St. Petersburg, 2000.
- [3] Kholodkova V. Virtual reality: general concepts, tracking systems. PC World (June 25, 2008).-URL: <http://www.osp.ru/pcworld/>
- [4] Volynov M.M., Goryachkin B.S. Virtual reality: Types, Structure, Features, Development prospects // <https://cyberleninka.ru/article>

CISTANCHE MONGOLICA ЭКСТРАКТИНИНГ ФАРМАКОТОКСИКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Нодира Мухторовна Маматова

Тошкент педиатрия тиббиёт институти т.ф.д., доцент

Нигина Фуркат кизи Рахимова

Тошкент давлат стоматология институти ассистент

АННОТАЦИЯ

Ушбу илмий мақолада супурги оиласига мансум ўсимлик туркумига мансуб *Cistanche mongolica* ўсимлигининг токсик фармакологик хусусиятлари кўрсатилган. Ҳозирги вақтда маҳаллий ўсимликлардан самарали доривор моддаларни топиш жуда муҳим саналади [1;3;5]. *Cistanche* ўсимлигидан олинган анъанавий хитой табобатида кенг қўлланилади. *Cistanche tubuloza* хорижда остеопороз, Альцгеймер касаллиги ва эркаклар жинсий дисфункцияларини даволашда кенг қўлланилади. *Cistanche Herba* буйрак етишмовчилиги, импотенция, аёллар бепуштлиги, патологик ажралмалар, оғриқли ҳайз кўришда, қарияларда қабзиятни даволашда қўлланилади [2;4]. Ўзбекистонда Фарғона вилоятида ўсадиган *Cistanche mongolica* турларининг айрим фармакологик хусусиятлари ва ўткир захарлилиги ўрганилиб таҳлил қилинди.

Калит сўзлар: *Cistanche mongolica*, ўсимлик экстракти, фармакология, ўткир токсиклик, модда, доривор, даволаш.

КИРИШ

Cistanche mongolica ўсимлигининг ер усти ва ер ости қисмларидан ажратилган экстрактнинг ўткир фармакотоксикологик хусусиятларини аниқлаш.

Тажрибалар Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг Академик С.Юнусов номидаги Ўсимлик моддалари кимёси институтида ўтказилди. Тадқиқот объекти – Фарғона вилояти Ёзёвон туманида жойлашган давлат табиат ёдгорлиги мажмуасидан йиғиб олинган *Cistanche mongolica* ўсимлигининг ер усти ва ер ости қисмларидан 80% ли этанол билан экстракция усулида ажратиб олинган экстракт. Ҳайвонлар тасодифий танлаб олинди, лаборатория шароитларига мослашиши учун

қабул қилиш бошланишидан камида 5 кун олдин ўз қафасларида сақланган. Тажрибалар виварий шароитида ўтказилди ва оғирлиги 18-22 гр бўлган 60 та урғочи оқ сичқон устида кузатув олиб борилди. Тажриба давомида оғиз орқали юборилган модданинг ўткир токсиклиги аниқланди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Умумий фармакологик тажрибалар 200-220 гр оғирликдаги куён, денгиз албинос-чўчқалари ва оқ каламушларда ўтказилди. Хайвонлар билан бўлган барча муолажалар илмий мақсадларда тажрибалар учун ишлатиладиган умуртқали хайвонларни ҳимоя қилиш бўйича Европа конвенциясининг халқаро тавсиялари талабларига мувофиқ амалга оширилди [6]. Дори шаклининг маҳаллий таъсирловчи хусусият берувчи таъсирини ўрганиш учун препарат куёнлар орқа (4x5см) терисининг олдиндан кесилган жойига суртиш орқали тажрибалар ўтказилди. *Cistanche mongolica* экстракти ҳар куни 20 кун давомида 4 томчи эритма сифатида қўлланилган. Хайвонларнинг назорат гуруҳига худди шундай шароитда эритма билан ишлов берилди. Препаратнинг кўзнинг шиллиқ қаватида таъсирловчи хусусиятини ўрганиш учун куёнларнинг конъюктива қопага томизилди. Тажрибаларда препаратнинг кумулятив хусусиятини ўрганиш учун оқ каламушларга оғиз орқали юборилди. *Cistanche mongolica* экстракти ҳар куни 20 кун давомида 50 мг/кг; 100 мг/кг ва 200 мг/кг дозаларда қўлланилган. Худди шундай шароитда хайвонларнинг назорат гуруҳига шўр эритма юборилди. Тажриба давомида хайвонларнинг умумий ҳолати, вазни, ҳатти ҳаракати, юнгли терисининг ва шиллиқ пардаларнинг ҳолати, озиқ овқат ва сув истеъмол қилиши назорат қилинди. Препаратнинг чақириши мумкин бўлган аллергия таъсирини ўрганиш бўйича тажрибалар албинос денгиз чўчқаларида ўтказилди. Препаратнинг анафилактик фаоллигини баҳолаш анафилактик шок (1гр), фаол тери анафилактиси (2 гр) моделида ўтказилди. Биринчи гуруҳдаги албинос денгиз чўчқаларига препарат қуйидаги схема бўйича киритилди: учта сенсibiliзация чақирувчи доза инъекция орқали амалга оширилди, биринчи доза тери остига, кейинги икки дозаси мушак ичига кунаро юборилди. Препаратнинг белгиланган дозаси тажрибанинг 21 куни хайвонларнинг қорин бўшлиғига киритилди. Назорат гуруҳидаги хайвонларга худди шундай схема бўйича 21 куни препаратнинг ҳал қилувчи дозаси юборилди. Тери анафилактисини ўрганишда 2-чи гуруҳ албинос денгиз чўчқаларининг кесилган орқа қисмига 0,05 мл препарат эритмаси интерадермал тарзда юборилди. Фаол тери анафилактисини баҳолаш 0,5 мл 1% ли Эванс кўк

эритмасини томир ичига юбориш ёрдамида амалга оширилди. Назорат гуруҳидаги имминизация қилинмаган ҳайвонларга белгиланган дозадаги препарат ва Эвансинг кўк эритмаси схема бўйича юборилди. Ўттиз дақиқадан сўнг ҳайвонлар сўйилди (эфир беҳушлиги остида) ва инъекция жойида теринг ички томонидаги кўк нуқта ҳажми аниқланди. Тадқиқот давомида олинган микдорий маълумотлар Статистика 6-версиясидаги вариацион статистика усулидан фойдаланган ҳолда Студент t-критерийси ёрдамида таҳлил қилинди Stat.Soft. Inc.(2001) ва статистик фармакологик самарадорликни баҳолаш жадвали асосида рақамли тезлаштирилган усул билан таҳлил қилинган.

НАТИЖАЛАР ВА УНИНГ МУҲОКАМАСИ

Cistanche mongolica ўсимлигининг ер усти ва ер ости қисмларидан ажратилган экстрактнинг ўткир токсикологик хусусиятларини аниқлаш урғочи оқ сичқонларда ўтказилди. Тажрибалар давомида синов моддаси оғиз орқали 1000 мг/кг дан 10 000 мг/кг гача бўлган дозаларда юборилди ва дастлабки 3-4 соат ва 7-14 кун давомида кузатилди. Кичик дозаларда деярли ҳеч қандай ножўя таъсирлар кузатилмади. 8000 мг/кг дозадан ошиб кетганда, дастлаб тез нафас олиш, тез юрак уриши ва ҳаракатланишнинг пасайиши кузатилди. Дозанинг ошиши билан дастлабки 3-4 соат ичида ўлим кузатилмади. Тадқиқотлар натижасида олинган кўрсаткичлар қуйидаги 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Оқ сичқонларда *Cistanche mongolica* ўсимлик экстрактнинг ўткир токсиклиги натижалари

№	Модданинг номи	Доза мг/кг	Ҳайвонлар сони	Ўлган ҳайвонлар сони	Тирик қолган ҳайвонлар сони	Тирик қолган ҳайвонлар сони %
1.	<i>Cistanche mongolica</i>	1000	10	0	10	100
2.	<i>Cistanche mongolica</i>	3000	10	0	10	100
3.	<i>Cistanche mongolica</i>	5000	10	0	10	100
4.	<i>Cistanche mongolica</i>	7000	10	0	10	100
5.	<i>Cistanche mongolica</i>	8000	10	0	10	100
6.	<i>Cistanche mongolica</i>	10 000	10	0	10	100

Тажрибалар натижасида LD 50 ўртача ўлдирадиган дозаси *Cistanche mongolica* ўсимлиги экстрактининг ўткир токсиклиги оғиз орқали юборилганда 10 000 мг/кг дан ошди. Ўткир токсиклик нуқтаи назаридан, модда деярли зарарсиздир ва V синфга тегишли. Тажрибаларда препаратнинг таъсирловчи хусусиятини

ўрганиш бўйича ўтказилган тадқиқотлари шуни кўрсатдики, териға такрорий суртиш (20 марта) билан препарат терини безовта қилмайди. Кўзнинг конъюктива қопаға киритилганда шиллиқ қаватнинг гиперемияси ва ёш оқиши кузатилмади.

Препаратнинг кумулятив хусусиятини ўрганиш натижалари шуни кўрсатдики, эксперимент давомида препарат ҳайвонларнинг умумий ҳолати ва ҳатти ҳаракатларида сезиларли ўзгаришларға олиб келмади. Тери томонидан (инъекция жойи) кўринадиган ўзгаришлар қайд этилмади. Барча ҳайвонлар овқатни яхши истеъмол қилишди, вазни ортди. Ҳайвонларнинг ўлими қайд этилмади. Шунинг учун *Cistanche mongolica* ўсимлигининг экстракти ҳайвонлар организмда моддий тўпланиш хусусиятини намоён этмади. Препаратнинг мумкин бўлган аллерген таъсирини ўрганиш натижалари шуни кўрсатадики, 1-гурух албинос денгиз чўчқаларида препаратнинг ҳал қилувчи дозаси киритилгандан сўнг уларда анафилактик шок белгилари кузатилмади. Барча ҳайвонларнинг умумий ҳолати ва хулқ атвори ўзгармади, сочлари, териси ва кўринадиган шиллиқ пардалари соғлом ҳайвонлар гуруҳидан фарқ қилмади. 2-гурух ҳайвоналарида терининг тескари томонидаги доғ ўлчами 5 мм дан ошмади. Шунинг учун *Cistanche mongolica* ўсимлигининг экстракти аллерген таъсирға эға эмас.

Cistanche mongolica ўсимлигининг экстракти қайта қайта қўлланилганда кумулятив ва аллерген таъсирлари юзаға чиқмади. Узоқ муддатли қўлланилганда ҳайвонларнинг организмға токсик таъсир кўрсатмади ва инъекция жойида безовта қилувчи таъсирға эға эмас.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, *Cistanche mongolica* ўсимлигининг экстрактининг ўткир заҳарлилиги оғиз орқали юборилганда 10 000 мг/кг дан ортиқ эканлиги аниқланди. Ўткир токсиклик нуқтаи назаридан, модда амалда зарарсиз бўлиб, V синфға тегишли. Ўрганилаётган дозаларда 50 мг/к; 100 мг/кг ва 200 мг/кг дан юборилганда терини безовта қилмайди. Кўзнинг конъюктива қопаға киритилганда шиллиқ қаватнинг гиперемияси кузатилмади ва ёшланмади. Препарат кумулятив ва аллергик таъсирға эға эмас.

REFERENCES

1. Турсунов Ж.И., Ибрагимов А.А., Курбанов Б.И. *Cistanche Mongolic*нинг макро- ва микроэлемент таркиби G.Beck //

Univsum: кимё ва биология: электрон. илмий журн. 2020. № 9 (75).

2. Y. Jiang, P.-F. Tu, Analysis of chemical constituents in Cistanche species, J. Chromatogr. A 1216 (2009) 1970–1979.

3. Растительные ресурсы, России и сопредельных государств, Част II, Санкт-Петербург «Мир и Семья – 95» ,1996г, 289-стр

4. Zhifei Fu, Xiang Fan, Xiaoying Wang, Xiumei Gao. Cistanches Herba: An overview of its chemistry, pharmacology, and pharmacokinetics property Journal of ethnopharmacology Volume 219. 12 June 2018 Pages 233-247

5. Ўзбекистон флораси, Том –V, Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти. Тошкент -1961, С-505

6. European Convention for the Protection of Vertebrate Animals Used for Experimental and Other Scientific Purposes, ETS №123, Strasbourg (1986).

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЎҚУВ ЖАРАЁНЛАРИНИ АХБОРОТЛАШТИРИШ: МАВЖУД ҲОЛАТ ТАҲЛИЛИ ВА ИСТИҚБОЛЛИ ТАВСИЯЛАР

Рахмоналим Турсунов

Ўзбекистон Миллий университети эркин изланувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада олий таълим тизимида ахборотлаштиришнинг мавжуд ҳолати, соҳа ходимларининг медиасаводхонликлари юртимиздаги тўрт олийгоҳ мисолида таҳлил қилинган. Жаҳон тараққиётининг муҳим хусусиятларидан бири – мунтазам амалга ошириладиган таълим ислохотлари, инновацион жараёнлардир. Ҳалқаро миқёсда ижтимоий институтларнинг таълим тизими бошқарувидаги ўзаро ҳамкорлигини такомиллаштириш долзарблиги тобора аён бўлиб бормоқда. Олимларнинг яқин келажакда инсонлар кўпроқ моддий объектлар билан эмас, балки кўпроқ ахборотлар ва билимлар билан иш кўради деб ҳисоблашади. Шунинг учун ўқув жараёнларини ахборотлаштириш масаласини ёритишга ҳаракат қилинган.

Калит сўзлар: ўқув жараёни, медиасаводхонлик, *SMART тизими*, глобал тармоқ, анкета, Ресондент, Wi-Fi зона, аудио графика, компьютер телеконференциялар, IRC, MUD, MOO, ZOOM.

ABSTRACT

The article analyzes the current state of informatization in the higher education system, media literacy of employees in the field on the example of four universities in the country. One of the important features of global development is the ongoing educational reforms, innovative processes. At the international level, the urgency of improving the interaction of social institutions in the management of the education system is becoming increasingly clear. Scientists believe that in the near future, people will work with more information and knowledge, rather than with more material objects. Therefore, an attempt was made to cover the issue of informatization of educational processes.

Keywords: learning process, media literacy, SMART system, global network, questionnaire, Resonant, Wi-Fi zone, audio graphics, computer teleconferencing, IRC, MUD, MOO, ZOOM.

КИРИШ

Дунёнинг ҳозирги ривожланиш босқичи илмий ахборотлар ҳажмининг муттасил ўсиб бориши билан тавсифланади. Олимларнинг яқин келажакда инсонлар кўпроқ моддий объектлар билан эмас, балки кўпроқ ахборотлар ва билимлар билан иш кўради деб ҳисоблашади. Айни дамда, ривожланган мамлакатлар аҳолисининг ярмидан кўпи ахборотлар билан иш кўра бошлади. Жумладан, кўплаб соҳаларда масофавий бошқариш етакчи омилга айланиб бормоқда. Ҳозирги кунда жисмоний меҳнат салмоғининг камайиб, интеллектуал ижодий меҳнат ҳиссаси ошмоқда. Бундай ҳолда жамиятга билимларни фаол ижодий эгаллашга қодир, тезкор ўзгариб бораётган шарт-шариотларга мослаша оладиган ва воқеа-ҳодисаларнинг боришини ташхислай оладиган кадрлар етиштириш заруратга айланмоқда.

Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Тараққиёт стратегиясида[1] белгиланган “илмий ва инновация ютуқларини амалиётга жорий этишнинг самарали механизмларини яратиш ҳамда Инновацион ривожланиш вазирлигининг асосий фаолият йўналишларидан таълим тизимида инновацияларни ишлаб чиқишни таъминлаш”[2] каби устувор вазифалари олий таълим муассасаларида ўқув жараёнларини ахборотлаштириш ва уни ривожлантириш зарурлигини кўрсатмоқда. Буни мазкур муаммоларга бағишланган илмий-амалий тадқиқотлар сони ҳам кўрсатиб турибди. Бу ҳол табиий ва айни дамда долзарб бўлиб, ижтимоий институтларнинг инсоният ҳаёт тарзи, таълим ва меҳнат жараёнлари, оилавий муносабатлари ҳамда давлатнинг фуқаролик жамияти билан ўзаро алоқасида фаоллиги билан изоҳланади. Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий ва ижтимоий ўзгаришлар, иқтисодиётнинг инновацион йўналишда шакллантирилиши, жаҳон иқтисодиётига интеграллашув, жамиятда сифатли таълим ва рақобатбардош кадрларга эҳтиёжни янада оширмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони, 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли, 2017 йил 29 ноябрдаги ПФ-5264-сонли Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида Фармонлари[3], 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва

уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–3775-сонли Қарорлари, 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон фармони, 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”ги ПФ-60-сон фармони ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъерий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни лозим даражада амалга оширилиши кадрлар сифатини кескин оширишга хизмат қилиши билан биргаликда, кўплаб ижтимоий муаммоларни бартараф этади.

Таълимнинг ягона ахборот-коммуникация муҳитидан фойдаланиш масалалари Т.Г.Везиров, В.М.Монахов, А.В.Петров, Е.С.Полатлар томонидан тадқиқ этилган бўлиб, тегишли тавсиялар ишлаб чиқилган. Бу тавсияларда таълимда интернет тизимидан фойдаланишнинг умумий муаммолари, мақсади, муаммо ечимига қаратилган методлар ва тамойиллар, компьютер-телекоммуникация технологияларини жорий этиш масалалари баён қилинган.

Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги олимлари А.А.Андреев, О.Е.Белова, О.И.Ляш, Л.А.Пескова, С.А.Сушков, В.А.Брылёва, Н.А.Гончарова, Ю.П.Господарик, В.В.Гура, А.В.Данилькевич, З.Н.Исмаилова, В.А.Куклев, Э.С.Матосов, А.Л.Назаренко, О.А.Тарабрин, А.Ю.Уваров, А.В.Хуторской, Э.П.Черняева, А.Чирцов, Е.В.Якушина Ю.К.Бабанский, В.П.Беспалько, М.Очилов, М.Н.Скаткин, О.К.Тихомиров каби олимларнинг илмий ишларида педагогик технологиялар ва уларнинг илмий асосларига алоҳида эътибор қаратилган бўлиб, педагогик технологиялар асосида ёш авлодни тарбиялашда кўникма ва малакаларни таркиб топтириш, ўқув жараёнини лойиҳалаштириш, дастурлаштирилган таълим ва инновацион педагогика муаммолари мазкур ишларда илмий асослар билан ёритилган[4].

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгач, таълим тизимига алоҳида эътибор қаратилди. Хусусан, олий таълим муассасаларида Компьютер-телекоммуникация тизимлари ва тармоқ технологиясидан ўқув-тарбия жараёнида фойдаланишнинг дидактик имкониятлари бўйича изланиш олиб бориш кенг йўлга қўйилган бўлиб, бу йўналишда У.Ш.Бегимқулов, Н.И.Тайлоқов, М.Р.Файзиева, А.А.Абдуқодиров, М.Х.Алламбергенова, М.М.Арипов, А.Д.Аскарлов, Р.Ҳ.Жўраев, Ф.И.Закирова, М.Ҳ.Лутфиллаев, Н.А.Муслимов, Н.И.Тайлаков, Г.С.Эргашева, З.Х.Юлдашев, Р.Ҳ.Ҳамдамов каби тадқиқотчилар самарали фаолият олиб боришган[5].

Таҳлил (кузатиш) натижалари шуни кўрсатмоқдаки, олиб борилган тадқиқотлар, асосан, олий таълим муассасаларида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишни такомиллаштириш, талабалар инновацион салоҳиятини ривожлантиришга қаратилган. Шу билан бирга олий таълим муассасалари талабалари учун ўқув фаолиятини ривожлантиришга йўналтирилган дидактик таъминотини такомиллаштиришда замонавий инновацион ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этишни атрофлича тадқиқ этиш долзарблик касб этмоқда.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Олий таълим тизимида ахборотлаштиришнинг мавжуд ҳолати, тизим субъектларининг медиасаводхонлик даражаси, масофавий таълимга бўлган муносабат ва таклифлари, пандемиянинг олий таълим тизимига таъсири ва умуман олий таълим муассасаларида ўқув жараёнларини ахборотлаштириш технологияларини такомиллаштиришда профессор-ўқитувчи ва талабалар баҳосини аниқлаш юзасидан жорий йилнинг февраль-июнь ойларида Республика ҳудудида жойлашган 4 та олий таълим муассаси профессор-ўқитувчилари ва талабаларини яъни Ўзбекистон Миллий Университети, Фарғона давлат университети, Чирчиқ давлат педагогика университети ҳамда Термиз давлат университети қамраб олган ҳолда ижтимоий-социологик сўровнома ўтказилди.

Социологик тадқиқот янада самарали бўлиши учун мақсадли танлаш йўли билан ОТМларда фаолият юритаётган барча илмий даражага эга бўлган мутахассисларни қамраб олишга ҳаракат қилинди. Социологик тадқиқотда энг кўп қатнашганлар 28.3% билан катта ўқитувчи илмий унвонига эга бўлган мутахассисларни ташкил этмоқда. Доцент илмий унвонига эга бўлганлар 25,8% ни ўқитувчлар 23.2% ни, профессорлар эса умумий респондентларнинг 21,2% қисмини ташкил этмоқда. Ўтказилган сўровноманинг ҳар бир саволига респондентларнинг жавобларини таҳлил қилиб кўрамиз:

Респондентларга сиз фаолият олиб борадиган ОТМда Wi-Fi зоналар, глобал тармоққа ўрнатилган компьютерлар мавжудми? деган савол берилди ва умумий ҳисобга назар солинса, сўровнома қатнашчиларининг 55,9% қисми ОТМларида wi-fi-зоналар глобал тармоққа уланганлик даражаси паст дея баҳолашмоқда. Бу кўрсаткич бўйича юқори деган фикрни берганлар сони қарийиб 7% ни ташкил этмоқда. Респондентларнинг 37.2% қисми ўрта даражада деган фикрни билдириб ўтишмоқда.

Респондентларга қуйидаги АКТга оид компетенцияси бўйича ўзингиздаги кўникма ва малакани баҳоласангиз?

қабилдаги савол берилди ва савол натижаларидан келиб чиқиб шуни таъкидлаш керакки, ФарДУда фаолият юритаётган профессор-ўқитувчиларнинг 50% қисми яъни умумий респондентларнинг тенг ярми ўзларини ўрта даражада деб баҳолашади. Умуман олиб қараганда тадқиқот давомида респондентларнинг фикр мулоҳозаларини таҳлил этиш жараёнида шунга амин бўлиндики, уларнинг деярли 60% қисми АКТ воситаларидан тўғри фойдаланишади. Умумий респондентларнинг 9% и эса аъло даражада деб баҳолашмоқда. Демак қолган респондентларнинг 32% қисми ўзларини паст даражада деб баҳолашади. Умуман олганда деярли 1/3 қисми ўзларидан қониқмаслик ҳолатларини кўриш мумкин.

ТерДУда фаолият юритаётган профессор-ўқитувчиларнинг 54% қисми яъни умумий респондентларнинг тенг ярми ўзларини ўрта даражада деб баҳолашади. Умуман олиб қараганда тадқиқот давомида респондентларнинг фикр мулоҳозаларини таҳлил этиш жараёнида шунга амин бўлиндики, уларнинг деярли 67% қисми АКТ воситаларидан тўғри фойдаланишади. Умумий респондентларнинг 13% и эса аъло даражада деб баҳолашмоқда. Демак қолган респондентларнинг 33% қисми ўзларини паст даражада деб баҳолашади.

Респондентларга қуйидаги АКТга оид компетенцияси бўйича ўзингиздаги кўникма ва малакани баҳоласангиз? қабилдаги савол берилди ва савол натижаларидан келиб чиқиб шуни таъкидлаш керакки, Чирчиқ давлат педогогика университетида фаолият юритаётган профессор-ўқитувчиларнинг 51,5% қисми яъни умумий респондентларнинг тенг ярми ўзларини ўрта даражада деб баҳолашади. Умуман олиб қараганда тадқиқот давомида респондентларнинг фикр мулоҳозаларини таҳлил этиш жараёнида шунга амин бўлиндики, уларнинг деярли 60% қисми АКТ воситаларидан тўғри фойдаланишади. Умумий респондентларнинг 11 % и эса аъло даражада деб баҳолашмоқда. Демак қолган респондентларнинг 28% қисми ўзларини паст даражада деб баҳолашади. Умуман олиб қараганда ишончсизлик даражаси юқоридаги санаб ўтилган олийгоҳлардан жуда ҳам кичик устунлик фарқи билан ажралиб турибди.

Миллий университетда фаолият юритаётган профессор-ўқитувчиларнинг 43% қисми яъни умумий респондентларнинг тенг ярми ўзларини ўрта даражада деб баҳолашади. Умуман олиб қараганда тадқиқот давомида респондентларнинг фикр мулоҳазаларини таҳлил этиш жараёнида шунга амин бўлиндики, уларнинг деярли 63% қисми АКТ воситаларидан тўғри фойдаланишади. Ассос тариқасида айтиб ўтиш мумкин. Умумий респондентларнинг 20% и эса аъло

даражада деб баҳолашмоқда. Демак қолган респондентларнинг 27% қисми ўзларини паст даражада деб баҳолашади. Социологик сўровнома иштирокчиларига қуйидаги АКТга оид компетенциясини шаклланишида педагогик хамкорликнинг қайси усулини муҳим ҳисоблайсиз? Мазмунидаги савол берилганида, турли фикрларга гувоҳ бўлинди. Масалан, энг кўп яъни 34,5% респондент Профессор-ўқитувчи ва талабаларда АКТга оид компетенциянинг шаклланишида онлайн курсларни жорий қилиш ва бу курсларни ўзлаштириш кўрсаткичини белгилаш мақсадида балл асосида тестлардан ўтишни зарурий қилиб белгилаш лозим деган фикрни илгари суришмоқда. 30,5% респондент эса профессор-ўқитувчилар АКТга оид компетенциянинг шаклланишида ихтиёрий курсларни ташкил қилиб, ушбу курсларни ўзлаштирилишини имтихон асосида сertiфикатлаштирилса, бу жараён ихтиёрий қилиб белгиланса (ушбу ҳужжати бор профессор-ўқитувчилар учун маошда фоиз қўшимчаларини жорий этилса) мақсадга мувофиқ деган фикрни илгари суришмоқда. 22% қисми эса профессор-ўқитувчи ва талабаларнинг курслари алоҳида бўлиши кераклиги ва курслар мана шу асос бўйича шакллантирилишини жуда муҳим деб ҳисоблашмоқда. Респондентларнинг қарийб 10% қисми АКТ дан фойдаланиш менимча ихтиёрий, бунинг учун курслар шарт эмас, керак бўлган ходим ўзи учун ўргангани деган фикрни билдириб ўтишди. Кўриниб турибдики таълим тизимида янгидан-янги билимлар турли компьютер ва тил крсларини ўрганмоқчи бўлганлар сони бугунги кунда жамиятда анча жадаллашган. Мазкур саволда ҳам умумийлаштирилган ҳолда ҳисобланса, деярли 90% респондентлар турли курсларда билим олишни афзал кўришмоқда.

Сўровнома мобайнида респондентларга Олий таълим тизимида масофавий ўқитиш бўйича қандай таклифларингиз бор? Мазмунидаги савол берилди ва улар томонидан турли фикрлар берилганига гувоҳ бўлинди. Масалан қатнашчиларнинг энг кам фоиз улушини ташкил этаётган яъни 3% қисми ҳозирча масофавий таълимга қаршилигини кейинчалик эса бу қаршилиқни ўзидан олиб ташлаши мукинлигини таъкидлашмоқда. Таққослаш учун энди энг кўп билдирилган фикр яъни 28,5% респондентлар масофавий таълимга қаршиман деган фикрни илгари суришмоқда. 19,5% сўровнома иштирокчилар фақат ёш болали оналар учун қулай жараён эканини билдириб ўтишди. Яна 11% иштирокчи дунё тажрибасига назар солиб иш тутиш жоиз қабилидаги фикрни, 10% иштирокчи масофавий таълимни фақат сиртки таълим шаклига қўлланса мақсадга мувофиқ деган фикрни, яна 7% респондентлар масофавий таълимга ўтишдан олдин

онлайн ўқув материалларини шакллантириб олиш жоиз деган фикрни илгари суришмоқда. Хулса қилиб айтганда, юқоридаги саволларда ҳам мазкур саволлардаги каби фикрлар ўхшашлигига гувоҳ бўлиш мумкин. Бу ерда кузатилаётган кўрилиши керак бўлган асосий масала электрон ўқув қўлланмалар, турли материалларнинг мавжуд бўлиши ва таълим тизимини ахборотлаштириш орқали мазкур соҳада катта ютуқларга эришиш мумкинлигини таъкидлашмоқда.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Олий таълим тизимини тез суръатларда такомиллаштириш учун энг аввало тизим субъектларининг медиасаводхонлигини ошириш, бунинг учун барча зарур ташкилий асосларни таъминланиши лозим. Сўровнома натижасида куйидаги тавсиялар илгари сурилмоқда:

- ўқув жараёнларини бошқаришни автоматлаштириш – вақт ва меҳнатни тежашни таъминлайди;
- таълим субъектларининг Ахборот коммуникация воситаларидан фойдаланиш кўникмаларини - медиасаводхонлигини мунтазам ошириб боришни таъминлаш;
- замонавий инновацион технологияларни, самарали методларни ўқув жараёнига татбиқ этиш;
- АРМ базаларига онлайн кириш имконини яратиш.
- инфорацион маданиятни шакллантириш ва юксалтириш;
- олий таълим муассасаларида ўқув жараёнларини ахборотлаштириш технологиялари асосида такомиллаштириш муаммолари ва авзалликларини таҳлил қилиш.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.//Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2021. – Б.39.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисидаги Фармони//ҚХММБ: 06/17/5264/0339-сон 01.12.2017 й.
3. <https://lex.uz/docs/3431985>
4. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва

амалиёти мавзусидаги педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент. 2007.

5. Р. Ишмухамедов, А. Абдукодиров, А. Пардаев. “Таълимда инновацион технологиялар: таълим муассалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар”. – Т., 2007. – Б.43.

6. Farhodjon Anvarjon Ogli Ibrohimov. Ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim-tarbiyaning zarurati. Academic Research in Educational Sciences. 2020. № 1/ 362-367-betlar

7. S.I.Doniyev, FA Ibrohimov, IS Joldasov. Boshlang’ich ta’lim rivojlanish tendensiyalari (Finlandiya ta’lim tizimi misolida). Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. (2-maxsus son). Toshket-2020.

8. F.A.Ibrohimov, ZM Kabirova. Inklyuziv ta’lim va yangicha pedagogik yondashuvlar. Academic research in educational sciences 2 (CSPI conference 1), 567-571.



ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ТЕКУЩЕГО ПЛАНИРОВАНИЯ МЕСТНОЙ РАБОТЫ

Шохрух Шухратович Камалетдинов

Ташкентский государственный транспортный университет,
докторант(DsC)
shaxr2107@gmail.com

Назиржон Мукаррамович Арипов

Ташкентский государственный транспортный университет,
д.т.н., профессор
aripov1110@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В этой статье разработана функциональная модель текущего планирования местной работы посредством автоматизированной системы. При разработке модели использован нотация IDEF0.

Ключевые слова: текущее планирование, местная работа, IDEF0, организация перевозок, железнодорожный транспорт

ВВЕДЕНИЕ

Текущее планирование местной работы предусматривает конкретизацию заданий суточного и сменного плана на период 3-6 часов в зависимости от изменений в оперативной обстановке. Текущий план местной работы региона управления включает развоз местного груза и подвод порожних вагонов под погрузку по железнодорожным станциям, погрузку и выгрузку вагонов, сбор, отправление и доставку вагонов на технические железнодорожные станции после выполнения грузовых операций, в том числе для их сдачи. Указанный план предусматривает назначение местных поездов с указанием порядка их работы на железнодорожных станциях, планирование работы вывозных, передаточных и диспетчерских локомотивов. Текущее планирование местной работы осуществляется на основе утвержденной технологии и графика движения местных поездов, с учетом дислокации и состояния вагонов, локомотивов, рационального взаимодействия с железнодорожными путями необщего пользования и режимом работы грузовых фронтов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

В этой работе разработана функциональная модель составления текущего плана местной работы посредством автоматизированной системы. Функциональная модель построена на основе нотации IDEF0.

Основные элементы и понятия IDEF0

Графический язык IDEF0 удивительно прост и гармоничен. В основе методологии лежат четыре основных понятия:

Первым из них является понятие функционального блока (Activity Box). Функциональный блок графически изображается в виде прямоугольника (см. рис.1) и олицетворяет собой некоторую конкретную функцию в рамках рассматриваемой системы. По требованиям стандарта название каждого функционального блока должно быть сформулировано в глагольном наклонении (например, «производить услуги», а не «производство услуг»).

Каждая из четырех сторон функционального блока имеет своё определенное значение (роль), при этом:

- Верхняя сторона имеет значение «Управление» (Control);
- Левая сторона имеет значение «Вход» (Input);
- Правая сторона имеет значение «Выход» (Output);
- Нижняя сторона имеет значение «Механизм» (Mechanism)(рис-1).

Каждый функциональный блок в рамках единой рассматриваемой системы должен иметь свой уникальный идентификационный номер.

Вторым основным элементом методологии IDEF0 является понятие интерфейсной дуги (Arrow). Также интерфейсные дуги часто называют потоками или стрелками. Интерфейсная дуга отображает элемент системы, который обрабатывается функциональным блоком или оказывает иное влияние на функцию, отображенную данным функциональным блоком.

Графическим отображением интерфейсной дуги является однонаправленная стрелка. Каждая интерфейсная дуга должна иметь свое уникальное наименование (Arrow Label). По требованию стандарта, наименование должно быть оборотом существительного.



Рисунок 1. Функциональный блок

С помощью интерфейсных дуг отображают различные объекты, в той или иной степени определяющие процессы, происходящие в системе. Такими объектами могут быть элементы реального мира (детали, вагоны, сотрудники и т. д.) или потоки данных и информации (документы, данные, инструкции и т.д.).

В зависимости от того, к какой из сторон подходит данная интерфейсная дуга, она носит название «входящей», «исходящей» или «управляющей». Кроме того, «источником» (началом) и «приемником» (концом) каждой функциональной дуги могут быть только функциональные блоки, при этом «источником» может быть только выходная сторона блока, а «приемником» любая из трех оставшихся.

Следующим основным понятием стандарта IDEF0 является декомпозиция (Decomposition). Принцип декомпозиции применяется при разбиении сложного процесса на составляющие его функции. При этом уровень детализации процесса определяется непосредственно разработчиком модели.

Модель IDEF0 всегда начинается с представления системы как единого целого — одного функционального блока с интерфейсными дугами, простирающимися за пределы рассматриваемой области.

Такая диаграмма с одним функциональным блоком называется контекстной диаграммой, и обозначается идентификатором «A0».

Создадим функциональный блок, который представляет единую систему текущего планирования местной работы (рис-2). Первичные информации поступают в блок в виде вагонной модели. Источником вагонной модели является Автоматизированная система оперативного управления перевозками (АСОУП). А также предусмотрено уточнение местоположение и состояние вагонов с помощью специальной автоматизированной системы.

Текущее планирование местной работы является уточнением сменного плана и включает в себя следующие основные функции(рис-3):

- текущее планирование состава образования и отправления со станций грузовых поездов местных назначений (рис-4);
- текущее планирование развоза и сбора местных вагонов по прикрепленным станциям;
- текущее планирование работы вывозных, передаточных, диспетчерских и маневровых локомотивов(рис-3).

Диспетчерское регулирование местной работы предусматривает детализацию текущих планов под руководством ДНЦ, включая:

- мероприятия по обеспечению выполнения текущего плана работы;
- мероприятия по ускоренному продвижению вагонов с истекшим или истекающим сроком доставки;
- очередность подачи и уборки местных вагонов на станциях;
- планирование формирования многогруппных составов.




Рисунок-2. Текущее планирование местной работы




Рисунок-3. Декомпозиция текущего планирования




Рисунок-4. Планирования составообразования и отправления сквозных и участковых поездов

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Функциональная модель текущего планирования местной работы на основе автоматизированной системы дает возможность изучить последовательность процессов и учитывать необходимые моменты функционирования при проектировании самой системы. Нотация IDEF0 является общепринятыми стандартом что делает его универсальным языком для проектных предприятий.

REFERENCES

1. Ерофеев А.А. Информационные технологии на железнодорожном транспорте: учеб.-метод. пособие : в 2 ч. Ч. 2 / А. А. Ерофеев, Е. А. Федоров ; М-во образования Респ. Беларусь, Белорус. гос. ун-т трансп. – Гомель : БелГУТ, 2015. – 256 с.
2. Коваленко В.В. Проектирование информационных систем : учебное пособие /В.В. Коваленко – М. ФОРУМ : ИНФРА-М, 2014. — 320 с. – (Высшее образование).
3. Токтакунов Т. Лекции по проектировании информационных систем. Токтакунов Т., Керимкулов Т. – Кыргызский экономический университет, 2010.

МОДУЛЛИ ЎҚИТИШНИНГ ИЛМИЙ – ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

Б. Т. Тўраев

ЎР ҚК Академияси жанговар таъминот кафедраси муҳандислик таъминоти
цикли доценти, техника фанлари номзоди

А. Ш. Зиядуллаев

ЎР ҚК Академияси жанговар таъминот кафедраси РКБ муҳофаза цикли
ўқитувчиси, кимё фанлари номзоди, доцент

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада модулли ўқитишнинг илмий-педагогик асослари, қўлланилиши ва самарадорлиги, ҳамда “БАТ-2 машинасининг умумий тузилиши” модули бўйича машғулотларни ташкил этиш ва ўтказиш масалалари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: ҳарбий таълим, интерфаол усуллар, ақлий ҳужум, кластер, блиц-сўров, маъруза матни, машғулот, ностандарт тестлар.

ABSTRACT

This article considers questions of scientific-pedagogical foundation of modular education, its application and efficiency, also organizing and providing classes according to the module “General structure of BAT-2”.

Keywords: military education, interactive methods, brain storm, cluster, blitz-quiz, lecture text, classes, nonstandard tests.

КИРИШ

Ҳозирги глобаллашув даврида таълим жараёнида ўқитишнинг замонавий усулларидан оқилона фойдаланиш давр тақозаси бўлиб қолмоқда. Ўқитишнинг замонавий таълим усуллари кўллаш ўқитиш жараёнида юқори самарадорликка эришишни таъминлайди. Таълим усуллари танлашда ҳар бир машғулотнинг дидактик вазифасидан келиб чиқиб танлаш мақсадга мувофиқдир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Анъанавий дарс шаклини сақлаб қолган ҳолда, унга турли-туман таълим олувчилар фаолиятини фаоллаштирадиган усуллар билан бойитиш таълим

олувчиларнинг ўзлаштириш даражасини кўтарилишига олиб келади. Бунинг учун ўқув машғулоти оқилона ташкил қилиниши, таълим берувчи томонидан таълим олувчиларнинг қизиқиши, ўрганилаётган ўқув маълумотларининг мазмунига мос равишда усул ва воситаларни танлаш орқали юқори самарадорликка эришиш мумкин. Таълим олувчиларни ўзлаштириш даражаси, амалий кўникма ва малакаларни интерфаол таълим усуллари орқали ривожлантириш самарали бўлиши маълум.

Интерфаол усуллар - таълим олувчиларни фаоллаштирувчи ва мустақил фикрлашга ундовчи, таълим-тарбия жараёнида курсант-курсант, курсант-ўқитувчи ҳамкорлигида юқори самарадорликка эришишга хизмат қиладиган усуллардир. Бундай усуллар қўлланилганда таълим берувчи таълим олувчини фаол иштирок этиш истагини пайдо қиладди. Таълим олувчи ўқув жараёни давомида фаол иштирок этади. Интерфаол таълим усуллари асосида ташкил этилган машғулотларнинг фойдали жиҳатлари қуйидагилардан иборат бўлиши мумкин:

- юқори самарали таълим;
- таълим олувчини юқори даражада рағбатлантирилиши;
- аввал ўзлаштирилган билимларни эътиборга олиниши;
- таълим олувчининг ташаббускорлиги ва масъулиятини қўллаб-қувватланиши;
- амалда бажариш орқали ўрганиш;
- икки тарафлама баҳс-мулоҳазаларга шароит яратилиши.

Ўқув машғулотида ўзарофаол таълим усулларида “Ақлий ҳужум” ва “Блиц-сўров” кенг қўлланилади.

Кластер (ахборотни ёйиш) график органайзери. Мазкур стратегиянинг асосий вазифаси курсантлар фаолиятини ўрганилаётган объект – воқеликни қисмларга ажратган ҳолда ўзлаштиришга йўналтиради, уларда кўп вариантлик асосида ахборот ва ҳодисаларнинг ўзаро ички ва ташқи боғланишларини аниқлаш кўникмаларини шакллантиради, ахборот бўйича фикр-мулоҳазаларни эркинлаштиришга ёрдам беради.

Кластер график органайзерида фойдаланиш учун курсантларни 3...5 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратиш талаб этилади. Ҳар бир гуруҳ маълумотнинг алоҳида элементларига ишлов беради. Бунинг учун аудиторияда дарслик, ўқув қўлланмалари ва бошқа ахборот манбалари етарли миқдорда бўлиши лозим.

Кластер тузиш босқичлари қуйидагича:

1. Синф ёзув тахтасига кичик гуруҳлар сонига қараб ватман осилади ва “калит” сўзлар ўқитувчи (айрим ҳолларда ўқувчилар) томонидан ёзилади.

2. Мавзуга доир ахборот элементларига доир фикрлар аниқ феъл билан ифодаланган ҳолда ёзилади.

3. Асосий тушунча ва ғоялар ўртасидаги алоқадорлик чизмада кўрсатилади.

4. Кичик гуруҳлардаги барча ўқувчилар ўз вариантларини қоғозга туширишади.

5. Фикрлар “шажараси” умумлаштирилади ва якуний хулосалар қайд этилади.

6. Ўқитувчи гуруҳ иштирокчиларининг фаолиятини назорат қилади ва объектив баҳолайди.

“БАТ-2 машинасининг умумий тузилиши ” модули бўйича машғулотларни ташкил этиш ва ўтказиш усули

Ҳарбий таълим муассасаларида тайёрланадиган мутахассисларга қўйиладиган талабларнинг ўзига хослиги ва ҳарбий касбнинг хусусияти, ҳар бир фан, машғулот мавзусининг мазмуни ва мақсадларидан келиб чиққан ҳолда ўқув машғулоти турлари режалаштирилади, ташкил этилади ва ўтказилади.

Ҳарбий таълим муассасаларида тайёрланадиган мутахассисларга қўйиладиган талабларнинг ўзига хослиги ва ҳарбий касбнинг хусусияти, ҳар бир фан, машғулот мавзусининг мазмуни ва мақсадларидан келиб чиққан ҳолда ўқув машғулоти турлари режалаштирилади, ташкил этилади ва ўтказилади.

Маъруза матнини тузиш жараёни – бу ижодий жараёндр. Шунини таъкидлаш керакки, маъруза матнини ишлаб чиқишда ўрганилаётган материални ўзлаштиришнинг методик усуллари танлаш – биринчи ўринда туриши керак, кейин эса унинг бошқа компонентларини мустаҳкамлаш, ривожлантириш, мустақил ишлар ва бошқа усулларга амал қилиш керак.

Бунда маърузада ўқув маълумотини етказишнинг тартиби ва кетма-кетлиги, ўрни ва давомийлиги, маъруза мақсадига кўра янги назарий билимлар бериш, мавжуд билимларни такрорлаш, мустаҳкамлаш ва ривожлантириш назарда тутилади.

Маъруза матнини тайёрлаш жараёнида ушбу мавзунинг ўтилган ва кейинги ўтказиладиган мавзулар билан узвий боғлиқлиги, ўрни ва мантикий давомийлиги, машғулотнинг ўқув-тарбиявий мақсадлари, ўқув саволлари мазмуни, ўқитиш

усули, бошқарув ҳужжатларининг талаблари, кўргазмали қуроллар, илғор тажрибалар ва бугунги кунда мавзу (фан, соҳа) га оид (фан ва техника ютуқлари) мисоллар билан аниқлаштирилади.

Маъруза матнини тузишда курсантларни ҳарбий касбга қизиқишини ошириш орқали ўрганилаётган мавзу ёки фанга бўлган қизиқишларини ҳам шакллантириб бориш муҳим аҳамият касб этади ва курсантларга ижобий таъсир этади. Шу ўринда берилаётган янги ўқув маълумотларини олдин берилган маълумотлар билан боғлаш ва мантиқий давом этилиши, ҳарбий мутахассисликни эгаллашдаги ўрни, истиқболлари ҳам очиқ берилади.

Маъруза матнини тайёрлаш унга оид маълумотларни аниқлаштиришдан бошланади (маъруза мавзуси, ўқув саволлари, уларни асосий мазмуни, ажратилган вақт ва бошқалар). Навбатдаги қилинадиган иш маъруза мавзусининг ўтилган ва кейинги мавзу ўртасида тутган ўрни ва алоқадорлиги, унинг ҳарбий мутахассис тайёрлашда бошқа фанлар билан боғлиқлиги, ўқув-тарбиявий мақсадлари аниқланади ва маърузанинг мазмуни, ўқитиш усулларини белгилаб, фан, техника ютуқлари, кўшинлар жанговар тайёргарлиги илғор тажибалари, чет эл тажрибаси каби мисоллар билан тўлдирилади.

Сўнгра маъруза матнини ишлаб чиқиш режаси тузилади ва унда куйидаги саволлар режалаштирилади:

мавзуга оид меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, ўқув адабиётлари ва бошқа манбаларни ўрганиш;

ўрганиш натижасида олинган маълумотларни мавзу саволлари бўйича бир тизимга солиш ва ҳажмини белгилаш;

маъруза матнини тайёрлаш;

маъруза матни лойиҳасини кафедра фан-услубий комиссиясида муҳокама қилиш, берилган тавсия ва ўзгартиришлар асосида қайтадан ишлаб чиқиш (агар шундай тавсия ва ўзгартиришлар бўлса);

маъруза матнини белгиланган талабларга асосан расмийлаштириш ва тасдиқлатиш;

маъруза ўқишни машқ қилиш ва бошқалар.

Маъруза матни: кириш қисми, ўқув саволларининг мазмуни асосий қисм ва мавзуга оид хулоса, якуний қисмдан иборат бўлади.

Маъруза матнининг ҳажми турлича бўлиши мумкин. Чунки маъруза матнини тузишда:

ўқитувчи ўзининг тайёргарлиги даражаси, мавзунинг фанни ўрганишдаги тутган ўрни ва ўқув саволларининг мазмуни;

етказилиши лозим бўлган янги маълумотлар кўлами ва меъерий-хуқуқий хужжатлар талаблари, маъруза ўқилиши керак бўлган курсантларнинг берилаётган маълумотларни ўзлаштира олиш қобилияти;

матнни олдинги ва кейинги мавзулар билан ўзаро боғлаш, мантиқий изчиллиги, кераклик маълумотларни курсантлар ёзиб олишлари учун кетадиган вақт;

матнни фан, техника ва ҳарбий ишда эришилган сўнгги ютуқлар билан бойитиш инобатга олинади. Барча юқоридаги ва бошқа масалаларга аниқлик киритилиб бўлгач маъруза матни тузувчи томонидан унинг умумий ҳажми белгиланади ва тузилади.

Маъруза матнини курсантлар томонидан ўзлаштиришлари осон бўлиши учун тақдимотлар тайёрлаш, ўқув фильм, схема ва кўрғазмали қуроллардан фойдаланиш катта ижобий натижа беради ва маърузанинг самарадорлигини оширади.

Машғулотнинг ўқув саволларини ўрганиш давомида ўқитувчи БАТ-2 мишинаси, унинг вазифаси, тузилиши, қўлланилиши ва унга техник хизмат кўрсатиш турларини, ҳамда муҳандислик техникалари билан ишларни амалга оширишда хавфсизлик чораларига амал қилиш тартибини билишларига эришмоғи лозим.

Машғулотни мантиқий саволлар, буюк саркардалар ва алломаларнинг ҳикматли сўзлари, иккинчи жаҳон уруши ва қуролли можароларда йўл тайёрлаш машиналарини қўллаш билан боғлиқ бўлган тажрибалар, изоҳловчи слайдлардан, шунингдек ўқитишнинг интерфаол усуллари ва технологияларидан фойдаланган ҳолда ўтказилишини кўриб чиқамиз.

Маъруза машғулотида қуйидаги интерфаол ўқитиш усулларидан фойдаланилади:

1) Машғулотнинг кириш қисмида: “Ақлий ҳужум” усулидан фойдаланилади.

Топшириқ мазмуни “Ҳозирги кунда йўл тайёрлаш машиналарини ўрганиш қанчалик муҳим деб ҳисоблайсиз?”

2) Курсантларнинг йўл тайёрлаш машиналарига оид қандай маълумотларни билишлари ва билишни истаётган маълумотларини аниқлаш мақсадида “Б /Б /Б” методидан фойдаланилади.

3) Курсантларга БАТ-2 машинасининг умумий тузилиши тушунтириш мақсадида “Кластер” усулидан фойдаланиш самарали бўлади.

Маъруза машғулотларини ташкил этиш харитаси

Вақт: 2 соат	Курсантлар сони: 25
Ўқув машғулотининг шакли ва тури	Ахборотли маъруза
Маъруза режаси	1. Йўл тайёрлаш машиналари ва уларнинг турлари. 2. БАТ-2 йўл тайёрлаш машинасининг вазифаси ва қўлланилиши. 3. БАТ-2 йўл тайёрлаш машинасининг тузилиши, асосий қисмлари.
Ўқув машғулотининг мақсади: БАТ-2 йўл тайёрлаш машинасининг вазифаси, тузилиши, қўлланилиши ва унга техник хизмат кўрсатиш бўйича билимларни шакллантириш.	
Педагогик вазифалар: - йўл тайёрлаш машиналарни турлари билан таништириш; - БАТ-2 машинасини вазифаси ва қўлланилиши ҳақида маълумотлар бериш; - БАТ-2 машинасининг базаси МТТ тузилишини тушунтириш; - БАТ-2 машинасининг қувват манбаси билан таништириш.	Ўқув фаолияти натижалари: - йўл тайёрлаш машиналарни турларини кўрсатадилар; - ишчи жиҳозларни тавсифлайдилар; - тактик-техник маълумотларини айтиб берадилар; - БАТ-2 машинасининг қувват манбаси ишлаш тамойили, механизмлари ва тизимларини тузилишини айтиб берадилар.
Ўқитиш усуллари	Ақлий ҳужум, Блиц сўров ва кластер.
Ўқув фаолиятини ташкиллаштириш шакли	Оммавий
Ўқитиш воситалари	Маъруза матни, доска, проектор, слайдлар.
Ўқитиш шароити	Ўқув техник воситалар билан ишлашга мослаштирилган аудитория
Қайтар алоқанинг усул ва воситалари	Оғзаки назорат: савол-жавоб.

Семинар машғулотларида қуйидаги интерфаол методлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

“Блиц-сўров” методи (инг. “блиц” – тезкор, бир зумда) берилган саволларга қисқа, аниқ ва лўнда жавоб

қайтарилишини тақозо этадиган метод. Ўқитувчи саволлар беради. Жавоблар жамоавий, гуруҳли, жуфтлик ёки индивидуал тарзда қайтарилиши мумкин. Гуруҳ ва жуфтликда ишланганда бир нафар курсант, кўп ҳолатларда эса ҳар бир саволга алоҳида-алоҳида курсант жавоб қайтаради, гуруҳдошлари ёки шериги жавобни тўлдиради. Фикрлар такрорланмаслиги, жавоблар шарҳланмаслиги лозим. Ҳар бир саволга таянч тушунчалар асосида лўнда, аниқ жавоб қайтарилади.

“БАТ-2 машинасини тузилиши ва қўлланилиши” мавзусига оид блиц-сўров саволлари ва жавоблари:

БЛИЦ СЎРОВ	
1. БАТ-2 муҳандислик машинаси нима учун мўлжалланган?	Умум қўшин жангида ҳарбий ва колонна йўлларини тайёрлаш
2. БАТ-2 муҳандислик машинаси қандай тузилган?	МТ-Т базавий машинаси, бульдозер қурилмаси, кран жиҳози ва юмшатгичдан
3. МТ-Т шатаги қандай тузилган?	Корпус, қувват манбаси, ҳаракатлантиргич ва трансмиссиядан
4. МТ-Т шатагининг двигатели қандай механизмлардан иборат?	Кривошип-шатунли ва газ таксимлаш механизмларидан
5. МТ-Т шатагининг двигатели қандай тизимлардан иборат?	Совутиш, мойлаш, таъминлаш ва ишга тушириш

Кластер (ахборотни ёйиш) график органайзери асосида “БАТ-2 машинасини тузилиши” модули бўйича таянч тушунчаларнинг мазмунини бири-бирига боғлаш.

Кластер (ғунча, тўплам, боғлам) график органайзери пухта ўйланган стратегия бўлиб, уни курсантлар билан яқка тартибда, гуруҳ асосида ташкил этиладиган машғулотларда қўллаш мумкин. Кластерлар илгари сурилган ғояларни умумлаштириш, улар ўртасидаги алоқаларни топиш имкониятини яратади.

График органайзердан фойдаланишда қуйидаги шартларга риоя қилиш талаб этилади:

Нимани ўйлаган бўлсангиз, уни қоғозга ёзинг!

Фикрингиз сифати ҳақида ўйлаб ўтирмай, шунчаки ёзиб боринг!


Ёзувингизнинг имло хатоси ёки бошқа жиҳатларига эътибор берманг!

Белгиланган вақт ниҳоясига етмагунча, ёзишдан тўхтаманг!

Агар маълум муддат ўйлай олмасангиз, у ҳолда қоғозга бирор нарсанинг расмини чиза бошланг!

Бу ҳаракатни янги ғоя туғилгунига қадар давом эттиринг!

Муайян тушунча доирасида имкон қадар кўпроқ янги ғояларни илгари суриш, улар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик, боғлиқликни кўрсатинг!



Топшириқларни бажариш якунланади.

Муҳокама жараёни уюштирилиб, курсантлар ва гуруҳларнинг ўқув фаолияти таҳлил қилинади ва баҳоланади.

Машғулот юзасидан умумий хулосага келинади ва якунланади.

Курсантларнинг билими ва ўқув мақсадига эришганлигини назорат қилишда уларнинг муайян мавзу бўйича маълумот ва ахборотларни ўзлаштирганлик даражасини аниқлаш мақсадга мувофиқ бўлади. Бунинг учун курсант мавзу бўйича

объектларни аниқлаши, уларга таъриф бериши, маълумотларни қайта ишлаши, ўз фикрини баён этиши, муайян жараён, объект ёки воқеанинг моҳиятини тушунтириши, мазкур жараён, объект ёки воқеанинг ўзига хос хусусиятларини ажратиб кўрсатиши зарур бўлади.

Ушбу фикрларни стандарт ўқув ва тест топшириғи билан амалга ошириб бўлмайди, билиш ўқув мақсадига эришилганлик даражасини аниқлашда куйидаги расмни ва кўп жавобли ностандарт тестлардан фойдаланиш тавсия этилади.

Мазкур тест топшириқлари таҳсил олувчиларнинг ўзлаштирган нафақат билимларини балки объект ва унинг қисмларини таниш, ўзига хос хусусиятларини аниқлаш кўникмаларини назорат қилиш ва баҳолаш жараёнини ҳаққоний амалга ошириш имконини беради.

Расмда берилган МТ-Т қисмларига мос рақамларни аниқлаб ёзинг

	Минанинг қисмлари	Рақамлар
	Йўналтирувчи ғилдирак	12
	Гидравлик амортизаторлар	3,6,11
	Занжир	10
	Балансир	9
	Тагдан тутувчи ғалтак	8
	Таянч	7
	Османинг қисми	5
	Таянч ғалтаги	4
	Машина корпуси	2
	Етакловчи ғилдирак	1

ХУЛОСА ВА ТАВСИЯЛАР

1. Қисқа вақт орасида муайян назарий билимларни курсантларга етказиб бериш асосида маълум билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш тажрибасини ривожлантириш мақсадга мувофиқдир.

2. “БАТ-2 машинасини тузилиши” модулининг ўқув машғулотларида интерфаол методлар ва бошқа инновацион таълим технологияларидан фойдаланиш самарасини оширади.

3. Инновацион ёндашув асосида ташкил этилаётган ўқув машғулотлари курсантларда касбий билим, амалий

кўникма ва малакаларни шакллантириш самарадорлигини оширади.

4. Олий таълим, шунингдек, ҳарбий таълим муассасаларида таълим жараёнида қўлланилаётган инновацион ғоялар, методлар ва воситаларнинг мамлакат миқёсида жорий этилиши таълим сифатини яхшилайдди.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги № -637 Қонуни.-Т.: 2020. - 23 сент. www.lex.uz
2. Руководство по материальной части и эксплуатации БАТ-2. - М.: Воениздат, 1977 г.
3. ЎР МВ қўшилма ва қисмларининг муҳандис техник таъминоти тўғрисидаги Қўлланмани тасдиқлаш ва тадбиқ этиш ҳақидаги ЎР МВ нинг 2004 йил 22 июндаги буйруғи.
4. Ҳарбий муҳандислик ишлари бўйича қўлланма: ўқув қўлланма / М.Р. Шарипов [ва б.]. – Т. : Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги Нашриёт бўлими, 2013. – 473 б.



NOSIRUDDIN TUSIYNING GNOSEOLOGIK VA MANTIQUIY QARASHLARI HAMDA MAZKUR MASALALARGA MUALLIF ASARLARIDAN MISOLLAR

Muhammadjon Lazzatbek o'g'li Umarov

TDIU tayanch doktoranti

muhammadjonumarov344@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada arab-musulmon ijtimoiy tafakkurining mashhur vakili Nosiruddin Tusiyaning qarashlarida gnoseologik va mantiq ilmi masalasiga munosabati tahlil qilingan. Abu Ja'far Muhammad Nosiruddin Tusi islom falsafasi va axloqshunosligida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan asarlarni yozgan. Mutafakkirning falsafiy qarashlari mashshoyiyuna yo'nalishi g'oyalarining an'analarini davom ettirgan.

Kalit so'zlar: Nosiruddin Tusi, gnoseologiya, mantiq, matematika va falsafa, "Axloqi Nosiriy", "Asos-ul iqtibos" ("Bilim olishning asoslari"), "Birinchi analitika", «inklyuziv» hukm.

ABSTRACT

This article analyzes the attitude of the famous representative of Arab-Muslim social thought, Nasiruddin Tusi, to the issue of epistemological and logical science. Abu Ja'far Muhammad Nasiruddin Tusi wrote works of great importance in Islamic philosophy and ethics. Philosophical views of the thinker continued the traditions of the ideas of Mashshoyiuna direction.

Keywords: Nasiruddin Tusi, epistemology, logic, mathematics and philosophy, "Akhlaqi Nasiri", "Asos-ul iqtibus" ("Basics of learning"), "First analytics", "inclusive" judgment.

KIRISH

Mazkur maqolada arab-musulmon ijtimoiy tafakkurining mashhur mutafakkiri Abu Ja'far Muhammad Nosiruddin Tusiyaning (1201-1274) gnoseologik va mantiq ilmiga oid qarashlari hamda uning ma'naviy merosi haqida mulohaza yuritiladi. Mutafakkirning bilish falsafasi, mantiq va boshqa fanlarga doir asarlari haqida ma'lumotlar tahlil qilingan. Nosiruddin Tusiyaning axloqiy qarashlari va bilish haqidagi qarashlarini "Axloqi Nosiriy" asari asosida ko'rib chiqish mumkin.

Abu Ali Miskavayhning “Kitobul tahorat” asarining barcha mazmunini saqlagan holda, keyingi o‘tgan barcha hukamolarning qarashlarini hisobga olgan holda “Axloqi Nosiriy” asari vujudga keldi. Kitob boshida Sharqdagi an’analarga muvofiq dunyoni tushunish, fanlarning vazifalari va turlari haqida qisqacha to‘xtab o‘tiladi.

“Axloqi Nosiriy” asarining to‘rtinchi fasli insonning boshqa barcha mavjudotlardan afzalligini isbotlashga bag‘ishlagan. Nosiruddin Tusiyning daliliga ko‘ra, tabiiy jismlar jism bo‘lganliklari tufayli bir-birlariga teng va barobar bo‘lib, ularning oralari darajalarga va fazilatlarga bo‘lingan emas. Ma’naviy jihatdan ularning hammasi bir hududda bo‘lib, uzunlik, kenglik va chuqurlikda farqlari bo‘lsa ham va ko‘rinishdangina turlarga bo‘linsalar ham, baribir birinchi javhardan (hayulo) kelib chiqqan jins suratidadirlar .

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent Muhammadjon Qodirovning “Nasriddin Tusiyning «Axloqi Nosiriy» asari va uning tahlili” asari metodologik manba sifatida foyladanildi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez va obyektivlik usulidan foydalanildi. Shuningdek, mutafakkirning mantiq ilmiga doir asarlari haqidagi ma’lumotlar obyektiv ochib berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“O‘z davrining Yevklidi, Ptolemeyi, o‘z asrining Aflotuni va Aristoteli deb nom olgan faylasuf mutakallim, siyosiy arbob, tengsiz matematik iste’dod egasi” [1. 16] bo‘lgan Nosiruddin Tusiy o‘zining ensiklopedik bilimi va aqliy salohiyati tufayli real voqelikning barcha ziddiyatlarini ko‘ra olgan takrorlanmas faylasuf hisoblanadi. Mutafakkirning falsafa, axloqshunoslik, tibbiyot, biologiya, matematika fanlari, adabiyot, fiqh, hadisshunoslik, Qur’oni karimning sharhlari, kalom kabi ilmning barcha sohalarini qamrab olgan 200 ga yaqin asarlari [2.6] Sharq va G‘arb olimlarining tadqiqot ob’yektiga aylandi. Inson boshqa mavjudotlardan farq qilib, ongga, o‘z-o‘zini anglash qobiliyatiga egadir. Shu tufayli ilmga intilish, o‘z hayotining maqsadi va mazmunini bilishga tirishish, go‘zallik yaratishga va har tomonlari barkamol bo‘lishga urinish, axloqiy me’yorlar barcha davr va millat kishilariga xos bo‘lgan umuminsoniy xislat va fazilatlardir. Bilish va o‘z-o‘zini bilish – bular shunday aqliy amaliyotki, ular koinot bilan bog‘liq bo‘lgan uyg‘unlikni va unga muvofiq keladigan jamiyatni

shakllanishini idrok etish bo'lib, bular ham o'z navbatida inson haqidagi g'amxo'rlikni ko'zda tutgan holda tashkil topganlar.

Bilish masalasida Tusiy fikrlariga to'xtaladigan bo'lsak, bu haqda mutafakkirning "Axloqi Nosiriy" asarida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Muallif asarning to'rtinchi faslini insonning boshqa barcha mavjudotlardan afzalligini isbotlashga bag'ishlagan. Uning daliliga ko'ra, tabiiy jismlar jism bo'lganliklari tufayli bir-birlariga teng va barobar bo'lib, ularning oralari darajalarga va fazilatlarga bo'lingan emas. Ma'naviy jihatdan ularning hammasi bir hududda bo'lib, uzunlik, kenglik va chuqurlikda farqlari bo'lsa ham va ko'rinishdangina turlarga bo'linsalar ham, baribir birinchi javhardan (hayulo) kelib chiqqan jins suratidadirlar.

Shuningdek, mavjudotlar haqidagi ilm ham ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismdagi ilmni nazariy hikmat deyishadi. Ikkinchisi esa, agar modda bo'lmasa, uning o'zi ham bo'la olmaydi. O'z navbatida, bu qismni yana ikkiga bo'lish mumkin. Birinchisida aql va tasavvurda moddaning bor-yo'qligiga e'tibor berilmaydi, ikkinchisida esa, e'tibor berilayotgan narsa, faqat modda bo'lgandagina ma'lum bo'ladi. Demak, shu nuqtai nazardan nazariy hikmatni uch qismga bo'ladilar. Birinchisini ilmu moba'dul tabia, deb atashadi, ikkinchisini ilmu riyoziy (matematika), uchinchisini esa, ilmu tabiiy deyishadi. Bu uch qism ilmdan har birisi, o'z navbatida, bir qancha qismlarni o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilar usul sifatida bo'lsalar, ba'zilar ikkinchi darajalidirlar. Ammo birinchi ilmning usuli ikki fandan iborat bo'lib, birinchisi Allohu taolo va uning farmoniga binoan vujudga kelgan uchqunlari bo'lsa, ikkinchisi mavjudotlar va ularning turlaridir. Mavjudotlar birlik va ko'plik hamda vujudan iborat bo'lib, paydo bo'lish yoki qadimdan mavjud bo'lish imkoniyatiga ega bo'lganliklari tufayli birinchi falsafa deb ataladilar.

Mavjudotlarni bilish uchun ularni qismlarga bo'lishni davom ettirib, Nasiriddin Tusiy inson ruhiga yetib keladi va bu haqda shunday yozadi: "Ruhlar ichida inson ruhini qo'zg'ovchi va hayvonot jonlaridan tubdan farq qiluvchi shunday bir quvvat borki, uni nutq quvvati deb atashadi. Bu quvvat barcha narsalarni qurolsiz ravishda idrok eta oladi. Uning e'tibori mavjudotlar haqiqatini va ularni o'rab turgan sinflarga qaratilganligidan uni nazariy aql deyishadi". Uning tasarrufida inson faoliyatidagi yaxshi narsalarni yomonlaridan ajratish va kun kechirishning foydali jihatlarini

aniqlash imkoniyati borligidan bunday quvvatni amaliy aql deb atashadi. Bu quvvatning ikki qismga bo'linishidan ikki bo'lim shakllanganligi uchun ilmi hikmatni (falsafani) ikkiga bo'ldilarki, birinchisini nazariy va ikkinchisini amaliy, deb atadilar.

O'rta asr Sharq mutafakkirlarining falsafiy merosi, ularning mantiqqa oid asarlari, epistemologik g'oyalari va ta'limotlari doimo tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelgan va shu paytgacha ular

ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning qiziqishini uyg'otib kelmoqda. Bu o'rta asr mutafakkirlari risolalaridagi keng rivojlangan mantiqiy va falsafiy g'oyalarning boyligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, ularning bu sohadagi mulohazalari va kashfiyotlari u yoki bu tarzda ilm-fanning hozirgi rivojlanishi bilan aloqada bo'ladi. Arab-fors mantiq'i va falsafasining tarixini o'rganish sharqiy peripatetizmning ta'sirchan yo'nalishi sifatida Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining mantiqiy-epistemologik fikrining shakllanishi va rivojlanishi jarayonini aniqroq takrorlashga imkon beradi. Sharqda buning natijasida mantiq universal uslubiy ilmiy vositaga aylangan g'oyalarni tushunish, ya'ni to'g'ri fikr yuritish qonunlari va shakllari haqidagi fan sifatida shakllanadi.

Tusiyning mantiqiy qarashlariga kelsak, bu yerda quyidagilarni ta'kidlash zarur: Aristotel va Ibn Sino mantiq'ining asosiy tamoyillarini himoya qilish va rivojlantirish paytida Tusiy shu bilan birga o'zining ko'plab noyob asarlarini yozgan. Va bu bizga Tusiyning mantiqiy-epistemologik kontsepsiyasi haqida aniq tasavvurni beradi. Bundan tashqari, Tusiyning mantiqiy-epistemologik kontsepsiyasini o'rganish mantiqiy fan asoschilari – Aristotel, Forobiy va Ibn Sino ta'limotlari bilan taqqoslaganda uning ta'limotining mazmuni va o'ziga xosligini aniqlashga imkon beradi.

Nasiriddin Tusiy har bir amalning bajarilishi usulini ko'rsatishdan avval shu amallarga qisqa va tushunarli ta'rif beradi. U amallarning bajarilishi usulini to'liq umumiy ko'rinishda bergandan so'ng misol keltiradi. Tusiyning mantiq ilmiga oid asari "Asos-ul iqtibos" – أساس الإقتباس ("Bilim olishning asoslari") bo'lib, unda yunon faylasuflarining mantiqiy atamalarga berilgan ta'riflari izohlab, ularni tahlil qiladi va shaxsiy ta'riflarini keltirib o'tadi.[3.429]

Nasiriddin Tusiyning mantiqiy ta'limotida hukm haqidagi ta'limotga muhim o'rin berilgan va bu juda asoslidir. Mantiqan, hukmlar, go'yo, barcha aql-idrok shakllanadigan elementlardir. Xususan, ular xulosalar, sillogizmlar va dalillarni anglatadi. O'z navbatida, ikkinchisi, albatta, yangi bilimlarni o'z ichiga olgan yangi hukmlar chiqaradigan bunday uslubiy vositalardir. Shuning uchun ham mutafakkir hukmni o'rganishga fikrning maxsus shakli, bilim turi, mohiyati, tuzilishi, turlari, shuningdek, hukmlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishga katta e'tibor beradi. Bu masalada u Aristotel va Ibn Sinoga ergashib, hukmni "tasdiqlangan yoki inkor qilingan yangiliklarni o'z ichiga olgan nutq sifatida" belgilaydi.

Tusiy hukmlarni 2 sinfga bo'ladi: Qat'iy va shartli. Qat'iy hukm 2 termin (S, P) va bog'lovchidan tashkil topadi, unda sub'ektning hajmi predikatning hajmiga kiradi. = Parallel chiziqlar tasdiq, – to'g'ri chiziq inkorni bildiradi.

Shartli hukmlarning tarkibiy qismini bir necha oddiy hukmlar tashkil etadi.

Shartli hukmlarga kelsak, mutafakkirning fikriga ko‘ra, ular ikki yoki undan ortiq oddiy hukmlardan mantiqiy birikmalar yordamida hosil bo‘ladi (“agar, keyin”, “va”, “yoki” va boshqalar yordamida). Shartli hukmlarda, deydi Tusiy, bir qism boshqa qism mavjudligini taxmin qiladi, shuning uchun ularni «inklyuziv» hukm deb atash mumkin. [4.430] Mutafakkirning mantiqiy merosidagi predikativ yoki kategorik hukmlarning tasnifini ko‘rish mumkin. Umuman olganda, bu jihatda Ibn Sinoning tasnifiga o‘xshaydi va u o‘z navbatida Aristotelning pozitsiyasiga asoslanadi. Ma’lumki, Aristotelning hukmlar nazariyasi oddiy kategorik hukmlar nazariyasidir. U o‘z tasnifida kategorik hukmlarni sifat bo‘yicha ijobiy va salbiyga ajratadi. Aristotel shunday deb yozadi: “Bayonot – bu biror narsaning biror narsaga oid bayonoti. Inkori – bu biron bir narsadan nimanidir ayirib tashlash bayonidir” [5.96]

“Birinchil analitika” asarida kategorik hukmlar ularning miqdoriga ko‘ra umumiy, aniq va noaniq bo‘lib bo‘linadi: “Old shart – bu biror narsaga nisbatan biror narsani tasdiqlaydigan yoki inkori qiladigan nutq. U umumiy, yoki alohida yoki noaniq bo‘lishi mumkin”[6.119].

Zaruriy hukm turlari:

- Mohiyatiga ko‘ra zaruriy;
- Shartlangan umumiy zaruriylik;
- Shartlangan juz’iy zaruriylik;
- Vaqtdagi zaruriylik;
- Keng tarqalgan zaruriylik;
- Predikat shartiga ko‘ra zaruriylik;

Voqelik-mavjudlik hukmlari ham 2 xildir: Nozaruriy mavjudlik hukmlari, doimiy bo‘lmagan mavjudlik hukmlari.

G.I.Ruzavin va P.V.Tavants “Sxolastik mantiqshunoslar arab mantiqshunoslaridan moddiy taalluqli ta’limotni olgan bo‘lishi mumkin”, deb hisoblagan. Bu yerda “arab mantiqshunoslari” iborasi tushuntirishni talab qiladi. O‘rta asr musulmon olamida arab tili fan, falsafa va mantiq tili hisoblangan. Shuning uchun bu davr mutafakkirlari o‘z kitoblarini asosan arab tilida yozishgan, musulmon O‘rta asrlardagi olimlar, faylasuf va mantiqshunoslarning aksariyati forsiyzabon mutafakkirlar bo‘lgan.

Yuqoridagi hukmlardan tashqari Nasiriddin Tusiy modal va modallashtirilgan hukmlarni batafsil tahlil qiladi va ularning ko‘p turlarini aniqlaydi. Nasiruddin Tusiy tomonidan taklif qilingan hukmlar tasnifini ko‘rib chiqishni yakunlar ekan, shuni ta’kidlash kerakki,

antik davrda shartli hukmlar to'g'risidagi ta'limot Stoik mantiq'ining vakillari tomonidan ishlab chiqilgan[7.25]. Tusiyy esa ularni o'rganib, qayta ishlab chiqadi.

XULOSA

Nasiriddin Tusiyyning gnoseologik va mantiqiy qarashlarida biz ham yunon faylasuflari qarashlarining ta'sirini, ham Islom dinining ta'sirini kuzatamiz. Nasiriddin Tusiyy bu masalalarda har ikkala jihatni oqilona muvozanatga keltirishga harakat qiladi. Avvalo, Tusiyyning borliq haqidagi qarashlariga to'xtaladigan bo'lsak, undagi barcha borliqdagi narsalarning asosi Yagona Yaratuvchi Allohga borib taqalishi va qolgan narsalarning Undan kelib chiqishi nazariyasi Islom dini ta'sirida shakllangan bo'lsa, aynan shu jarayondagi jilovlanish, emanatsiya nazariyasining kelib chiqishi ham qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi. Tusiyyning mantiqiy qarashlariga kelsak, bu yerda quyidagilarni ta'kidlash zarur: Aristotel va Ibn Sino mantiq'ining asosiy tamoyillarini himoya qilish va rivojlantirish paytida Tusiyy shu bilan birga o'zining ko'plab noyob asarlarini yozgan. Va bu bizga Tusiyyning mantiqiy-epistemologik kontsepsiyasi haqida aniq tasavvurni beradi. Nasiriddin Tusiyyning mantiqiy tadqiqotlari qadimgi yunon-rim mantiq'iga, xususan, Aristotel boshchiligidagi peripatetizm mantiq'iga asoslanib, stoik mantiq'iga va Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abulbarakot Bag'dodiy, Kotibiylarning mantiq'iga asoslangan edi. Shuning uchun Tusiyy mantiq'i Arastu va Ibn Sino mantiq'ining sintezi hisoblanadi va u musulmon peripatetizm vakillariga qaraganda Aristotel mantiq'iga ko'proq sodiq edi, bu uning "Asos ul-iqtibos" deb nomlangan asosiy mantiqiy asarida o'z ifodasini topgan. Albatta, bu Ibn Sino g'oyalari uning mantiq'ida va epistemologiyasida yo'qligini anglatmaydi.

Nasiriddin Tusiyyning mantiqiy va epistemologik qarashlarining shakllanishiga yunon-rim mantiq'ining ta'siri qanchalik katta bo'lmasin, baribir uning dunyoqarashi va uning barcha g'oyalari Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarning ma'naviy merosiga asoslangan edi. Nasiriddin Tusiyy o'zining falsafiy mulohazalarida Aristotel an'analarini davom ettirib, haqiqat masalasida ratsionalizm va sensualizm ikkala rolni ham o'ynashini ko'rsatishga intildi. Nasiriddin Tusiyy shu tarzda falsafaning barcha yo'nalishlarida o'ziga xoslikka erishadi.

REFERENCES

1. Muxammad Taqi Mudarris Razaviy. Xo'ja Nosiruddin Tusiyyning hayotiy faoliyati va merosi. Tehron. 1370 h-sh.y. – B. 16. Fors tilida.
2. Nosiruddin Tusiyy. Fan muammosiga sharhlar. Eron, Mashxad universiteti, 1345 h-sh.y. – B.6

3. Аль-Фараби, Абу Наср. Философские трактаты / Аль-Фараби. – Алма-Ата, 1972. –С. 429.
4. Аль-Фараби, Абу Наср. Философские трактаты / Аль-Фараби. – Алма-Ата, 1972. – С. 430.
5. Аристотель. Об истолковании //Сочинения / Аристотель. Т.2. – М., 1978. – С.96.
6. Аристотель. Аналитика //Сочинения / Аристотель. Т.2. – М., 1978. – С.119.
7. Рузавин Г.И., Таванец П.В. Основные этапы развития формальной логики // Философские вопросы современной формальной логики. - М., 1962. – С.25.
8. Умаржонов, С. С. (2021). Ижтимоий фанларни ўқитишда Фаҳриддин Розий асарларининг ўрни ва аҳамияти. “Янги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий инновацион йўналишлари” халқаро илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2021-йил 21-ноябрь). – Т.: “IQTISODIYOT”, 2021; 116-124.
9. Safarov, M., Umarjonov, S. (2022). Matter of consciousness in the philosophy of Ar-Roziy and its current importance. WayScience, 135-138.
10. Саифназаров. И, Умаржонов. С. (2022). Янги Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари. Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (special issue 23), 414-424.
11. Umarjonov, S.S., Safarov, M.K. (2021). Fahriddin Roziyning “Latoif ul-g’iyosiyot” qo’lyozma asarida aql va e’tiqod masalasining qo’yilishi va uning diniy-falsafiy germenevtik tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 1058-1068.
12. Умаржонов, С.С. (2022). Фаҳриддин Розийнинг материя ва шакл, шакл ва мазмун, сабаб ва оқибат ҳақидаги онтологик таълимоти. Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (special issue 23), 249-258.
13. Safarov, M.K, Umarjonov, S.S. (2021). Abu Bakr ar-Roziy etikasida befoyda o’uy surish va ochko’zlik muhokamasi. Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 1045-1049.
14. Umarjonov, S. (2022). Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziy asarlarining qisqacha sharhi. IMOM BUXORIY SABOQLARI, 1, 24-25.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ДАВРИДА ЭГИЗАК ХОМИЛАЛИККА ЭГА ОНАЛАРНИНГ ТИББИЙ МАДАНИЯТИ

Нодирахон Ойбек қизи Гафурова
шифокор

АННОТАЦИЯ

Мақолада рақамли иқтисодиёт даврида эгизак хомилаликка эга оналарнинг тиббий маданияти тўғрисида фикр юритилган ва методик тавсиялар тақдим этилган.

Калит сўзлар: иқтисодиёт, рақам, тиббиёт, маданият, она, билим, кўникма, малака, амалиёт.

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси “Ақлли тиббиёт” концепциясига кўра, 2026 йилга қадар тиббиёт хизматини кўрсатиш рақамли технологияларга асосланиши керак. Чунки бугунги кунда рақамли технологиялар тезкорлиги, инновацион характерга эгаллиги ва самарадорлиги билан муҳим аҳамиятга эга [1]. Шу сабабли тиббий билим, кўникма, малака ва маданиятни эгаллаш барча кишилар учун зарурият ҳисобланади. Айниқса, бу борада оналарнинг сихат-саломатлигини сақлаш ва уларнинг тиббий маданиятини шакллантириш долзарб масаладир. Чунки бу ҳол эрта турмуш қуришнинг олдини олади, хомиладорлик даврида тиббий маданият асосларига доир соғломликни сақлаш таркиб топади. “Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси”да маънавий тарбияни хомиладорликдан бошлаш белгиланган [2]. Чунки ёш авлоднинг маънавий тарбияси халқаро репродуктив хужжатларга кўра хомиладорлик давридан бошланади. Бунда онанинг соғломлиги, уни турли тиббий-психологик инқирозлардан асраш ва тиббий маданиятини ривожлантиришга алоҳида эътибор берилади. Мамлакатимизда энг муҳим муаммолардан бири эрта турмуш қуришдир. Шу сабабли мазкур муаммони ҳал этиш учун хотин-қизларнинг тиббий маданиятини юксалтириш тақозо этилади. Мазкур ўринда эгизак хомиладорликка эга оналарнинг тиббий маданияти асослари тўғрисида фикр юритамиз. Чунки жамиятимизда рақамли иқтисодиёт даврига ўтиш вазифалари амалга оширилмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Рақамли иқтисодиёт барча соҳалар компьютер ахборот-коммуникацион воситаси асосида рақамлаштирилади. Шу сабабли эгизак хомиладорликка эга оналарнинг рақамли ҳисобини юритиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бунинг учун қуйидагиларни амалга ошириш кутилган самарани беради:

а) ташхис жараёнини компьютерли имкониятларга таянган ҳолда ва хорижий мутахассислар билан онлайн шаклда ҳамкорлик асосида амалга ошириш;

б) эгизак хомиладорликка эга оналарнинг рақамли ҳисобини юритиш ва бунда қуйидаги ҳужжатларни компьютерга киритиш:

- онанинг исми, шарифи, туғилган йили, оилавий шароити;
- эгизак хомилаларнинг ҳолати;
- хомиладорликни назоратга олишнинг хусусиятлари.

в) ҳар бир эгизак хомиладорликка эга оналарнинг ўз портални шакллантириш.

Бундай ёндашув айти пайтда, “ақлли тиббиёт” концепциясини амалга оширишда кўл келади. Шунингдек, эгизак хомиладорликка эга оналарнинг назорати тезкор ва тартибли равишда йўлга қўйилади. Бунда маҳаллабай тизими асосида ёндашиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Рақамли тиббий консультациялар бериб бориш

“Ақлли тиббиёт” концепциясида рақамли технология асосида тиббий консультациялар бериш белгиланган. Шу жиҳатдан эгизак хомиладорликка эга болаларнинг тиббий маданиятини юксалтириш учун компьютер ахборот-коммуникацион воситаси асосида махсус дастурга биноан мазкур тоифа оналарнинг ҳисоби асосида иш юритиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бунинг учун рақамли технология воситасида қуйидаги тиббий консультацияларни визуал тарзда бериб бориш мақсадга мувофиқ бўлади:

- а) ҳомиланинг ривожланиш даврида овқатланишга доир маслаҳатлар;
- б) эгизак хомиладорликнинг хусусиятлари бўйича маслаҳатлар;
- в) зарурий ҳолларда бевосита шифокорга мурожаат қилиш бўйича маслаҳатлар;
- г) эгизак хомиладаорлик даврида препаратларни қабул қилиш бўйича маслаҳатлар;
- д) эгизак хомиладорлик даврида гигиена қоидалари бўйича маслаҳатлар.

Бундай шаклдаги маслаҳатлар эгизак ҳомиладорликка эга оналарнинг, айниқса, ёш оналарнинг саломатлигини асрашда муҳим аҳамиятга эга. Халқимиз табиатида кўп фарзандлик хусусияти мавжуд. Шу сабабли туғруқ ёшдаги оналарга эгизак ҳомиладорликнинг оралиғи 3-4 йил бўлиши тушунтирилиши керак. Бунинг учун улар билан бевосита ва мунтазам равишда визуал алоқада бўлиш мақсадга мувофиқ бўлади.

ХУЛОСА

Рақамли иқтисодиёт даврида тиббий маданиятни юксалтириш ахборот-коммуникацион воситаларга асосланади. Шу жиҳатдан эгизак ҳомиладорликка эга оналарнинг тиббий маданиятини рақамли технология асосида ривожлантириб бориш бу борадаги ишларнинг янгилиниши ва самарадорлик даражасига ижобий таъсир кўрсатади [3]. Мазкур масалада қуйидагича ҳулосаларга келиш мумкин:

биринчидан, эгизак ҳомиладорликка эга оналарнинг бевосита мобил алоқа воситаси асосида рақамли ҳисобга олиш;

иккинчидан, сутканинг исталган даврида эгизак ҳомиладорликка эга оналарнинг мурожаат қилиш имкониятларини яратиш;

учинчидан, эгизак ҳомидаларнинг ривожланиш жараёнини рақамли технологиялар воситасида мунтазам назорат қилиб бориш;

тўртинчидан, эгизак ҳомидаларда учрайдиган ва исталмаган турли синдромларни рақамли технологиялар асосида аниқлаб, ўз вақтида даволаш;

бешинчидан, оила аъзоларининг эгизак ҳомиладорликка эга оналар билан муносабати бўйича маслаҳатлар бериб бориш.

Бизнинг тажрибамизга кўра, кейинги пайтларда эгизак ҳомиладорликка эга оналарда турли касалликлар кўпаймоқда. Шу сабабли бу борада оналарнинг тиббий маданиятини шакллантириб бориш мақсадга мувофиқ бўлади.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси тиббиёт соҳасини 2030 йилга қадар стратегик ривожлантириш концепцияси. // [www. google.uz](http://www.google.uz)
2. Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси. // [www. google.uz](http://www.google.uz)
3. Некрасова Е.С. Многоплодная беременность. – Москва, 2009

KREDIT MODUL TIZIMIDA FANLARNI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING AFZALLIKLARI

G. I. Sayfullayeva

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

H. R. Shodiyev

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

ANNOTATSIYA

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Buning uchun kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir.

Kalit so'zlar: Integratsiya, butun, ta'lim, yondashuv, ko'nikma, tashqi integratsiya, ichki integratsiya

KIRISH

Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari "XXI asr" ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Hozirgi kunda integratsiya atamasi dunyo bo'ylab turli sohalarni, masalan, ijtimoiy, mintaqaviy, iqtisodiy, diniy, irqiy, tashkiliy integratsiya kabi sohalarni qamrab oladigan ijtimoiy tushuncha sifatida ishlatiladi. Va o'z-o'zidan savol tug'iladi

- Integratsiya o'zi nima?
- Uning ta'lim tizimidagi ahamiyati nimada?
- Tabiiy fanlarni o'qitishda integratsiya qanday amalga oshiriladi?

ADABIYOTLAR TAHLILI

Integratsiya lotincha integratio – tiklash, to'ldirish hamda integer – butun so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, qismlarni bir butungga aylantirish uchun ularni birlashtirish, qo'shish va yoki bir-biriga almashtirish harakatidir.

✓ Ta'limni integratsiyalash orqali umumta'lim fanlarini o'qitishda fanlararo aloqalarni o'rnatish, turli ta'lim dasturlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali ta'lim mazmunining yaxlitligiga erishish va o'quvchi dunyoni bilishi va tasavvur qilishda bir tomonlama emas, balki har tomonlama rivojlanishga erishish.

✓ Fanlararo aloqadorlik (integratsiya) o'quvchini ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi, tabiatni to'g'ri va to'la anglashga, undan oqilona foydalanishga, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o'qitishda ularning integratsiyasini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmay kelmoqda.

Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o'quv rejalarida ushbu fanlarni o'qitishning vaqt bo'yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg'unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o'quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

O'quv fanini o'rgatishdan maqsad o'quvchini fandagi ob'yektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda sub'yektiv yangilikka ega bo'lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. Bu ma'noda integratsiya – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin.

O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi.


O'quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi sub'yektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo'lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – sub'yektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Fanlararo integratsiya bir necha o'quv predmetining bir biriga talluqli sohalarni ko'rsatish emas, balki integratsiyalab o'qitish orqali o'quvchiga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, integratsiya O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi.

NATIJARAR

Ilmda yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba’zida u bir qancha o’n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O’quv jarayonida o’qituvchi bir yoki bir necha mashg’ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida o’quvchini ilgari turli fanlariga oid o’zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub’yektiv yangi bilimga “olib kelishi” kerak bo’ladi


Fanlarni integratsiyalashni 2 ko’rinishda olib borish mumkin:



Ya’ni, o’quvchiga bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shartsharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri, bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o’tish bilan bog’liq bo’lib, u fanlararo aloqalarni o’rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi

Bu esa o’z navbatida o’qituvchidan nafaqat tezkorlikni, balki zukkolik va topqirlikni ham talab etadi. O’qituvchi o’quvchilarning qiziqishidan kelib chiqqan holda, o’rganilayotgan bilim sohasini hayotiy ko’nikmalarga bog’lay bilishi, mantiqiy fikrlashga undashi, o’quvchida nega?, nima uchun?, qanday qilib? – kabi savollarni tug’dira olishi talab etiladi.

Fanlarni integratsiyalashning quyidagi darajalarini belgilash mumkin



XULOSA

Mavzuviy integratsiyada ikki uch xil predmet bitta mavzuni ochib beradi. Bu darajani illyustrativ – tavsifiy deb ham atash mumkin.

- Bitta muammoni har xil predmet imkoniyatlari bilan yechish, muammoli integratsiya bo`ladi. Konseptual integratsiyada har xil o`quv predmetlarning vosita va uslublari yordamida bitta konsepsiya ko`rib chiqiladi.

- Har xil nazariyalarning o`zaro falsafiy singishi nazariy integratsiya hisoblanadi

REFERENCES

1. G.I. Sayfullayeva // Improving the training of technical and creative and creative thinking and creative thinking in pedagogical training in higher education institutions of the astronomy using modern educational programs// International Scientific Journal Theoretical & Applied Science 2022 йил
2. G.I. Sayfullayeva Мирзақандова С.Х //Определение физических параметров луны математическими методами// Лучший студент- 2022 2022 йил
3. G.I. Sayfullayeva//Problems and prospects of the introduction of information technology in the teaching of astronomy in pedagogical higher education institutions in the information age, in the history of mankind, great achievements have been made in the world of industry and

FE'LLARNING BO'LISHSIZ SHAKLLARIDA NEYTRALLASHUV

Oybek Tojiboyevich Eshonqulov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
3-kurs tayanch doktoranti
eshonqulov@navoiy-uni.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi fe'llarning bo'lishsiz shakllarida neytrallashuv hamda ularning nutqiy qo'llanishda o'zaro zidlikni hosil qilishi masalasi va o'zbek tilida *bor* va *yo'q* so'zlarida neytrallashuv *-mi* yuklamasi ta'sirida yuz berishi, ular erkin almashinib qo'llanish xususiyatiga tahlil etildi.

Kalit so'zlar: Fe'l so'z turkumi, deyxsis, ziddiyat, zidlanish munosabati, sintaktik neytrallashuv, polifunksional so'z.

АННОТАЦИЯ

В данной статье был проанализирован вопрос о нейтрализации в безударных формах глаголов узбекского языка и их противопоставлении в разговорной речи, а также о том, как нейтрализация в узбекских словах "есть" и "нет" происходит под влиянием нагрузки "-ми", характер их взаимозаменяемости.

Ключевые слова: Глагольное словосочетание, дейксис, противоречие, отношение противопоставления, синтаксическая нейтрализация, полифункциональное слово.

ABSTRACT

This article considered an issue discussion in neutralization in forms of Uzbek verbs and the formation of the interaction in their speech circular use. It's analyzed that in the words "bor" (there is/are) and "yo'q" (there isn't/aren't) in Uzbek, neutralization occurs under the particle of "-mi". They also focused on the nature of being used freely.

Keywords: Verb phrase, deixis, contradiction, relation of opposition, syntactic neutralization, polyfunctional word.

KIRISH

Dunyo tilshunosligida til sathi birliklarining ichki tuzilishidagi umumiy o'xshash va zidlanishga asos bo'lgan



farqlanuvchi jihatlarini aniqlash, o'xshashliklarning yagona belgiga asoslanishi, ziddiyatlarning esa bir-biriga muvofiq kelmaslik tamoyili asosida yuzaga chiqishi qonuniyatlarini o'rganish har doim markaziy masalalardan biri bo'lib kelgan. Til sathi birliklarini til-nutq zidlanishida tadqiq etish lisoniy birliklarning bir qarashda ilg'ab bo'lmaydigan, faqat nutqiy qo'llanishda yuzaga chiqadigan semantik, funksional-uslubiy, konnotativ-pragmatik xususiyatlarini aniqlashga imkon berishi ma'lum.

Adabiyotlar tahlili: Dunyo tilshunosligida til birliklarining zidlanishga asos bo'lgan farqli belgilarining muayyan nutqiy qo'llanishda neytrallashuvi muammosi dastlab fonologik sath doirasida tekshirildi. Xususan, bu masalaga ilk bor funksional grammatikada N.S.Trubeskoy, keyinchalik L.I.Bogoraz-Buxman, V.A.Vinogradov, V.M.Beldiyan, V.K.Juravlyovlar; o'zbek tilshunosligida esa dastlab A.G'ulomov, keyinchalik A.Nurmonov, A.Abduazizovlar munosabat bildirishdi. [1]Keyingi yillarda o'zbek tili fonemalari zidlanish belgisining neytrallashuvi muammosi D.Nurmonova tomonidan monografik aspektda tadqiq etildi. [2]

Ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tili morfologik birliklarida zidlanish uchun asos bo'lgan belgining yo'qolishi va neytrallashuvi muammosi ilk marta maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan;

o'zbek tilidagi morfologik birliklar nutqda qo'llanganda zidlanish uchun asos bo'lgan belgisini yo'qotib, zidlanuvchi a'zoga nisbatan neytrallashuvi qonuniyatlari ochib berilgan;

morfologik birliklarda neytrallashuv hodisasining yuz berishi sabablari aniqlangan, neytrallashuvni yuzaga keltiruvchi omillar aniqlangan;

nutqda morfologik birliklar, xususan fe'l so'zlar neytrallashuvining funksional-uslubiy jihatlarini ochib berilgan;

o'zbek tilida fe'l so'z turkumlari misolida tranpozitsiya hodisasi morfologik neytrallashuvni yuzaga keltirishi

Tilda morfologik neytrallashuv fe'llarning bo'lishsiz shakllarida ham yuz beradi. Fe'llarning bo'lishsiz shakllari gap tarkibida qo'llanganda bo'lishli shakliga nisbatan zidlanish belgisini yo'qotganda neytrallashuvi kuzatiladi.

O'zbek tilshunosligida fe'llarning neytrallashuvi masalasi maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, ayrim ishlarda bu hodisaga munosabat bildirib o'tilgan. Jumladan, taniqli olim

A.Nurmonov sintaktik sathda yuz beradigan neytrallashuv haqida fikr yuritib, ravishdosh shakllarida kuzatiluvchi neytrallashuv masalasiga munosabat bildiradi. Uning fikricha, “Ravishdoshning *-b (-ib)*, *-guncha* (va uning fonetik variantlari) formalaridan ifodalangan ergash gapning kesimi yoki ravishdosh oborotlar tasdiq-inkor belgisiga ko‘ra oppozitsiyaga kirishganda,

<i>-b (-ib)</i>	<i>-may</i>
	<i>-masdan</i>
<i>-guncha</i>	<i>-maguncha</i>

kabi oppozitiv qatorlarni hosil qiladi. Bu ularning doimiy oppozitsiyasidir. Ayrim hollarda oppozitsiya a‘zolaridagi ana shunday doimiy munosabat buzilishi mumkin. Bu vaqtda tasdiq va inkor qatorga mansub a‘zolarida oppozitiv belgi yo‘qolib, bir tasdiq mazmun atrofida birlashadi va mazmunan bir paradigmani hosil qiladi. Tasdiq va inkor qatorlar o‘zaro erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo‘ladilar. Masalan:

<i>Qora qishda to‘y qilmay,</i>	}	<i>battar bo‘lgur, nokas gov</i>
<i>Qora qishda to‘y qilib,</i>		

(A. Oripov)” [3]

Darhaqiqat, ravishdoshning *-guncha* shakli *-maguncha* shakli bilan, *-b (-ib)* shakli *-may*, *-masdan* shakllari bilan bo‘lishli-bo‘lishsizlikni ifodalashiga ko‘ra oppozitiv munosabatda bo‘ladi. Ba‘zan ravishdoshning bo‘lishsizlikni ifodalovchi *-maguncha*, *-may*, *-masdan* shakllari bo‘lishli shakllariga nisbatan zidlanishga asos bo‘lgan belgisini yo‘qotib, neytrallashadi. Masalan:

O‘sha voqeadan keyin to Nozima uyg kelmaguncha, kishi bilmas, yo‘l poylaydigan odat chiqardi. (J.Ergasheva. «Qir ustidagi ayol»)

Ushbu gapda qo‘llangan *kelmaguncha* ravishdoshi *kelguncha* bo‘lishli shakli bilan inkor-tasdiqni ifodalashiga ko‘ra zidlanadi. Ammo bu gapda *kelmaguncha* ravishdoshi inkorni emas, tasdiqni ifodalashga xizmat qiladi. Natijada *kelguncha* bo‘lishli shakliga nisbatan zidlanish belgisini yo‘qotib, u bilan erkin almashinadigan bo‘lib qolgan. Qiyoslang:

O‘sha voqeadan keyin to Nozima uyg kelguncha, kishi bilmas, yo‘l poylaydigan odat chiqardi.

Bunday holat quyidagi gapda qo‘llangan *olib bermaguncha* ravishdoshida ham kuzatiladi: *Yuqoridan birov qo‘lini cho‘zgandi, haligi qo‘rqinchli tushning ta‘siridan qutulolmaganimdan cho‘chib ketdim, u to stakanchani olib bermaguncha turaverdi.* (S.Vafo. «Poezd»)

Berilgan	gapda	qo‘llangan
<i>olib bermaguncha</i>	ravishdoshi	<i>-ma</i> affiksini qabul qilgan

bo'lsa-da, inkorni emas, tasdiqni ifodalashga xizmat qilgan. Natijada zidlanish belgisini yo'qotib, neytrallashuv hodisasiga uchragan.

Quyidagi misollarda ravishdoshning bo'lishsiz shakldagi *-may*, *-masdan* grammatik shakllari *-b (-ib)* bo'lishli shakliga nisbatan zidlanish belgisini yo'qotib neytrallashgan:

1. *O'qqa uchramay qolishingni o'ylab, Xudo deb yurasan.* (A.Karim. "Urush ko'rgan chollar")

2. *Mo'g'ullar kelmasdan oldin bu joy obod va moddiy jihatdan boy shaharlar bo'lgan edi.* (T.Matyaqubov. "Ko'hna xorazm poytaxti Kat shahri tarixi")

Birinchi misolda qo'llangan *uchramay* ravishdoshi bo'lishli shakldagi *uchrab* ravishdoshi bilan gapda inkor-tasdiqni ifodalashga ko'ra o'zaro zidlanadi. Biroq ushbu gapda bunday zidlik munosabati yuzaga chiqmaydi. *Uchramay* ravishdoshi bo'lishsiz shaklda bo'lsa-da, gapda tasdiq ma'nosi ifodalanadi. Bu holat ushbu ravishdoshning *uchrab* ravishdoshiga nisbatan zidlanish belgisini yo'qotib, u bilan erkin almashinib qo'llana olishini anglatadi. Bu quyidagi qiyosda yanada yorqin kuzatiladi:

O'qqa uchrab qolishingni o'ylab, Xudo deb yurasan.

Keyingi misolda qo'llangan *kelmasdan* ravishdoshi *kelguncha* bo'lishli shakldagi ziddiga nisbatan zidlanish belgisini yo'qotib, u bilan erkin almashinib qo'llanadigan bo'lib qolgan. Qiyoslang:

Mo'g'ullar kelguncha bu joy obod va moddiy jihatdan boy shaharlar bo'lgan edi.

Bu o'rinda shuni eslatib o'tish joizki, ravishdoshning *-may*, *-masdan* shakllari har qanday holatda ham bo'lishli shakldagi *-b (-ib)* ravishdoshi bilan oppozitiv munosabatini yo'qotavermaydi. Masalan, "*O'tilgan mavzuni o'zlashtirmay, uni mustahkamlab bo'lmaydi*" gapida *-may* affiksli ravishdosh *-b (-ib)* affiksli ravishdoshga nisbatan doimiy oppozitsiyasini saqlab qoladi.

Xuddi shunday, o'zbek tilida *-guncha*, *-maguncha* shaklli ravishdosh o'ramlar oppozitsiyasida ham doimo neytrallashuv qayd etilavermaydi. Masalan: *Qo'lidan tutmaguncha nima deysan?* (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari")

Ushbu gapda qo'llangan bo'lishsiz shakldagi ravishdosh o'rami bo'lishli shakliga nisbatan doimiy zidlanish belgisini saqlab qolgan. Bu holat quyidagi gapda ham kuzatiladi:

Qamatmaguncha qo'ymayman, deyapti. (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari")

Quyida berilgan gaplarda ham bo'lishsiz shakldagi ravishdoshlarda neytrallashuv hodisasi kuzatilmaydi:

1. ... *Oradan bir soatcha vaqt o'tmay mashinamiz silkinib-silkinib o'chib qoldi.* (S.Vafo. "Ustyur")

2. *Oradan ko'p vaqt o'tmasdan Hamid Z.Hayitboev ko'rsatgan hovliga kirdi.* (T.Qosimov. "So'nggi pushaymon – o'zingga dushman")

Berilgan gaplarda qo'llangan *o'tmay*, *o'tmasdan* fe'l shakllari *vaqt* so'ziga bog'lanib, oradan ma'lum muddat o'tmaganligini anglatadi. Demak, bu gaplarda ushbu fe'llar bo'lishsizlikni anglatgan va bo'lishli shakldagi *o'tib* fe'li bilan oppozitsiyaga kirishadi.

Shu o'rinda bo'lishsiz shakldagi fe'llarning qanday vaziyatda bo'lishli shakliga nisbatan zidlanish belgisini yo'qotib, neytrallashuvi masalasiga aniqlik kiritish lozim bo'ladi.

Taniqli tilshunos olim A.Nurmonovning fikricha, "*Qora qishda tuy qilmay, battar bo'lgur, nokas gov*" gapida *qora qishda to'y qilmay* konstruksiyasi ikkilamchi funksiyada qo'llangan bo'lib, buni gapning keyingi *battar bo'lgur* qismi ko'rsatib turadi. Agar shu qism gapdan olib tashlansa, u vaqtda ravishdosh oborot doimiy oppozitsiyasini saqlaydi, ravishdosh oborotning transpozitiv holatda qo'llanilayotganini kontekst belgilaydi. [4]

Ma'lum bo'ladiki, bo'lishsiz shakldagi ravishdoshning ikkilamchi vazifada qo'llanishi neytrallashuvni yuzaga keltirgan. Biroq olim bu o'rinda *to'y qilmay* konstruksiyasining ikkilamchi funksiyada qo'llanishiga turtki bo'lgan omil haqida fikr yuritmaydi.

Nutq jarayonida inkor shakldagi fe'l orqali tasdiq mazmunini ifoda etish axborotning ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tilshunoslikda qo'sh inkor orqali qat'iy tasdiqning ifodalanishi haqidagi xulosalar ham buni dalillaydi. A.Oripov ham qora qishda to'y qilish haqidagi axborotni ta'sirchan bayon etishda inkor shakldagi ravishdosh shaklidan foydalangan va bu bilan ifodada ta'sirchanlikka erishgan. Bu holat ravishdoshning ikkilamchi vazifada qo'llanishiga olib kelgan.

Anglashiladiki, nutq egasining pragmatik maqsadi ba'zi til birliklarining doimiy vazifasidan chekinishiga va oqibatda ziddiyatdagi a'zoga nisbatan neytral holatga kelib qolishiga sababchi bo'ladi.

Neytrallashuv hodisasi gapda to'siqsizlik munosabatini ifodalovchi buyruq-istak maylidagi bo'lishsiz fe'llarda ham kuzatiladi. Masalan:

1. ... *Ikki tilni aralashtirmay gapirishini qancha **tayinlamay**, u “yo‘q” deya xarxasha qilardi.* Gazetadan.

2. *Biroq ushbu tabiblar u kishini davolash va muolaja qilishga qanchalik **urinishmasin** va kuch-g‘ayrat **sarflashmasin**, Alisher Navoiy ahvolidagi yaxshilanish va tuzalish yuz bermadi...* (I.Sulton. “Alisher Navoiy”)

Birinchi gapda qo‘llangan *tayinlamay* fe‘li 1-shaxs buyruq-istak maylidagi bo‘lishsiz fe‘l hisoblanadi. Bu fe‘l orqali gapda to‘siqsizlik munosabati ifodalangan bo‘lib, bu munosabatni ifodalovchi bo‘lishli shakldagi *tayinlasa ham, tayinlasa-da* fe‘llari bilan oppozitsiyaga kirishadi. Ammo bu oppozitiv munosabat *tayinlamay* fe‘lining zidlanish uchun asos bo‘lgan belgisini yo‘qotishi, ya‘ni inkorni ifodalamasligi natijasida buziladi. Buning oqibatida *tayinlamay* fe‘li *tayinlasa ham, tayinlasa-da* fe‘llari bilan erkin almashinib qo‘llanish xususiyatiga ega bo‘ladi. Qiyoslang:

...*Ikki tilni aralashtirmay gapirishini qancha **tayinlasa ham (tayinlasa-da)**, u “yo‘q” deya xarxasha qilardi.*

Keyingi gapda esa 3-shaxs buyruq-istak maylidagi *urinishmasin, sarflashmasin* bo‘lishsiz fe‘llari qo‘llangan. Bu fe‘llar orqali ham gapda to‘siqsizlik munosabati ifodalangan. To‘siqsizlik munosabati bu fe‘llarning *urinishsa ham urinishsa-da, sarflashsa ham, sarflashsa-da* bo‘lishli shakllari orqali ham ifodalanadi. Farqli jihati shundaki, bo‘lishsiz fe‘llar gapda inkorni, bo‘lishli fe‘llar tasdiqni ifodalashga xizmat qiladi. Gapda bu farqning yo‘qolishi, ya‘ni bo‘lishsiz shakldagi fe‘llarning ham tasdiqni ifodalashi ularning neytrallashuvini ko‘rsatadi.

Neytrallashuv hodisasi fe‘llarning buyruq-istak maylidagi boshqa shakllarida ham kuzatiladi. Masalan, quyidagi gaplarda buyruq-istak maylining -*masin* affiksli bo‘lishsiz shakllari bo‘lishli shakliga nisbatan zidlanish belgisini yo‘qotib neytrallashgan:

1. *Alplar qanchalar bosamiz **deyishmasin** “Tur! Tur!” deb turardi.* (I.Sulton. “Bilga hoqon”)

*Alplar qanchalar bosamiz **deyishsa ham**, “Tur! Tur!” deb turardi.*

2. *Bu shunga dalolatki, bir mulkning yagona shaxsi har qancha davlatmandu **olim bo‘lmasin**, har qancha saxovat **ko‘rsatmasin**, bir o‘zi bu ijtimoiy yechimlarni hal etish uddasidan chiqolmaydi!* (A.Fitrat. “Najot yo‘li”)

*Bu shunga dalolatki, bir mulkning yagona shaxsi har qancha davlatmandu **olim bo‘lsa ham**, har qancha saxovat **ko‘rsatsa-da**, bir o‘zi bu ijtimoiy yechimlarni hal etish uddasidan chiqolmaydi!*

Xuddi shunday, bo‘lishli shakldagi bu kabi fe‘llar bo‘lishsiz shaklidagi ziddi bilan erkin almashinib qo‘llana oladigan barcha holatlarda bir-biriga nisbatan zidlanish belgisini yo‘qotib, neytrallashganligi anglashiladi. Qiyoslang:

*Ammo, vatanimizni jaholat xarob qildi, g‘aflat dinimizni zaif qildi, deb har qancha faryod **ursangiz ham**, qilchalik g‘am chekmaydilar.* (A.Fitrat. “Najot yo‘li”)

*Ammo, vatanimizni jaholat xarob qildi, g‘aflat dinimizni zaif qildi, deb har qancha faryod **urmang**, qilchalik g‘am chekmaydilar.*

Demak, fe‘llarning turli grammatik shakllari gap tarkibida bo‘lishsiz shaklda qo‘llanganda muayyan omillar hisobiga bo‘lishli shakli bilan zidlanish belgisini yo‘qotib, neytrallashishi mumkin.

Til birliklarining nutq jarayonida neytrallashuviga, qayd etilganidek, turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida qayd etilgan bo‘lishsiz shakldagi ravishdoshlarning neytrallashuviga nutq egasining kommunikativ maqsadini amalga oshirishga yo‘naltirilgan *-ma* affiksining ikkilamchi vazifasi sabab bo‘lganligi ko‘rsatildi.

Til birliklarining neytrallashuviga maxsus leksik birliklar, kontekst, vaziyat kabi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, *har nima* (*har nimani, har narsani*) belgilash va *uni-buni* ko‘rsatish olmoshlarining zidlanish belgisi yo‘qolib, neytrallashuviga bu olmoshlarning nutqda qanday predmetga ishora qilayotganligi muhim o‘rin tutadi. Quyidagi gapni tahlil qilamiz: ***Har nimani gapiraverma. – Uni-buni gapiraverma.***

O‘zbek tilida *har nima* olmoshi umumdan ajratilgan narsa-predmetga ishora qilish vazifasini bajaradi. Ammo «*Har nimani gapiraverma*» misolida gapirish harakati *har nima* olmoshi bevosita ishora qilgan narsa-predmetga nisbatan qo‘llanmagan. Bu gapda *har nima* olmoshi turli predmetlar (*gap, xabar kabilar*)ga ishora qiladi. Shu sababli bu olmosh «turli narsalar» ma’nosini anglatuvchi *uni-buni* olmoshi bilan erkin almashinib qo‘llana oladi”. [5]

Anglashiladiki, neytrallashuv *har nima* olmoshining qanday vazifa bajarayotganligi, nimaga ishora qilayotganligi bilan bog‘liq holda yuz beradi.

Bo‘lishsiz fe‘llarning neytrallashuvida ham ba’zan ayrim leksik birliklarning roli sezilarli bo‘ladi. Masalan, *Maqsud, biz tashlab chiqqan ona diyori ohanrabodek o‘ziga qanchalar chorlamasin, u yoqda siz aziz tug‘ishganlarimiz ko‘zlarimiz to‘rt bo‘lib, yo‘llarimizga qancha ko‘z tutmanglar, hijratni ixtiyor etdik.* (M.Mansur. «Judolik diyori») gapida *qanchalar* leksemasining ta’sirida *chorlamasin* fe‘li, *ko‘z tutmanglar* iborasi inkorni ifodalamaydi. Aksincha,

ular bu so‘z ta‘sirida tasdiqni ta‘sirchan ifodalash vazifasini bajaradi.

Berilgan gapda qo‘llangan *qanchalar* leksemasi *nihoyatda ko‘p* ma‘nosini ifodalaydi. *Qanchalar chorlamasin* birikmasidan miqdor bildiruvchi *ko‘p* so‘zi tushib qolganligi sezilib turibdi. *Qanchalar* olmoshi semantik jihatdan ko‘plik semasiga ega bo‘lganligi bois ham *ko‘p* leksemasi bilan birika oladi.

Mantiqan yondashganda *qanchalar ko‘p* birikmasining tasdiqni anglatuvchi fe‘l kesim bilan bog‘lanishi to‘g‘ri. Bu birikmaga semantik jihatdan zid bo‘lgan *unchalar (unchalik) ko‘p* birikmasi esa inkor ifodalovchi fe‘l kesim bilan bog‘lanadi. Qiyoslang: *Qanchalar ko‘p o‘qiydi. – Unchalar ko‘p o‘qimaydi.*

Demak, *qanchalar ko‘p* birikmasi bo‘lishsiz shakldagi fe‘l kesimga bog‘langanda gapdan inkor emas, tasdiq ma‘nosi anglashiladi. Bunday holatda ushbu fe‘l kesim ikkilamchi vazifada, ya‘ni tasdiqni ifodalash uchun qo‘llanadi. Bu holat *qanchalar ko‘p* birikmasi bilan bog‘langan bo‘lishsiz shakldagi fe‘llarning zidlanish belgisini yo‘kotib, neytrallashuviga sabab bo‘ladi.

Bu jarayonni A.Nurmonov juda asosli tarzda quyidagicha izohlab bergan: “Yuqoridagi konstruksiyalarni transpozitsiyaga uchratayotgan vosita *qancha, qanchalik* so‘roq olmoshlaridir. Chunki bu olmoshlar belgining ortiqligini, harakatning takroriyiligini ko‘rsatuvchi semaga ega bo‘lib, shu semaga ega bo‘la oladigan so‘zlargagina bog‘lana oladi. Shuning uchun ham *qanchalik* belgining ortiq miqdorini ifodalovchi *ko‘p* so‘zi bilan bog‘lanib keladi. *Ko‘p* leksemasining o‘zi ham *qanchalik* leksemasi bilan birgalikda kesimning (uning qanday formada turishidan qat‘i nazar) tasdiq ma‘no ifodalashini taqozo etadi. Inkor mazmunni ifodalash uchun esa *qanchalik* leksemasini mazmunan unga zid bo‘lgan *unchalik* leksemasi bilan almashtirishga to‘g‘ri keladi”. [6]

Olimning xulosasiga ko‘ra, “Pⁿon_{bon} 1+V *masin* [7] tipidagi konstruksiyalarda tasdiq-inkor belgisiga ko‘ra oppozitsiya neytrallashgan bo‘lib, bu hodisaga konstruksiya tarkibida ikkilamchi funksiyadagi Pⁿon_{bon} ning qatnashuvi va buning natijasida butun konstruksiyaning transpozitiv funksiya bajarishga o‘tishi sababchi bo‘lgan”. [8]

Bu holat quyidagi gapda ham kuzatiladi:

Xayri qancha urinmasin, Hasan uning tasavvuridan surbetlik qilib nari ketmas edi. (S.Ahmad. «Tanlangan asarlar»)

Berilgan gapdan Xayrining ko‘p uringanligi ma‘nosi anglashiladi.

Bunday gaplarda *qancha* so‘zi o‘rnida *ko‘p* so‘zining qo‘llanishi ham kuzatiladi. Qiyoslang: *Xayri ko‘p urinmasin, Hasan uning tasavvuridan surbetlik qilib nari ketmas edi.*

Yuqorida aytib o'tilganidek, *qancha* so'zi semantikasida *ko'p* semasi bo'lganligi bois nutqda ulardan birini qo'llash mumkin bo'ladi. *Qancha* so'zi *qanchalar*, *qanchalik* tarzida ishlatilganda ma'no yanada kuchayadi.

Ba'zan bu vazifada *ko'pchilikka* ishora qiluvchi *kimlar*, *kim-kimlar* olmoshlari ham kelishi mumkin. Bu olmoshlar ta'sirida bo'lishsiz shakldagi fe'l kesim tasdiqni ifodalashga o'tadi. Masalan: *Bo'lmasa, hech kim nazarga ilmas bu bandargohda kimlar ishlab ketmagan, bu qirg'oqni qancha suvlar yuvib o'tmagan.* (M.Mansur. «Judolik diyori»)

Xullas, o'zbek tilida bo'lishsiz fe'llar nutqda ikkilamchi vazifada, ya'ni tasdiqni ifodalashda qo'llanganda bo'lishli shakldagi ziddi bilan doimiy oppozitsiyasini yo'qotib, u bilan neytral holga kelib qoladi.

XULOSA

1. Fe'ning *-guncha* affiksli shakli *-ma+-guncha* affiksli shakli bilan, *-b (-ib)* affiksli shakli *-may*, *-mas+-dan* affiksli shakllari bilan bo'lishli-bo'lishsizlikni ifodalashiga ko'ra ziddlik munosabatida bo'ladi. Ammo ba'zan nutqda bo'lishsizlikni ifodalovchi *-maguncha*, *-may*, *-masdan* shakllari bo'lishli shakllariga nisbatan zidlanishga asos bo'lgan belgisini yo'qotib, neytrallashadi.

2. Ravishdoshning *-may*, *-mas+-dan* affiksli shakllari har qanday holatda ham bo'lishli shakldagi *-b (-ib)* ravishdoshi bilan yoki ravishdoshning *-guncha*, *-ma+-guncha* affiksli turlari har doim ham o'zaro doimiy oppozitsiyasini yo'qotavermaydi.

3. Neytrallashuv hodisasiga bo'lishsiz shakldagi ravishdoshning ikkilamchi vazifada qo'llanishi sabab bo'ladi. Fe'llarning nutqda neytrallashuviga maxsus leksik birliklar, kontekst, nutq vaziyati kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

4. Transpozitsiya bir so'z turkumining kontekstda boshqa so'z turkumi vazifasida kelishi bo'lib, o'zbek tilida ayrim mustaqil va yordamchi so'zlarning gapda ikkilamchi vazifa bajarishi natijasida yuz beradi. Bu hodisa ot, sifat, son turkumiga mansub morfologik birliklarda keng tarqalgan.

REFERENCES

1. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М., 1960; Богораз–Бухман Л.И. Фонологическая нейтрализация на уровне дифферентов и фонем в русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – М., 1963; Виноградов В.А. Некоторые вопросы теории фонологических оппозиций и нейтрализации // Проблемы лингвистического анализа. Фонология. Грамматика. Лексикология. – М., 1966. – С. 13-

- 21; Бельдиян В.М. Звуковая система современного русского языка и вопросы нейтрализации фонем: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1968; Журавлёв В.К. К проблеме нейтрализации фонологических оппозиций // Вопросы языкознания. 1972. – №3. – С. 36-49; Шу муаллиф. Диахроническая фонология. – М., 1986; А.Гуломов. О сопутствующих явлениях при аффиксации в узбекском языке: Научные труды ТашГУ, вып. 211. – Ташкент, 1963. – С. 45-95; Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1990; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 35-44.
2. Нурмонова Д. Ўзбек тилида парадигма аъзолари ўртасидаги зидланишларнинг нейтраллашуви: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 22 б.
3. Nurmonov A. Sintaktik konstruksiyalarning tasdiq-inkor belgisiga ko'ra oppozitsiyasining neytrallashuvi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1982. – №1. – B.50-51.
4. Nurmonov A. Ko'rsatilgan maqola. – B.50-51.
5. Eshonqulov O. O'zbek tili olmoshlari oppozitsiyasida neytrallashuv / Xorijiy tillarni o'qitishning buguni va ertasi. Xalqaro ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: O'zDJTU, 2016. – B. 44.
6. Nurmonov A. Ko'rsatilgan maqola. – B.50-51.
7. P^ron_{bon} – so'roq olmoshlarining simvoli, V– fe'l simvoli.
8. Nurmonov A. Ko'rsatilgan maqola. – B.50-51.

KO'RISHDA NUQSONI MAVJUD O'QUVCHILARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Abdulvosit Xurramov

Toshkent shahar, Yashnabad tumani 77-sonli ko'zi ojiz bolalar maxsus internat maktab o'qituvchisi

Alish'er Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti f.f.d. dotsent

Z.Q.Teshaboyeva taqrizi asosida

abdulvosithurramov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ko'rishda nuqson mavjud o'quvchilarda ingliz tilini o'rgatishning asosiy xususiyatlari ochib berilgan. Bundan tashqari ta'lim va tarbiya texnologiyalarining o'ziga xos omillari ilmiy nuqtai nazardan ochib berilgan. Хысчан, ingliz tilini o'rganishning bir qator mezonlari tahlil qilingan. Shuningdek ta'lim texnologiyalarining hozirgi kundagi turli darajadagi metodlari talqin qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, ta'lim-tarbiya jarayoni, zamonaviy pedagogik texnologiya, ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, o'qitish texnologiyasi, ta'lim texnologiyasi, ta'lim metodi, o'qitish va tarbiyaning ajralmasligi, pedagogik tizim loyihasi, motivatsion metodlar.

ABSTRACT

This article reveals the main features of teaching English to visually impaired students. In addition, the unique factors of education and training technologies are revealed from a scientific point of view. In particular, a number of criteria for learning English were analyzed. Also, the current methods of educational technologies at different levels are interpreted.

Keywords: pedagogical technology, educational process, modern pedagogical technology, technologicalization of the educational system, teaching technology, educational technology, educational method, inseparability of teaching and upbringing, pedagogical system project, motivational methods.

KIRISH

Hozirgi davrga kelib dunyo olimlari insonning eng ichki olami bo'lgan ta'lim va tarbiya jarayoniga katta e'tibor qaratmoqda, deb ta'kidlash mumkin. Xususan, rivojlanib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama komil inson bo'lib voyaga yetishi shubhasiz, uning



ta'lim va u taolayotgan tarbiya jarayoniga bog'lab o'rganishni davrning o'zi taqazo qilmoqda. Bu borada, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagogic texnologiyalarning o'rni va samarasi beqiyos darajada, deb aytish mumkin. Shuningdek, ko'rishda bir qator muammosi bo'lgan o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishda sifatli ta'lim olishi va ularga ijtimoiy hayotlarida qo'llay olishlari uchun bir qancha pedagogic texnologiyalar yaratilgan. Xususan, ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar ta'lim va tarbiyasi o'z o'rniga qo'yilgan sinflarda turli xil nuqsondagi qo'shimcha kasalliklari bo'lgan o'quvchilarning ta'lim olishi pedagoglarning o'quv mashg'ulotini tashkillashtirish jarayonida ularning dunyoqarashiga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Adabiyotlar tahliliga ko'ra, bu jarayonda pedagogic texnologiyalar o'zida quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi: 1) Pedagogic texnologiya pedagogic jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi. 2) Pedagogic texnologiya didaktik, tarbiyaviy xarakterdagi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etishga oid nazariy va amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo'ladi. 3) Pedagogic texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir. 4) Pedagogic texnologiya yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya'ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi. 5) Pedagogic texnologiya - shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lib, muayyan texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qat'iy, me'yoriy (standart) talablar qo'yilmaydi. 6) Har bir pedagog u faoliyat olib yuritayotgan ta'lim-tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart-sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega. 7) Pedagogic texnologiya o'zida ta'lim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti (kamolot) birligini ifoda etadi [Ro'ziyeva D. 2019, - B.43.].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Darhaqiqat, hozirgi vaqtda loyiha asosida o'qitish bolalarni hamkorlik qilishga o'rgatishi, hamkorlik qilishni o'rganish va hamdardlik qobiliyati kabi axloqiy qadriyatlarni tarbiyalaydi, ijodkorlikni shakllantiradi va o'quvchilarni faollashtiradi. Umuman olganda, loyihani o'qitish jarayonida o'qitish jarayonida o'qitish va tarbiyaning ajralmasligi kuzatiladi [Xotamov J. 2021. B.-22]. Shuningdek, ko'zida nuqsoni mavjud o'quvchilarda ingliz tilini o'rganishning samaradorligini oshirishda ta'lim olishning bir qancha texnologiyalari faol rivojlanmoqda. Jumladan, bunda ta'lim texnologiyalari pedagogika poydevoriga tayanadi va pedagogic metodologiyada o'z o'rnini aniq belgilaydi" [Подкасистого И. 2002. -С.18.] Shunga asoslangan ravishda

ta'kidlash lozimki, sog'lom insonlarga qaraganda ingliz tilini ko'zi o'zida bolalarda o'qitishda har bir pedagog quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishlari lozim:

1. Ta'lim olayotgan nuqsoni mavjud o'quvchilarning ma'naviy olamidagi orzu-istaklarini to'liq darajada o'rganish;

2. Yuqoridagi qiziqish va istaklarga asoslanib ular o'rganayotgan ingliz tilini motivatsion metodlar va texnologiyalar asosida tashkil qilish;

3. Ta'lim olayotgan sog'lom va nuqsoni mavjud o'quvchilar o'rtasida sog'lom ijtimoiy muhitni tashkillashtirish;

4. Ularga joriy qilinayotgan ingliz tilini o'rganishdagi pedagogik texnologiyalar vositalarni ularga to'g'ri keladigan va ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir etmaydiganlarni amaliyotga kengroq qo'llashni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, hozirgi davrda yangi pedagogic texnologiyalarni yaratish uchun ingliz tilini o'qitishning kompleks va sinxron darajada darajada zamonaviy metodlarda tashkillashtirish lozimdir. Shunga ko'ra, asosiy mohiyatni ko'rsatish ba uning alohida takrorlanmas darajadagi xususiyatini, o'ziga xos pedagogik jihatlari bilan tushuntirilishi kerak. Yangi ishlab chiqilayotgan pedagogik o'qitish texnologiyasining so'ngi komponenti o'quv materiallari shakliga qo'yiladigan o'zgartirilgan ta'lablarni hisobga olishi va multimedia, dinamizm, ya'ni innovatsion o'qitish metodlariga tayangan holda faoliyat olib borilishi zarur.

Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tadbiiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi" deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi [Беспалько В.Г. 1989. - С.6.]. So'nggi o'n yilliklar davomida nutqimizda "pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya", "o'qitish texnologiyasi" kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda. Nuqsoni mavjud o'quvchilarning mustaqil bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish maqsadida kerakli o'zgartirishklarni tezkorlik bilan kiritish va materiallarni muntazam yangilab borish zarur. "Bunday o'zgarishlarni birgalikda amalga oshirishga imkon beradigan va o'zari bog'liqlikni ta'minlaydigan uslubiy vositalar, yangi o'qitish texnologiyalarining ko'rsatilgan tarkibiy qismi pedagogik dizayndir." [СамДЧТИ, 2019. 7-Б].

Zero, yuqorida qayd etib o'tilganidek, nuqsoni mavjud o'quvchilarda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish g'oyasi G'arbiy Yevropa va AQSHda juda keng miqyosda shakllangan. Ushbu mamlakatlarda shaxsga ilmiy bilimlarni berish jarayoni "ta'lim jarayoni" sifatida nomlanadi, shaxsga bilimlar berish, uning ma'lumotini oshirish, ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fanlar majmui "Metodika" deb yuritiladi. Shuningdek, ingliz tili darslarini tashkil etish jarayonida o'rganilayotgan o'quv

dasturlarini kengroq tahlil etgan holda nuqsoni mavjud o'quvchilarning bilim va malakalarini rivojlantirishga o'ziga xos uslubda imkoniyat yaratilishi lozimdir. By борада, ingliz tilini o'rganishda o'quvchilarning qobiliyatiga, o'quv o'zlashtirish darajasiga hamda tilning fonetik, leksikologik va morfologik qurilishiga asosiy e'tibor berilishi zarur. Ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan o'quvchilarda ingliz tili fanini o'qitishda sinf ishtirokchilarining til o'rganish borasidagi o'quv motivatsiyasini yuqori darajaga ko'tarish pedagogning mahoratiga bog'liq bo'ladi. Tashkil etilayotgan o'quv mashg'ulotlarining aniq maqsadlarni to'g'ri qo'yilganligi o'quvchilarning til o'rganish borasidagi qiziqishlarini oshirish eng avvalo ta'lim sub'ektlari faoliyati va ta'lim texnologiyalariga bog'liqdir. Xususan, ingliz tilini ko'zi o'z o'quvchilarga o'qitishda internet orqali ta'lim berish nihoyatda samarali natijalarni beradi. Chunki. O'rganilayotgan har bir materilga oid audio va video ma'lumotlar joylashtirilgan bo'lib ta'lim oluvchilarning qo'shimcha manbalardan maqsadli foydalanishga sharoit yaratadi. Har bir o'quvchida xorijiy tilni o'rganishda til normalariga qat'iy bo'ysungan ravishda o'rganishi bu avvalambor pedagogning bilim, ko'nikma va tajribasiga bevosita bog'liqdir. Agar pedagoglarimiz xorijiy tillarni belgilanga norma avvalambor o'quv dasturi asosida muvaffaqiyatli amalga oshirsa, o'ylaymizki, shubhasiz o'zining natijalariga erishadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuningdek, nuqsoni mavjud o'quvchilarda sog'lom ruhiyatni shakllanishida, ayniqsa, ingliz tilini o'rganish borasida o'zaro muloqotning internet yoki onlayn muloqot orqali yo'lga qo'yilishi ta'lim oluvchilarda xorijiy tillarni talaffuz qilish borasida o'ziga xos ko'nikmalar yuzaga kelishiga olib kelishini ta'kidlash mumkin. Bunda pedagog-olim N.Ballo ingliz tilini o'rgatishda pedagogik texnologiyaning mohiyatini: - ta'lim jarayoniga topshiriqli yondashuv (T.N.Ballo); - bosqichli o'qitish (L.V.Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov)[Исламгулова С.К. 2003.-С.23.] - mazmunli umumlashma (G.K.Selevko); - barcha jihatlariga ko'ra o'ziga xos, samarali natijalarni qo'lga kiritish imkonini beruvchi pedagogik tizimni tashkil etish bilan bog'liq holda ta'lim tizimi doirasida olib borilayotgan tadqiqot nazariyasi va amaliyotining muayyan tarmog'i sifatida aytib o'tishganlar. Xususan, ingliz tilida Internet yordamida bir qator didaktik muammolarni xal qilish mumkin: global tarmoq materiallaridan foydalanib o'qish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish; maktab o'quvchilarini yozish qobiliyatini oshirish; tinglovchilarning so'z boyliklarini to'ldirish, ta'lim oluvchilarning ingliz tilini o'rganish motivatsiyasini shakllantirishdan iborat. Qolaversa, bu kabi ishlar maktab o'quvchilarini bilim doirasini kengaytirish, ingliz tilida

so'zlashadigan davlatlarda tengdoshlari bilan ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish va qo'llab-quvvatlash uchun internet-texnologiyalari imkoniyatlarini o'rganish ko'zda tutilgan. Shu jihatdan kelib chiqib, ingliz tilini o'rganishda pedagogik texnologiya masalalarini tadqiq etishda ham umumiy ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari faol qo'llaniladi [Inovatov U., Mushmov A., Usmonboev M., Inog'omova U. 2012.- B.64-68.]. Shuni aytib o'tish joizki, ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona to'xtamga kelinmagan.

Shuningdek, ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa, AQSHda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Qolaversa, ingliz tili o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar ko'rinishida quydagicha texnologiyani qo'llash mumkin: o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar va audi-eshitish qurilmalari yordamida tushuntirish kabilar ingliz tili samaradorligini oshirishga yordam beradi, deb aytsak bo'ladi.

Xususan, ko'pchilik o'z tilining grammatikasini yaxshi bilmaydi, lekin ba'zi sabablarga ko'ra ular o'rganayotgan xatolardan qochishga moyildir. O'quvchi tovushlarni, harflarni va tiftonglarni to'g'ri talaffuz qilishga intila boshlaydi. Bu ko'plab ingliz qo'shiqlarini tinglashga va va filmlarni tarjimsiz bilimlarini oshirmasdan tomosha qilishga olib keladi [Саиджасимова, А. 2022. -С. 232-234] degan yondoshuvga qo'shilish mumkin. Chunki, ingliz tili grammatikasi va tovushlarini noto'g'ri talaffuz qilish va uni bilmaslik tilni o'rganishda katta xatolarga olib kelishi aniqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, tilni o'rganishda pedagogik texnologiyalar o'zining texnologik yondashuvi, texnologik madaniyati, pedagogik jarayonlari, tarbiya maqsadi, texnologik tizimi, shaxsga yo'naltirilgan ta'limi, pedagogik tashxislari, interfaol metodlari va bosh bir qator kategoriyalari bilan nuqsoni mavjud o'quvchilarga tilni o'rganishda katta yordam berishini bilib oldik. Suhbat, anketa, intervyu, pedagogik tahlil, pedagogik kuzatish, modellashtirish, bolalar ijodini o'rganish, test (predmetli va psixologik testlar), ta'lim muassasasi hujjatlarini o'rganish, pedagogik tajriba, ekspert baholash, matematik-statistik tahlil kabi ilmiy-pedagogik metodlar pedagogik texnologiya masalalarini o'rganishga yordam beradi. Bu borada, yoshlarimizni

ma'nan yetuk bo'lishi, xorijiy tillarda erkin gaplasha olishi, biror bir kasbni puxta o'rganishi bugungi davrning eng muhim ustuvor mezonlaridan deb ta'kidlasak also mubolag'a bo'lmaydi. Shunga ko'ra, ushbu mezonlarga asoslangan holda nuqsoni mavjud yoshlarni eng yangi pedagogik texnologiyalar bilan xorijiy tillarni o'rgatish va shu asosda tarbiyalash биз kelgusi pedagoglarning oliy maqsadiga aylanishi zarur.

REFERENCES

1. Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019. 43-b.
2. Xotamov J. Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. -Toshkent: 2021.
3. Подкасистого И. Педагогика. -Москва, 2002. - С. 18.
4. Беспалько В.Г. Слагаемые педагогической технологии. - Москва: Педагогика, 1989. - С.6.
- 5.«Хорижий тилларни ўрганишнинг инновацион технологиялари» мавзусидаги олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари миқёсидаги халқаро илмий-амалий анжуман. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2019. 7-Б
6. Исламгулова С.К. Технологичация процесса обучения в школе: теория и опыт - Алматы: Творческая педагогика, 2003. - С.23.
7. Inovatov U., Mushmov A., Usmonbove M., Inog'omova U. Pedagogika 1000 ta savolga 1000 ta javob. - Toshkent: Nizomiv nomidagi Toshkent davlat pedagogika umversiteti, 2012. 64-68 b.
8. Саидкасимова, А.С. Инглиз тилини масофадан ўрганишдаги асосий муаммолар / А. С. Саидкасимова. — Текст: непосредственный // Молодой учены: 2022

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, TA’LIM VA TARBIYA TEXNOLOGIYALARINING QONUNIYATLARI

Durdona Naimova

Jizzax viloyati Do‘stlik tumani 20-umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘qituvchisi
d.naimova@gmail.uz

Buxoro davlat universiteti f.f.d. prof. D.N.Yo‘ldosheva taqrizi asosida

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta‘lim texnologiyalari fanining asosiy qonuniyatlari falsafiy jihatdan yoritib berilgan. Bundan tashqari G‘arb davlatlaridagi ta‘lim va tarbiya texnologiyalarining o‘ziga xos qonuniyatlari ochib berilgan. XucycaH, ta‘lim texnologiyasining asosiy rivojlanish davrlari tahlil qilingan. Shuningdek ta‘lim texnologiyalarining hozirgi kundagi turli darajadagi metodlari ilmiy nuqtai nazardan talqin qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, pedagogik jarayon, ta‘lim-tarbiya jarayoni, pedagogika, zamonaviy pedagogik texnologiya, o‘qitish texnologiyasi, ta‘lim texnologiyasi, ta‘lim metodi, ta‘lim metodikasi, pedagogik texnika, pedagogik-texnologik jarayon.

PECULIARITIES OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY, LAWS OF EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

ABSTRACT

In this article, the main laws of the science of educational technologies are explained philosophically. In addition, the specific laws of education and training technologies in Western countries are revealed. In particular, the main periods of development of educational technology were analyzed. Also, current methods of educational technologies at different levels are interpreted from a scientific point of view.

Keywords: pedagogical technology, pedagogical process, educational process, pedagogy, modern pedagogical technology, teaching technology, educational technology, educational method, educational methodology, pedagogical technique, pedagogical-technological process.

KIRISH

Pedagogik texnologiya o'zida quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi: 1) Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi. 2) Pedagogik texnologiya didaktik, tarbiyaviy xarakterdagi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etishga oid nazariy va amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo'ladi. 3) Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir. 4) Pedagogik texnologiya yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya'ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi. 5) Pedagogik texnologiya - shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lib, muayyan texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qat'iy, me'yoriy (standart) talablar qo'yilmaydi. 6) Har bir pedagog u faoliyat olib yuritayotgan ta'lim-tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart-sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega. 7) Pedagogik texnologiya o'zida ta'lim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti (kamolot) birligini ifoda etadi [Ro'ziyeva D. 2019, - B.43.].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Garchi "Pedagogik texnologiya" nazariyasi g'oyalarining asoslanganiga qariyb bir asr bo'lgan bo'lsa, o'quv fani sifatida respublika oliy ta'lim muassalarida o'qitilayotganiga unchalik ko'p vaqt bo'lgani yo'q. "Pedagogik texnologiya" fani amaliy-pedagogik fan sifatida o'tgan asrning 90-yillarida shakllandi. U amaliy-pedagogik fan sifatida to'la ravishda "Pedagogika" poydevoriga tayanadi va pedagogik metodologiyada o'z o'rnini aniq belgilaydi" [Подкасистого И. 2002. - С.18.] Bugungi kunda fan asoslari o'zida eng ilg'or pedagogik qarashlarning dinamik rivojini aks ettiradi. O'tgan vaqt ichida ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari o'rganildi, ta'lim va tarbiya jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish natijalari tahlil qilinib, muayyan xulosalarga kelindi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimiga ham ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol tatbiq etishga e'tibor qaratilib, bu borada sezilarli yutuqlarga ham erishildi.

Pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan "pedagogik texnologiya" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tadbiiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi" deya ta'riflaydi

hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi [Беспалько В.Г. 1989. - С.6.]. N.F.Talizina esa pedagogik texnologiyani "fan va amaliyot oralig'ida muayyan tamoyillarni olg'a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalarni hal etishga yo'naltirgan mustaqil fan" [Талызина Н.Ф. 1984. -С.13.] bo'lishi lozimligini qayd etadi va h.k. So'nggi o'n yilliklar davomida nutqimizda "pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya", "o'qitish texnologiyasi" kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda. Aksariyat pedagoglar "ta'lim texnologiyasi" va "pedagogik texnologiya" tushunchalari mazmunan bir ma'noni anglatishini aytadi. Bunday yondashuv u qadar to'g'ri emas. Zero, yuqorida qayd etib o'tilganidek, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish g'oyasi dastlab G'arbiy Yevropa va AQSHda shakllangan. Ularda "Pedagogika" fani mavjud emas, shu bois "pedagogik faoliyat", "pedagogik texnologiya" tushunchasi ham iste'molda yo'q. Ushbu mamlakatlarda shaxsga ilmiy bilimlarni berish jarayoni "ta'lim jarayoni" sifatida nomlanadi, shaxsga bilimlar berish, uning ma'lumotini oshirish, ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fanlar majmui "Metodika" deb yuritiladi. Metodika fanlarini o'qitishda asosiy e'tibor ta'lim sifatini yaxshilash, uning samaradorligini ta'minlashga qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim amaliyotida o'qitilib kelinayotgan "Pedagogika" fanining predmeti shaxsni shakllantirish, uning kamolotini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayonining mazmunidan iborat. Ya'ni, shaxs kamoloti ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonining natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mualliflarning "pedagogik texnologiya" tushunchasini yoritishga yondashuvlari ham turlicha. Masalan: "Pedagogik texnologiya" tushunchasining mohiyati: - ta'lim jarayoniga topshiriqli yondashuv (T.N.Ballo); - bosqichli o'qitish (L.V.Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov)[Исламгулова С.К. 2003.-С.23.] - mazmunli umumlashma (G.K.Selevko); - barcha jihatlariga ko'ra o'ziga xos, samarali natijalarni qo'lga kiritish imkonini beruvchi pedagogik tizimni tashkil etish bilan bog'liq holda ta'lim tizimi doirasida olib borilayotgan tadqiqot nazariyasi va amaliyotining muayyan tarmog'i (P.Mitchel); - texnologik loyihaga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish usuli (S.K.Islamgulova); - ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va b.ni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va aniqlashning izchil metodi (YUNESKO); - pedagogik maqsadlarga erishish yo'lida foydalaniladigan barcha

shaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig'indisi va ularning amal qilish tartibi (M.V.Klarin); - ta'lim jarayoniga nisbatan o'ziga xos yondashuv; - ijtimoiy-muhandislik tafakkurining pedagogik ifodasi, texnokratik ongning pedagogikaga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standard (B.L.Farberman); - didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishish, ta'lim jarayonini avvaldan loyihalashtirish (U.N.Nishonaliyev); - pedagogning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoit va izchillikda ta'sir ko'rsatishi va mazkur faoliyatning mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayoni (N.Saidahmedov); - muayyan vaziyatlarda pedagogik masalalarni yechishning optimal usuli (A.Kushnir); - kutilayotgan natijaga erishish jarayonining tavsifi (I.P. Volkov). Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida ta'lim jarayoni e'tirof etilsa, biz shaxsning shakllanishida talim hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beramiz. Aksariyat hollarda esa tarbiya jarayoni bu borada ustuvor bo'lishi lozim, chunki o'zida axloqiy xislatlarni namoyon eta olgan shaxsgina ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ular mazmunining ijobiy xususiyat kasb etishini taminlaydi, axloqli insongina ta'lim (bilim)ni qadrlay oladi, zero, axloqning asosiy kategoriyalaridan ham bilimlilik sanaladi, degan g'oyani ilgari suramiz. Shunday ekan, bu o'rinda "pedagogik texnologiya" tushunchasining qo'llanilishi, shuningdek, asosiy e'tiborni faqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etishgagina qaratmay, balki ham ta'lim, ham tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga birdek qaratish lozimdir.

"Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi "ta'lim metodikasi" tushunchasiga nisbatan kengdir. Ta'lim metodi - o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan pedagog va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli. Ta'lim texnologiyasi - ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish sifatida qaralib kelingan. Lug'aviy jihatdan "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi (ing. "An educational technology") - ta'lim jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etishga doir ma'lumotlar beruvchi fan, ta'limot ma'nosini anglatadi. Pedagogik texnologiya masalalarini tadqiq etishda ham umumiy ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari faol qo'llaniladi [Inovatov U., Mushmov A., Usmonboev M., Inog'omova U. 2012.- B.64-68.]. Shuni aytib o'tish joizki, ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-

g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona to'xtamga kelinmagan.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa, AQSHda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rta tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lim texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Bu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik texnika" (yoki "ta'lim texnikasi") tushunchasi "o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir, deya baholandi.

XX asming 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor magistrlik auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini "texnologiyalashtirish"ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi. 60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rib boshlandi [Ro'ziyeva D. 2019. – B.16.].

Ta'lim texnologiyalari umumiy asoslarining negizi bo'lgan qonuniyatlardan xabardor bo'lish uchun "qonuniyat" tushunchasining mohiyatini yetarli darajada anglab olish talab qilinadi. Shunga ko'ra pedagogikada har qanday fanning qonuniyatlarini yoritishda tizimli tarkibiy yondashuv uning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, tizimli-tarkibiy yondashuv pedagogik-texnologik tizimda kechadigan ketma-ket doimiy takrorlanib turuvchi, muhim, zarur, barqaror aloqalarini yoritish imkonini beradi [Shukruna B.2008.-B.332.]. "Pedagogik texnologiya" fani tomonidan o'rganiladigan yaxlit pedagogik jarayon qonuniyatlarining namoyon bo'lishi uchun quyidagi omillar o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish zarur: 1) pedagogik jarayon

The work on white rats had shown the high antiinflammatory activity of the N-(M-iodbenzoil)-N¹-metionil – thiourea. It pat down both the exudative anol proliferative phases of inflammation aswall, which caused by Selye method.

Due to these features it surpasses much butadion and indomethacin.

Keywords: Thiourea derivatives, inflammation, exudatio, proliferation, butadion, indomethacin.

ВВЕДЕНИЕ

Нестероидные противовоспалительные препараты (НПВП), являются наиболее широко и часто назначаемой группой лекарственных средств, когда необходимо уменьшить воспаление, понизить температуру или ослабить боль [1, 375-378; 2, 769-779].

Несмотря на высокую эффективность НПВП. Их использование все же ассоциируется с широким спектром побочных реакций, связанных в большинстве случаев с поражением желудочно-кишечного тракта, печени, почек, кожи и др [3, 101-133; 4,167-179]. В связи с этим поиск и изучение новых высокоэффективных

противовоспалительных препаратов имеет важное практическое значение [5, 228-433].

Ранее нами установлено, что новые производные тиомочевины проявляют выраженный антогонизм в отношении «медиаторов воспаления» [6, 3-5].

Цель настоящей работы – изучение влияния N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил-тиомочевины на экссудативную и пролиферативную фазу воспаления.

МАТЕРИАЛ И МЕТОДЫ

Это соединение синтезировано на кафедре биоорганической и биологической химии Ташкентской медицинской академии и представляет собой порошок желтоватого цвета плохо растворимый в воде.

В связи с этим это вещество вводилось в виде суспензии на 3% крахмальном клейстере перорально с помощью металлического зонда.

Исследования проводили на 36 белых крысах обоего пола смешанной популяции массой 160-180 г.

Для сравнения были использованы известные нестероидные противовоспалительные средства бутадиян в дозе 100 мг/кг и индометацин 10 мг/кг.

Для одновременного изучения влияния препаратов на экссудативные и пролиферативные процессы была использована методика, предложенная Selye [7, 328]

На спине крыс удаляли шерсть в межлопаточной области и в подкожно-жировую клетчатку этой области вводили 20 мл воздуха, а затем через ту же иглу вводили 0,5% раствора скипидара в вазелиновом масле. На восьмые сутки карманную гранулему отсепарировали (под эфирным наркозом). Экссудат отсасывали шприцом, определяли массу мешка во влажном состоянии, высушивали его до постоянной массы и взвешивали в сухом виде. Определяли объём экссудата в мешке [7, 328].

Исследуемый препарат вводилось внутрь в дозах 25, 50 и 100 мг/кг в течение 7 дней один раз в сутки.

Животные контрольной группы получали в соответствующем объёме суспензии 3% крахмального клейстера.

Статистическую обработку проводили с помощью пакета программ Biostat 2009 по способу вариационной статистики с оценкой значимости характеристик $M \pm m$ и

различий рассматриваемых выборах по t-критерию Стьюдента.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Установлено, что N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил-тиомочевина оказывает выраженное антиэкссудативное действие. Если у контрольных крыс количество экссудата в гранулёмном мешке равнялась в среднем 1,65±0,016 мг, то у животных, получавших N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил-тиомочевину в дозе 25 мг/кг, количество экссудата было равно 1,30±0,025, в дозе 50 мг/кг – 0,87±0,014 мл, а в дозе 100 мг/кг – 0,66±0,011 мл (табл.1).

Таблица 1. Влияние N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил-тиомочевины, бутадиона и индометацина на экссудативную фазу воспаления (по Селье) у крыс при пероральном применении

Препарат	Количество животных в группе	Доза, мг/кг	Количество экссудата		Противоэкссудативный эффект по отношению к контролю, %	P
			мл	%		
Контроль	6	-	1,65±0,016	100	0	-
N-(М-йод-бензоил)-N ¹ -метионил-тиомочевина	6	25	1,30±0,025	78,7	21,3	<0,001
N-(М-йод-бензоил)-N ¹ -метионил-тиомочевина	6	50	0,87±0,014	52,7	47,3	<0,001
N-(М-йод-бензоил)-N ¹ -метионил-тиомочевина	6	100	0,66±0,011	40,0	60,0	<0,001
Бутадион	6	100	1,15±0,015	69,6	30,4	<0,001
Индометацин	6	10	0,99±0,034	60,0	40,0	<0,001

В тех же условиях бутадион и индометацин оказывали менее выраженное антиэкссудативное действие. В группе животных, получавших бутадион и индометацин, количество экссудата в гранулёмном мешке равнялось соответственно – 1,15±0,015 и 0,99±0,034 мл.

Под влиянием N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил-тиомочевины значительно подавляются и пролиферативные процессы. В контрольной группе масса гранулёмного мешка во влажном виде составляла, в среднем 3,59±0,021г, а под влиянием N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил-тиомочевины масса гранулёмного мешка во влажном виде равнялась: в дозе 25 мг/кг – 2,87±0,018 г, в дозе 50 мг/кг – 2,05±0,021 г, в дозе 100 мг/кг – 1,87±0,018 г.

Следовательно, N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил-тиомочевина уменьшает прирост массы гранулёмного мешка

во влажном виде в дозе 25 мг/кг – на 29,9%, в дозе 50 мг/кг – 40.3% и в дозе 100 мг/кг – 52,3%.

В аналогичных условиях под влиянием бутадиона и индометацина прирост массы гранулёмного мешка во влажном виде уменьшается на 26,8% и 36,0% соответственно (у животных получавших бутадион и индометацин, масса гранулёмного мешка составляла $2,63 \pm 0,026$ г и $2,30 \pm 0,227$ г соответственно). Следует отметить, что под влиянием N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил-тиомочевины наблюдается значительное уменьшение и сухого гранулёмного мешка (табл.2).

Таблица 2. Влияние N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил-тиомочевины, бутадиона и индометацина на пролиферативную фазу воспаления (по Селье) у крыс при пероральном введении

Препарат	Количество животных в группе	Доза, мг/кг	Масса грануляционной ткани во влажном виде		Антипролиферативный эффект, %	P	Масса грануляционной ткани после высушивания		Антипролиферативный эффект, %	P
			г	%			г	%		
Контроль	6	-	3,59±0,021	100	0	-	2,07±0,018	100	0	-
N-(М-йод-бензоил)-N ¹ -метионил-тиомочевина	6	25	2,87±0,018	79,9	20,1	<0,001	1,69±0,016	81,8	18,2	<0,001
N-(М-йод-бензоил)-N ¹ -метионил-тиомочевина	6	50	2,05±0,021	57,2	42,8	<0,001	1,30±0,01	62,9	37,1	<0,001
N-(М-йод-бензоил)-N ¹ -метионил-тиомочевина	6	100	1,87±0,018	52,1	47,9	<0,001	1,21±0,014	58,4	41,6	<0,001
Бутадион	6	100	2,63±0,026	73,2	26,8	<0,001	1,58±0,038	75,3	24,7	<0,001
Индометацин	6	10	2,30±0,227	64,0	36,0	<0,001	1,29±0,012	63,3	37,7	<0,001

Таким образом, на основании результатов последних двух серии экспериментов, можно сделать вывод что N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил - тиомочевина оказывает выраженное антиэкссудативное действие и в этом отношении в 1,4 раза превосходить бутадион и в 1,5 раза сильнее индометацина.

N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил-тиомочевина также выражено угнетает пролиферативные процессы воспаления и в этом отношении она в 1,8 раза сильнее бутадиона и 1,3 раза превосходит индометацин.

ВЫВОДЫ

1. N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил –тиомочевина оказывает выраженно угнетающее влияние на течение как экссудативной, так и пролиферативной фазы воспаления и в этом отношении она активнее бутадиона и индометацина.

2. N-(М-йодбензоил)-N¹-метионил-тиомочевина в качестве потенциальнопротивовоспалительного препарата представляет практический интерес.

REFERENCES

1. Насонов Е.Л. Применение нестероидных противовоспалительных препаратов ингибиторов циклооксигеназы-2 в начале XXI века // Русский медицинский журнал. -2003.-№7.- С.375-378.
2. Coxib and traditional NSAID Trialists' (CNT) Collaboration. Vascular and upper gastrointestinal effects of non-steroidal anti-inflammatory drugs: meta-analyses of individual participant data from randomized trials. //The Lancet.-2013. -V.382. - P.769–779.
3. Каратеев А.Е., Успенский Ю.П., Пахомова И.Г., Насонов Е.Л. Краткий курс истории НПВС. // Научно-практическая ревматология. -2012.-№3. -С.101–133.
4. Насонов Е.Л., Каратеев А.Е. Современные аспекты применения нестероидных противовоспалительных препаратов в ревматологии. // Лекции для практикующих врачей. -М.,2007. -С.167-179.
5. Василевский И.В. Клинико-фармакологические подходы к применению современных нестероидных противовоспалительных средств . // Актуальные вопросы специализированной медицинской помощи, новые направления в медицине. Минск. -2010. - С.428–433.
6. Yakubova U.B., Shukurlaev K.Sh., Bekchanov B.G. Study of some features of the anti-inflammatory procedure of the new derivative thiourea. // EPRA International Journal of Research and Development. SJIF Impact Factor: 6260. Volume: 5, Issue: 3, 2020. - P. 3-5.
7. Selye H.I. The stress of Life .// Proc. Soc. Exp. Biol. (H.J.) – 1953- V. 82 – P. 328.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING BA’ZI MASALALARI

Tuxtasin Xudayberganovich Tashmetov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti v.b. dosenti falsafa fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

toshmetovtuxtasin@gmail.com

ANNOTATSIYA

Siyosiy partiyalar jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy siyosiy kuch hisoblanadi. Zero, parlamentarizmning rivojlanib borishi siyosiy partiyalar o‘rtasida sog‘lom siyosiy raqobatni vujudga keltiradi. Bu esa jamiyatimizda saylov erkinligi, so‘z erkinligi, ovozlarni halolik bilan sanash, ijtimoiy fikrdan bahramand bo‘lish, ijtimoiy manfaatlar integratsiyasi hamda erkin, demokratik saylovlarda siyosiy kuchlar raqobati kabi qat’iy tizimlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Kalit so‘zlari: Davlat, jamiyat, Vatan, siyosat, normativ, partiya, dastur, saylov, g‘oya, parlament, millat, demokratiya, mafkura, prinsp, konstitutsiya, huquq, plyuralizm, madaniyat, mafkura, fuqaro, islohot, jamoatchilik nazorati, tamoyil, targ‘ibot, muxolifat,

KIRISH

Insoniyat siyosiy ongining davr bilan hamnafas rivojlanib borishi siyosiy jarayonlar, siyosiy tizim va uning tarkibiy qismlarini takomillashtirishga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. “Zamonaviy fuqarolik jamiyatining bardavom faoliyati bir necha, serqirra jamoat tashkilotlari bilan uzviy aloqani talab etadi, ularning eng asosiysi siyosiy partiyalardir”. Siyosiy partiyalar jamiyat tizimining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Binobarin jamiyat siyosiy tizimi doimiy harakatdagi ijtimoiy hodisadir. Shu boisdan mashhur ingliz siyosiy arbobi Genri Sent Jon Bolingbrok siyosiy partiyani demokratik institut sifatida e’tirof etib, “partiya millatning ovozi” ekanini qayt etadi.

Siyosiy partiyalar saylovoldi dasturlarida ta’lim tizimiga, yoshlar masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Quvonarli jihati shundaki, bugungi kunda yoshlarimiz barcha jabhalarida bo‘lgani kabi siyosiy partiyalar faoliyatida ham alohida o‘ringa ega bo‘lib borishmoqda. Har bir siyosiy partiyada yoshlar qanoti faoliyat olib borayotganligi buning yaqqol tasdig‘idir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Partiya” so‘zi lotincha “part” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ish”, “qism” degan ma‘nolarni anglatadi. Siyosiy partiya – fuqarolarning eng faol, mushtarak mafkura asosida bog‘langan, davlat hokimiyatini qo‘lga kiritish, uni saqlab qolish va amalga oshirishga intiluvchi qismi, ixtiyoriy ittifoqi.

Siyosiy partiya – bu jamiyatdagi ma‘lum bir guruhlar, toifalar, qatlamlarning qiziqishlarini aks ettiradigan hamda davlat hokimiyatini tashkil etish va davlat ishlarida qatnashish orqali ularni amalga oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadigan kishilar birligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, siyosiy partiyalar mamlakatdagi muayyan aholining yoki guruhlarining manfaatlarini, maqsadlarini va intilishlarini ifodalaydigan hamda qonuniy vositalar yordamida ularni davlat siyosti darajasiga ko‘tara oladigan jamiyatdagi yagona kuch hisoblanadi. Aynan mana shu jihati, ya‘ni siyosiy hayotdagi bevosita ishtiroki bilan o‘z manfaatlarini ifodalashi orqali siyosiy partiyalar boshqa jamoat tashkilotlaridan farqlanadi.

Siyosiy partiyalar zamonaviy demokratik jamiyatlarda siyosiy tizimning muhim ajralmas qismidir. Davlat va huquq nazariyasidan bizga ma‘lumki, siyosiy tizim – bu xalq irodasiga muvofiq davlatda siyosiy hokimiyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi siyosiy institutlar, siyosiy normalar, prinsplar, jarayonlarning o‘zaro aloqadorligi va mushtarak yig‘indisi. Ramziy ma‘noda aytganda, siyosiy tizim davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi siyosiy muassasalar yoki tashkilotlarning harakatlanish maydonidir, ushbu siyosiy maydonning barqarorligini mustahkamlovchi siyosiy poydevor – siyosiy partiyalardir. Zero, siyosiy partiyalar hokimiyat konstitutsiyaviy-huquqiy tuzilishining barcha bo‘g‘inlariga singib ketgan holda nafaqat uni shakllantirishda, balki faoliyat yuritishida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydilar.

Jamiyatda turli xil patriyalarning mavjud bo‘lishi natijasida siyosiy fikr , qarashlarning xilma-xilligi vujudga keladi. “Plyuralizm, ya‘ni fikrlar xilma-xilligi va qarashlarning rang-barangligi ma‘rifiy jamiyatga xos bo‘lib, muayyan haqiqatni turlicha izohlash, tushunish va talqin etish tamoyiliga asoslanadi”.

Siyosiy partiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari qonuniy raqobat olib borilishi sharoitida ijobiy natijalarga olib keladi hamda davlat, jamiyat rivoji uchun o‘z hissasini qo‘shadi. Bugungi kunda, aynan shu sababli, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda mamlakatdagi siyosiy raqobatni rivojlantirish asosiy maqsad, yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Partiyalararo qonuniy raqobat fuqarolar siyosiy madaniyatidagi halol raqobat tushunchasi bilan uzviy bog‘liq.

O‘zbekistonda parlament demokratik prinsiplaridan kelib chiqib ko‘p partiyaviylik tizimiga amal qilgan holda ochiq va erkin saylovlar asosida shakllanmoqda va faoliyat olib bormoqda. O‘tgan davr mobaynida bu borada zarur tajriba to‘plandi, erishilgan yutuq va kamchiliklarni ikki palatali parlament sharoitida yanada chuqurroq tahlil etish imkoni paydo bo‘ldi. Zero, partiyalar o‘rtasida doimiy kurash – g‘oya va dasturlar kurashi parlamentning kundalik faoliyatida asta-sekinlik bilan bo‘lsada namoyon bo‘lmoqda, parlament faoliyatida har qaysi partiya o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga sobitqadamlik bilan erishishga harakat qilmoqda. Biroq bu yo‘lda muayyan murakkabliklar, xato va kamchiliklar ham mavjudligini ta’kidlash lozim. Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev: “Bir fikrni takror va takror aytishni o‘rinli, deb bilaman: olib borayotgan islohotlarimizning muvaffaqiyati, avvalambor, siyosiy partiyalarning yetuklik darajasiga, ularning jonajon Vatanimiz oldidagi mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog‘liqdir”, – deb ta’kidlaydi.

Davlat va siyosiy partiyalar o‘zaro munosabatlarining asosiy yo‘nalishlari ular faoliyatini normativ tartibga solish, davlat va jamoatchilik nazorati, davlat va siyosiy partiyalarning masalalarni bahamjihat hal qilish bo‘yicha o‘zaro hamkorligi, siyosiy partiyalar faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda Xalq Demokratik partiyasi, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, tadbirkorlar va ishbilirmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O‘zbekiston ekologik partiyalari faoliyat yuritib kelmoqdalar. Barcha siyosiy partiyalar o‘z faoliyatlarini Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari asosida amalga oshiradilar. Shu boisdan, siyosiy partiyalar qonun asosida tashkil etilishi va faoliyat olib borishi, bir maqsadli shaxslarni birlashtirishi, muayyan dasturi va yo‘nalishiga ega bo‘lishi, boshqa jamoat tashkilotlari orasida o‘zining rasmiyligi va muhimligi bilan ajralib turishini ta’kidlash lozim.

Jamiyat hayotida qonuniylik mezonlari to‘liq joriy etib borilishi davlatning faoliyatida o‘z aksini topishi va doimo mustahkamlanib borilishini taqozo etadi. Aynan shu maqsadlarga mos holda O‘zbekistonda islohotlarning muhim yo‘nalishlari etib hokimiyatni bo‘linish tamoyilini amalga oshirishni ta’minlash, jamiyat siyosiy tizimida parlamentni rivojlantirish, partiyalarning rolini oshirish kabi masalalar belgilab olingan. Bu yo‘lda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” g‘oyasi asosida ijobiy natijalarga erishilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'p partiyaviylik – demokratik davlatlarda siyosiy hayotni tashkil etishning asosiy konstitutsiyaviy prinsiplaridan biri, siyosiy va mafkuraviy plyularizmni ancha umumiy bo'lgan prinsipining ifodasi hisoblanadi. Ko'p partiyaviylik prinsipi yuridik jihatdan davlat fuqarolarning o'z dunyoqarashlariga muvofiq tarzda siyosiy partiyalarga birlashish huquqini, barcha siyosiy partiyalarning qonun oldida tengligini, ular faoliyati erkinligini tan olishi va kafolatlashini anglatadi. Ko'p partiyalilik prinsipi vakolatli davlat organlarining milliy, irqiy, diniy yoki ijtimoiy murosasizlikni, qonuniy davlat hokimiyat organlarini kuch ishlatib ag'darishni targ'ib qiladigan yoki boshqa yo'sinda amalda bo'lib turgan qonunchilikni buzadigan siyosiy partiyalarni qonunda belgilangan tartibda ta'qiqlashi va tarqatib yuborishni mustasno qilmaydi.

Binobarin, mamlakatda haqiqiy ko'ppartiyaviylik tizimining paydo bo'lishi bugungi kunda mavjud bo'lgan har bir siyosiy partiyaning faoliyatiga bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflar o'z ifodasini topishi lozim. Amalda ko'ppartiyaviylik – bu har xil kurash va g'oyalar o'rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydonidir".

Partiyalar faoliyatini harakatga keltiruvchi kuchlar – bu xalq va turli guruhlarining maqsad va manfaatlarini, qadriyatlarini, orzu-istaklari va g'oyalaridir. Partiya o'z faoliyati orqali a'zolarining manfaat va ehtiyojlarini davlat boshqaruvi organlariga yetkazib turadi.

Ko'p partiyaviylik, avvalo, jamiyatimizda o'z manfaat va qarashlariga ega bo'lgan har qaysi ijtimoiy qatlam va guruhning maqsad va intilishlarini to'liq aks ettirish uchun kerak. Chunki hayot bor ekan, inson bor ekan, har qaysi toifa o'zining manfaatlarini qandaydir yo'llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil qilish lozim, inson, oila qanday sharoitda tinch va baxtli yashashi mumkin, degan masalalar atrofida fikr yuritadi, kerak bo'lsa, qonuniy yo'llar bilan o'z maqsadlariga erishishga intiladi.

Jamiyatimizning turli sohalarida islohotlar natijasida erishilgan marralar va yutuqlarni e'tirof etgan holda, jamiyatni yanada demokratlashtirish, boshqaruvni takomillashtirish masalalarida ba'zi muhim masalalarning ahvoli va rivojlanish sur'atlarini mamlakatimiz oldida turgan ulug'vor vazifalaridan kelib chiqadigan talablar darajasiga ko'tarish masalasi dolzarb bo'lmoqda. Bu avvalo jamiyat rivojida va uni boshqarishda

siyosiy partiyalarning rolini jiddiy ko'tarish masalasidir. Bu yo'nalishda qo'yilgan yana bir muhim qadam O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilgan parlamentimiz tomonidan qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonundir. Bu qonunni qabul qilishdan asosiy maqsad siyosiy partiyalar fraksiyalarining davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi roli va ahamiyatini kuchaytirish, ularning funksiyalarini bajarishda samaradorlikni oshirish, jamiyat siyosiy hayotida fraksiyalar faoliyatini ta'minlash, aholi manfaatlarini bevosita fraksiyalar orqali qonunchilik darajasiga ko'tarish va hal qilish, partiya yo'nalishi va dasturini parlament va mahalliy kengashlarda mustahkamlash va barqarorlashtirish imkoniyatini shakllantirishdan iborat.

Bizga ma'lumki, yangi qonun loyihalarini tayyorlash tashabbusi deputatlarning to'g'ridan-to'g'ri birlamchi vazifalaridan biridir. Zamon talablari, jamiyatimiz shart-sharoitlari, aholimiz tub ehtiyojlarining mazmunidan kelib chiqqan qonun loyihalari borasida tashabbuslar siyosiy partiyalar fraksiyalari vakillari tomonidan muntazam ravishda ilgari surilishi zarur.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, O'zbekistonda siyosiy tizimi zamonaviy siyosiy munosabatlar shart-sharoitlari va omillariga moslashish hamda uyg'unlashish sifatlariga ega bo'lib bormoqda. Siyosiy partiyalarning islohatlar jarayonidagi jamiyatni yangilash va modernizatsiya qilish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishdagi roli va ahamiyati kuchaytirish, ijro hokimiyati ustidan jamoatchilik, saylab qo'yiladigan hamda vakolatli organlar nazoratini kuchaytirish, taraqqiy topgan demokratik davlatlar tajribasi asosida yurtimizda haqiqiy ko'ppartiyaviylik muhitini qaror toptirishga qaratilgan hayotiy zarur huquqiy qoidalar o'z aksini topdi. Bularning barchasi siyosiy partiyalarning keng ko'lamda ijtimoiy-siyosiy faoliyat yuritishini ta'minlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilishiga va ularning jamiyatimizdagi o'ri va nufuzi va mavqeini, vakolatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Юдин Ю.А. Политические партии и право в современном государстве. М.: Издательская группа "ФОРУМ-ИНФРА-М", 1998. С.36.



2. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. T.: Sharq. 1998. B.30-32.
3. Jalilov A., Muhammadiev U., Jo'raev Q va bos'hqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari: o'quv qo'llanma. Tos'hkent, 2015. B198-199.
4. Bekov I.R., Abbosxo'jayev Sh.A. Siyosiy partiyalar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi. – T.: “O'zbekiston”, 2007. B.5.
5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent : O'zbekiston, 2000. B.19.
6. Mirziyoyev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak. Prezident S'havkat Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Yekologik harakati vakillari bilan videosektor yig'ilis'hidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017 yil 13iyul.
7. Tadjixanov U., Odilqoriev H., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy huquqi. T., 2001. B.473.
8. Bekov.I., Hamidova K. Saylov va siyosiy partiyalar.–Tos'hkent: O'zbekiston, 2009.–6-7 b.
9. Karimov I.A. Ozad va obod Vatan, yerkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. – T.: 8 tom. O'zbekiston. – B. 333.
10. Bekov I., Hamidova K. Saylov va siyosiy partiyalar.–Tos'hkent-O'zbekiston, 2009.9-b.
11. Bekov I.R, Abbosxo'jayev S'h. A. Siyosiy partiyalar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi. – T.: “O'zbekiston”, 2007. B.5.
12. Ташметов Т.Х. Миллий ғояни ёшлар онгига сингдиришнинг замонавий усуллари. “Ёшларга оид давлат сиёсатининг ёшлар ижтимоийлашувидаги ўрни ва аҳамияти”. -Т.: 2019. В 191-195.
13. T.T Khudayberganovich. (2020). The importance of the use of innovative technologies in raising the spirituality of young people. International journal of multidisciplinary research (IJMR). –p. 25-27.
14. T.T Khudayberganovich. (2020). Prospects for relying on the basis of the national idea in protecting young people from hard and harmful ideas. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal. Elsevier SSRN 9 (11) –p. 81-85.
15. Tuxtasin Xudayberganovich Tashmetov. (2021). Global yutuqlardan foydalanishda milliy g'oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari. Academic research in educational sciences, 2(3), 596-602.
16. T.T Khudayberganovich. (2020). Ёшларга берилаётган имкониятларнинг тарбиядаги аҳамияти. Science and Education. –p.618-619.
17. Tuxtasin Xudoyberganovich Tashmetov (2021). Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ta'lim-tarbiyaning o'rni. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), p. 1047-101.

MILLIY G‘OYA FANINI INTERFAOL USULLAR ASOSIDA O‘QITISH DAVR TALABI

Tuxtasin Xudayberganovich Tashmetov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti v.b. dosenti
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

toshmetovtuxtasin@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda yangi demokratlashgan va modernizatsiyalashgan jamiyatni qurish uchun yuksak aql-zakovatga ega bo‘lgan, ruhan tetik va sog‘lom, erkin va mustaqil fikrlaydigan, ayni paytda ijtimoiy mas‘uliyatni chuqur his etadigan, barkamol avlod va komil insonni tarbiyalash g‘oyatda muhim. Zero, kadrlar masalasi milliy kamolotimizning bosh strategik asoslari, mustaqil davlatimizning XXI asr boshlaridagi rivojining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ta‘lim muassasalarida milliy g‘oyani interfaol metodlar asosida yoshlarning dunyoqarashini boyitish, ularda Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g‘ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual – ma‘naviy raqobatga javob bera oladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan yuksak malakali mutaxassislar etib tarbiyalash, ta‘lim tizimini demokratik va insonparvarlik yo‘nalishlarda qayta qurish orqali ta‘lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish davr talabidir.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, ma‘naviyat, milliy g‘oya, texnologiya, interfaol, o‘quv jarayon, fikrlash, metod, faollik axborot kommunikatsiya, modernizatsiya, kompyuter, multimedia, kreativlik, shaxs, avtoritar, demokratik, liberal, tahdid, multimedia, prezentatsiya, innovatsiya, umuminsoniy qadriyat.

KIRISH

Bugungi kunda kelajak avlodni ma‘naviy-axloqiy barkamol qilib tarbiyalash o‘ta muhim vazifalardandir. Chunki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohatlar fuqarolardan o‘zlikni chuqur anglashni va ma‘suliyatli bo‘lishni taqozo etadi. Shu boisdan uzluksiz ta‘lim tizimida yoshlarni ma‘naviy ruhiyatiga mos zamonaviy usullardan foydalangan holda dars jarayonini olib borish va turli xil innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish borish maqsadga muvofiqdir. Zero, bu “Milliy g‘oya” fanlarini o‘qitish samaradorligiga erishishning muhim shartidir.

Milliy g‘oya va ma‘naviyat fanlarini o‘qitishda yangicha yondashish noan‘anaviy usullar (texnik asoslar)dan foydalanish davr talabidir. “Texnologiya” tushunchasi “usul”, “uslub”, “mahorat” ma‘nolarini anglatadi[1]. Demokratiyaning umuminsoniy

prinsplarini o'qitish ham texnika imkoniyatlaridan foydalanib amalga oshirishni taqozo etadi. Shu boisdan, ta'lim tizimida milliy g'oya va ma'naviyat fanlarni o'qitishda turli xil innovatsion texnologiyalar orqali talabalar ichki dunyosi, ongi va qalbiga singdirishda hozirgi zamon o'qituvchisiga qo'yilayotgan muhim talablaridan biridir.

Hozirgi zamon o'qituvchisi esa tadbirkor tarbiyachi va pedagog, mafkura ishlarining faol qatnashchisi, o'z fanining ustasi hamda dars berayotgan fanni, ilmiy haqiqatni yosh avlodga san'atkorona o'rgatadigan, o'z mehnati bilan jamiyatning ma'naviy talablarini yoshlarga anglatadigan, o'z ustida muntazam ish olib boradigan, pedagogik texnologiyalardan xabardor shaxs bo'lishi lozim. A.S.Makarenko ta'biri bilan aytganda "Yaxshi ustoz maxsus ko'rish qobiliyatiga egadir: u o'z shogirdlar qanotlari qanday o'sayotganini ko'radi"[2],- deb ta'kidlaydi. Xozirgi kunda yaxshi ustoz kasbiga shu darajada ko'p masuliyat yuklanganki, o'z ustida tinimsiz mehnat qilish, izlanish uchun juda katta kuch, iroda va sabr-toqat talab etiladi.

Bugungi kunda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun, yangi axborotni o'zlashtiradigan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan ma'naviy barkamol yoshlar kerak. Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

Shunday ekan, ta'lim muassasalarining tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, ya'ni intefaol uslublari, ayniqsa innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba va talabalarni bilimli va yetik malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Innovatsiya (inglizcha **innovation**) – yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish demakdir[3].

Demak, innovatsiya o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Innovatsion texnologiyalarning asosi bo'lgan interfaol texnologiyalar milliy g'oya, milliy mafkurani teran fikrlash bilan anglab olishda yoshlarning faoliyatini faollashtiradi, ularni mustaqil fikrlashga, faollika, birdamlikka, jamoa bo'lib ishlash bir-biriga qayg'urish orqali jipislikka chorlaydi va bilimlarni boyitishda samaraliy ta'sir o'tkazadi. Bevosita ta'lim jarayoni markaziga talaba shaxsi qo'yiladi.

Shu nuqtai nazardan, milliy g'oya asosida yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu o'rinda, Birinchi Prezident I.A. Karimovning ta'lim to'g'risidagi quydagi so'zlari ibratliydir: "Biz ta'lim tizmida o'qituvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish bugungi kunda ro'y berayotgan barcha voqea – hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti xisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqtamiz"[5] deb fikir bildirib o'tganlar.

Zero, milliy g'oya mutaxassisligi bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash bugungi kunning ososiy vazifasidir. Binobarin, ta'lim maskanlaridagi dolzarb vazifalardan bo'lgan barkamol avlodning tayyorgarlik sifatini o'stirish asosiy maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu sababli yurtimizda barcha o'quv yurtlarida o'qitish tizmini jahon tajribalaridan foydalangan holda to'liq ko'rib chiqib eng maqbul jixatlarini amalyotga tadbiiq qilish maqsadga muvofiqdir. Bu xozirgi globallashu davrida bo'layotgan zamon talabiga xos bo'lgan jarayonlardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ushbu masalaga alohida e'tibor qaratib 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da ham ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishga ta'lim va fan sohasini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilgan[5] deb ta'kidlagan edi.

Mamlakatimiz ertangi kuni bo'lgan yoshlarning ma'naviy ongi haqida g'amxo'rlik qilish har birimizning, xususan, mahalla va ta'lim dargohlarining, umuman, shu yurtning gullab – yashnashi, taraqqiy topishidan manfaatdor bo'lgan har bir insonning muqaddas burchidir. Faqat ana shu asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlariga qarshi mardonavor tura olishga qodir bo'lgan irodali, fidoiy va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bizning fikrimizcha bugungi kunda yuqori sifatli bo'lgan ta'limning asosiy maqsadlariga quydagi yo'nalishlarni rivojlantirish bilan erishiladi:

➤ ta'lim maskanlari shunday saviyaga kelishi kerakki, toki u raqobatdosh kadrlar orasidagi tayyorgarlikdan yuqori darajada

bo'lsin. Buning uchun esa asosiy maqsad o'qitish ta'lim dasturiga mos kelgan bo'lishi kerak;

➤ ta'lim berish guruhlarining intellektual salohiyatini shunday oshirish kerakki, toki zamon talabi darajasida bo'lsin. Vaholanki, xozirgi yoshlar shunday qobiliyatga ega bo'lishi kerakki, u maqsad qo'ya oladigan va o'z oldiga qo'ygan maqsadni yecha oladigan bo'lishi, yuqori madaniy saviyada mustaqil fikirlay olishi va hayotda o'z o'rnini topa olishi lozim;

➤ ta'lim berishda interaktiv (ikki tomonning faolligi) metodlarni qo'llash, shu bilan birga ayni maqsadga yo'naltirilgan turli targ'ibot ishlarni tashkil qilish;

➤ O'quv, ilmiy, adabiy va zamonaviy texnologiyalarni o'quvchi-talaba yoshlarga yetkazib berish darajasida bo'lishi, o'quv jarayonini kerakli jihozlar bilan ta'minlash va yangiliklarni gazeta, jurnallarda to'liq va muntazam ravishda chop etib borish;

➤ bilim olishda o'quvchi-talabalarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi, hoxishi va moyilligini aniqlash. Shuningdek, ilg'or davlatlar tajribasini o'rganish, foydalanish va boshqalarni tashkil etadi.

Ta'limning savyasini oshirish jarayonida dastlab, ta'lim maskani mutaxassislarining dars berish malakasini oshirish hamda ta'lim maskanlariga jalb qilish bilan Respublika va xorijiy mamlakatlarining ta'lim maskanlari bilan tajriba almashish, ularni kurslarda o'qitish bilan o'quv materiallarini tushunish va eslab qolish har xil interaktiv metodlarni qo'llash bilan erishiladi. Shu nuqtai nazardan, yuqori sifatli ta'lim berishga, auditoriyalarni zamonaviy qilib har tomonlama jihozlash bilan ham erishiladi. Kompyuter va video jihozlarni qo'llagan holda eslab qolish, o'qitishning sifatini oshirish yoshlarni kerakli adabiyotlar bilan ta'minlash va ishlash uchun shart- sharoitlar yaratib berish muhim vazifalardan biridir. Asosiysi, o'qish jarayonida yosh avlodni qiziqishi, hoxishi, yangi bilimlarga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va javobgarlikni his qilish muhimdir. Shuning uchun ta'lim jarayoni quydagi muhim qoidalarga asoslanishi kerak; o'quvchi-talabalarning psixologik holatini tushunish, o'quvchi-talabalarni real hayotiy muammolar bilan qiziqitira olish, nazariya bilan amalyotni bog'lagan holda yoshlarni fikirlashga o'rgatish, yosh avlod bilan guruh bo'lib ishlashga qodir bo'lish va kerakli ijodiy darajaga erishish, hamda o'qituvchilarning ilmiy bilimlaridan qat'iy nazar ular dars bera olishi yoshlar bilan birga ishlay olishi muhim omillardan biridir.

Ushbu milliy g'oya va ma'naviyat fanining zamon talablari darajasida o'qitilishi quydagi 3 ta muhim shartlar bilan bog'liqdir. Bular: birinchidan, fanni o'qitadigan malakali kadrlarning zarurligi, ikkinchidan, mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchi-

talabalarning yoshi, psixologiyasi va bilim bazalarini hisobga olish, uchinchidan, o'qituvchilarning metodik jihatdan qurollangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha chora tadbirlarni bir-biri bilan chambarchas bog'lagan xolda uzliksiz ravishda olib borilishini ta'minlash va doimiy nazoratni o'rnatish muhim ahamiyatga egadir.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy g'oya va ma'naviyat fanlarini uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishda zamonaviy usullar va innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tiborni qaratish lozim. Shu bilan birgalikda, zamonaviy interfaol metodlar orqali milliy g'oya, milliy mafkura, milliy g'urur kabi oliy insoniy tushunchalarni dars jarayonida o'quvchi-talabalarning ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish bugungi kun davr talabidir. Chunki, darsliklardagi mavzular yuzasidan interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish talabalarni faollikka, birdamlikka va jipslikka chorlaydi. Eng muhimi, jamoa bo'lib ishlash bir-biriga qayg'urish va asosiysi bilimlarni boyitishda samarali ta'sir o'tkazadi. Biz manba sifatida shu fanlar orqali interfaol usullar asosida milliy g'oya fanini o'qitishda foydalanish samarali bo'lgan bir nechta metodlarni asos qilib oldik.

SCORE – 2

Mavzu: Yot va zararli g'oyalarning ko'rinishlari, ularning oldini olishda milliy g'oyaning o'рни va ahamiyati

Topshiriq:

Muammo: _____

Simptom (S – symptom) – Bu muammoning simptomi (belgisi) qanday? _____

Sabablari (C – cause) – Bu muammo simptomining sabablari qanday? _____

Natijasi (O – outcome) – Bu muammoni hal qilishga nisbatan kutilayotgan natija yoki maqsad qanday? _____

Resursi (R – resources) – Qanday resurs ushbu sababni bartaraf etishga yordam beradi? Qaysi resurs natija beradi? _____

Samarasi (E – effect) – Ushbu maqsadga erishish uzoq kutilgan qanday samaraga olib keladi? _____ [6]

Ta'lim jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Muammo: Bundan bir necha yil oldin mamlakatimiz ijtimoiy tarmoqlarida "Ko'k kit" degan tashvishli ibora paydo

bo'lgan edi. "Ko'k kit" haqidagi xabarlarda uning qilmishlari yoritildi. Biroq hozirda bu balo bilan kurashishga o'rgatuvchi tahliliy, ilmiy-uslubiy tavsiyalar yo'q hisob. To'g'ri, "Ogoh bo'ling", deyilmoqda. Lekin ota-onalarda bolalarimizni "Ko'k kit"dan qanday himoya qilaylik?", Ogoh ota-ona" bo'lish uchun tarbiyaning qaysi usullarini, qachon, qanday qo'llash kerak? degan haqli savollar tug'ilmoqda. Bugun har bir ota-onaning mana shu aniq savollarga aniq javoblari bo'lishi kerak. Bugun global axborot olamida "Ko'k kit" deb atalgan o'yin hammani o'ylatib qo'ydi. Internetda bu muammo haqidagi dastlabki shov-shuvlar 2015 yildan boshlangan. Internetda "Ko'k kit", "Tinch uy", "f58", "f57" kabi "o'lim guruhlari" haqida turli fakt va ma'lumotlar bor: "Ko'k kit"ni 18 yoshga to'lmagan, mustaqil fikri, qiziqqan mashg'uloti yo'q o'smirlar qiziqtiradi. Boshida oson, qiziq topshiriqlar berib o'smirning ichiga kirib oladi. Keyinchalik tanasiga tig' bilan ko'k kitning suratini chizdirib, bitta kuyni 3 kun tinimsiz tinglab, topshiriqlarni bajargan o'smirlarni maqtab, tabriklaydi. Bu nihoyat 50 kunda so'nggi – 50 topshiriq (suiqasd)ni bajartirib, uni videoga olishni o'rgatuvchi o'lim o'yini, deyiladi[7].

Simptom (S-symptom) – bu muammo simptomining asosiy sabablari o'sib kelayotgan yosh avlod ongi, qalbi va ichki dunyosiga ta'sir etish orqali uning ma'naviy dunyosini izdan chiqaradi.

Sabablari (C-cause) - "Ko'k kit" bu – o'smirlar ongiga hujum qilayotgan yangi ma'naviy tahdid! Chunki, birinchidan, bu trend-tahdid o'ziga 18 ga to'lmagan yoshlarni, o'smirlarni nishonga olgan. Demak, O'zbekiston o'smir-yoshlarini ham. Ikkinchidan, yoshlarning bo'sh vaqtini, ixtiyorini va qiziqishlarini egallashga yo'naltirilgan. Uchinchidan, yoshlarni g'oyaviy qul qilib, ularni o'z qo'l-oyoqlaridan foydalanib qurbon qilmoqchi. To'rtinchidan, uning maqsadlari bizning Harakatlar strategiyamizga, yoshlarga oid siyosatiga, o'zbekistonlik ota-onalar, ustoz-murabbiylar, yoshlarimizning maqsadlariga zid.

Natijasi (O-outcome) Yoshlarning bu kabi turli xil yot va zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolmasliklari uchun har tomonlama mafkuraviy qurollantirishni zamonning o'zi talab qilmoqda. Shunday ekan "Al Beruniy, Ibin Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur Moturudiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk allomalarimiz asarlari milliy tarbiyamizning bosh g'oyasi bo'lib qolishligi va ularning asarlarida keltirilgan ibratli fazilatlaridan bahramand bo'lishligimiz lozim[8].

Resursi (R-resources) birinchidan biz yoshlarimizni bu kabi tahdidlardan ogoh etishimiz hamda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash uchun targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Ikkinchidan, yoshlar bo'sh vaqtlarini chet tillarini o'rganishga, sport va boshqa



qiziqqan mashg'ulotlari bilan shug'illanishlaridan tashqari targ'ibot guruhlarini shakillantirish masalalariga alohida e'tibor berish lozim. Shundagina o'smir-yoshlariga hech qanday tashqi kuchlarning ta'siri bo'lmaydi[9]. Uchinchidan, mahallalarda, uzluksiz ta'lim tizimlarda ma'naviy – ma'rifiy tanlovlar, treninglar, tadbirlar hamda targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy infarmatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etishga qaratilgan samarali usl va uslublarni ishlab chiqish.

Samarasi (E-effect) – Biz uchun yagona mafkura – bu O'zbekistonning taraqqiyoti, O'zbekistonning ravnaqi, O'zbekistonning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligidir. Ma'naviyat qachon engilmas kuchga aylanadi? qachonki, yoshlarning iste'dodi va shijoati, orzu-maqсадlari jasorat, bunyodkorlik va matonat namunasiga aylansagina Ma'naviy barkamol insonni, sog'lom-avlodni tarbiyalashga erishamiz. Zero bu bugungi kun davr talabidir[10].

XULOSA

Xulosa o'rnida aytmoqchimizki, uzluksiz ta'lim tizimida milliy g'oyani talabalarning ichki dunyosi, ongi va qalbiga singdirish orqali ma'naviy barkamol insonni, sog'lom fikrlaydigan avlodni tarbiyalash asosiy vazifalardandir. Jamiyatimizning ustuvor maqsadlaridan biri ham aynan barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir[11]. Zero, ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar. Shu sababli yurtimizda barcha o'quv yurtlarida o'qitish tizmini jahon tajribalardan foydalangan holda to'liq ko'rib chiqib eng maqbul jihatlarini amalyotga tadbiq qilish orqali, milliy g'oya darslari samaradorligini yanada oshirish, unda innovasion texnologiyalardan samaraliy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu xozirgi glaballashu davrida bo'layotgan zamon talabiga xos bo'lgan jarayonlardir.

REFERENCES

1. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. T.: "Akademiya", 2007 yil, 23 bet.
2. Akramova Sh., To'raev Sh. "Milliy g'oya turkumidagi fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning amaliy masalalari" (O'quv-uslubiy qo'llanma). – T.: "Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi". 2016 yil 8 bet.
3. Ishmuhamedov R., Yoldoshev M. "Ta'lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar" T.: 2017 yil, 14 bet.
4. Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. T.: O'zbekiston. 2012l. 183- bet.



5. Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. 7 fevral 2017 yil. Lex.uz.
6. Ishmuhamedov R., Yoldoshev M. “Ta’lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar” T.: 2017 yil, 215-216 betlar.
7. Khudayberganovich T. T. (2020) The importance of the use of innovative technologies in raising the spirituality of young people. EPRA International journal of Multidisciplinary Research (IJMR). 6 (11) 25-26.
8. Khudayberganovich T. T. (2020). Ёшларга берилаётган имкониятларнинг тарбиядаги аҳамияти. Science and education 1(7) 618-619.
9. Tashmetov, T.X. (2020). PROSPECTS FOR RELYING ON THE BASIS OF THE NATIONAL IDEA IN PROTECTING YOUNG PEOPLE FROM HARD AND HARMFUL IDEAS. International Journal For Innovative Engineering and Management Research, 9 (11), 81-86.
10. Tashmetov, T.X. (2020). The importance of opportunities for young people in education. "Science and Education" Scientific Journal, 1 (7), 617-624.
11. Tashmetov, T.K. (2020). THE IMPORTANCE OF THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN RAISING THE SPIRITUALITY OF YOUNG PEOPLE. Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal, 6 (11), 25-27.



ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ: ЗАРУРАТ, ЭЪТИЪЖ ВА ТАДҚИК

Камаладин Куронбоевич Матякубов

Чирчик давлат педагогика университети ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада технологик таълимнинг пайдо бўлишига нисбатан ҳаётий зарурат, унинг дунё мамлакатлари таълимида пайдо бўлиш тарихи, ривожланиш тадрижи ёритилган. Шунингдек, технологик таълимнинг мамлакатимиз узлуксиз таълим тизимидаги ўрни, аҳамияти ва ривожланиш тенденциялари таҳлил қилинган. Технологик таълимнинг устувор йўналишлари аниқлаштирилган

Калит сўзлар: технология, технологик таълим, таълим технологияси, политехник таълим.

КИРИШ

Собиқ Иттифоқ республикаларида 1950 йилларда кузатилган фан-техника тараққиёти умумий ўрта таълим мактабларида политехник таълимни жорий қилиш заруриятини келтириб чиқарди. Шундан келиб чиққан ҳолда, ўн йиллик умумий ўрта таълим мактабларида политехник таълимни ўқув режага киритиш ва худди шу йўналишдаги мактабларни ташкил қилишга қарор қилинди. Бу эса олий педагогик таълим муассасалари олдида ушбу мактабларда умумтехника ва меҳнат фанларидан дарс берадиган юқори малакали ўқитувчи кадрлар тайёрлашни асосий вазифалардан бири қилиб қўйди. Бу вазифани амалга ошириш учун 1957 йил Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика институтида “Физика ва ишлаб чиқариш асослари” ўқитувчисини тайёрлаб бериш учун моддий техника базани яратишга киришилди. 1957-1959 йилларда, “Физика” факултети қошида машинасозлик технологияси лабораторияси, автотрактор ўқув хонаси, металларга ишлов бериш ва дурадгорлик устахоналари ташкил қилинди. [7]

АДАБИЁТЛАР ТАЪЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Мазкур таълим йўналиши ривожига Г.Абдурашидов, Д.Н.Ганиев, С.А.Ходжаев, М.Т.Тоирходжаев, У.Н.Нишоналиев, А.Й.Юлдашев, А.И.Воробёв, М.С.Яхяев, А.Р.Расулмухамедов, Б.Хусанов, Н.А. Муслимов, А.И. Авазбоев, В.Н.Сатторов, Й.У.Исмадияров каби олимлар ўз ҳиссасини қўшишган.



Шунингдек, замонавий технологик таълимни ривожлантириш йўлида юртимиз олимларидан таянч педагогика олий таълимида У.И.Иноят, Н.А.Муслимов, Ш.С.Шарипов, У.Ш.Бегимқулов, Ў.Қ.Толипов, С.С.Булатов, Ш.К.Муродов, Б.К.Мухамедсаидов, Р.Г.Исянов, П.О.Адилов, Х.З.Исматуллаева, Я.У.Исмадияров, Д.У.Ергашев, Р.Г.Муллахметов, С.А.Болтабаев, С.Абдирасилов, О.А.Қўйсина, Г.М.Анорқулова, О.И.Авазбаев, С.Й.Ахмадалиев, С.А.Алибеков, Л.М.Набиулина, А.О.Аҳирбоев, Р.Ш.Халилов, А.Н.Валиев, М.К.Халимов, В.А.Чурсина, Д.Н.Маматов, Ҳ.Ш.Қодиров, Ш.С.Абдурайимов, А.И.Усмонов, Р.С.Шермухамедов ва бошқалар ўз ҳиссаларини қўшиб келмоқдалар.

Умумий ўрта таълимнинг бир қатор таълим стандартлари ва дастурлари қайта кўриб чиқиши ва амалиётга жорий этилишига қарамай, масалан МДХ мамлакатларининг айрим мактабларида технологик таълимнинг мазмунида сезиларли ўзгаришлар кузатилмади: у ҳали ҳам иқтисодиётнинг талаблари ва воқелигига мувофиқ амалга оширилмоқда. Технологик таълимнинг эскирган воситалари, жумладан, устахоналар ва лабораторияларнинг моддий-техник базаси энг муҳими технология дарслари ва синфдан ташқари машғулотларда ўқувчиларга долзарб ишлаб чиқариш, технологик ва конструкторлик ҳамда тадқиқот муаммоларини тўлиқ ҳал қилишга имкон бермайди, гарчи бундай уринишлар бўлса-да баъзи мактабларда, қўшимча таълим марказларида, ёшлар инновацион ижодиёт марказларида ва болалар технопаркларида амалга оширилмоқда.

Мактаб ўқувчиларига технологик таълимни ривожлантиришнинг асосий муаммоси - бу шахснинг технологик маданияти даражасига сезиларли даражада ортиб бораётган талабларни қўшган ҳолда янги технологик тартибнинг вазифаларига жавоб берадиган мазмуни ва воситаларини топишдан иборат.

АҚШдаги касбий таълимнинг ривожланиши XX аср бошларида содир бўлган буюк депрессия даврида кузатилди. Бу пайтларда қишлоқ хўжалиги унчалик даромадли соҳа эмас эди ва саноатни ривожлантиришдан сармоядорлар анча манафаатдор эди. Айни шу пайтларда мамлакатда фабрикаларнинг ишчиларга бўлган эҳтиёжи ортиб кетди. Натижада, иш жойларининг болалар ҳисобига қондирилиши кучайди ва бу ҳолат Қўшма Штатларда 1916 йилда болалар меҳнати тўғрисидаги биринчи қонунни қабул қилиниши билан яқунланди. Шундай қилиб, заводларга малакали ишчиларни топишга ёрдам бериш мақсадида АҚШ ўрта мактаблари технологик таълим дастурларини таклиф қила бошладилар.

1917 йилда Smit-Хууз қонуни АҚШ мактабларида касбий таълим дастурларини федерал молиялаштиришга рухсат берувчи биринчи қонун сифатида имзоланди. У технологик таълимни сантехниклар, механиклар ва завод ишчилари каби ўз ишларини бажариш учун бакалавр даражасига мухтож бўлмаган бўлажак мутахассислар учун мақбул таълим сифатида белгилади. Улар ўрта мактаблар билан боғлиқ йўналтирилган касбий дастурларда ўқишни яқунладилар.

Технологик таълим структураси МДХ мамлакатларида 1980-йилларда шаклланди. Ўтган асрнинг сиёсатида кузатилган политехника тамойили В.С.Леднев, П.Р.Атутов, В.А.Поляков ва бошқаларнинг асарларида батафсил тавсифланган ва таҳлил қилинган. Уларда политехника таълимнинг асосий таркибий қисмлари сифатида қуйидагилар кўриб чиқилган:

- технологиянинг умумий таълим ўрганишни белгиловчи инструментал (техник) компоненти;
- технологияни ўрганиш йўналишини белгиловчи оператив ва процессуал (технологик) компонент;
- мактаб ўқувчиларининг келажакдаги касбининг ўзига хос хусусиятларидан қатъи назар, энг кенг тарқалган фаолият турлари соҳасида техник ва технологик тайёргарлик.

Тадқиқотларимиз мактаб ўқувчиларининг технологик таълими мазмунида санаб ўтилган компонентлар асосида тўртта йўналиш мавжудлигини кўрсатди:

- техник меҳнат;
- хизмат кўрсатиш меҳнати;
- қишлоқ хўжалиги меҳнати;
- чизиш.

Ҳозиргача “Технология” фанини ўрганишнинг умумий модуллари уй маданияти, оила иқтисодиёти, тадбиркорлик асослари ва лойиҳалаш усули бўлган ва шундай бўлиб қолмоқда.

Мақолада анализ, синтез, адабиётлар таҳлили, қиёсий таққослаш, солиштириш методларидан фойдаланилди.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

- 3) davlat ta‘lim standartlari va malaka talablari;
- 4) o‘quv reja va dasturlar.

Bu o‘rinda e‘tiboringizni boshlang‘ich ta‘limning asosiy me‘yoriy hujjati O‘zbekiston Respublikasi *“Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni* tahliliga tortamiz.

Mamlakatimizda amaldagi O‘zbekiston Respublikasi *“Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni* yangi tahririda 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan va uning asosida ta‘lim tizimini tashkil etish hamda boshqarish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Qonun 11 bob va 75 moddadan iborat. Mazkur qonun milliy me‘yoriy hujjatlar tajribasi va jahon huquqi an‘analariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Shu sababli boshlang‘ich ta‘limni tashkil etishda ushbu qonunning eng avvalo *normalariga* e‘tibor berish kerak bo‘ladi. Norma – bu me‘yoriy hujjatlarning asosli mezonlari bo‘lib, ular huquqiy va majburiy tusga ega hisoblanadi. Shu jihatdan ta‘lim to‘g‘risidagi milliy Qonunimizning normalarini aniqlab olish va o‘rganish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun muhimdir [2]. Qonunda boshlang‘ich ta‘limga oid quyidagi yo‘nalishlarda normalar belgilangan:

- a) asosiy tushunchalar izohi;
- b) boshlang'ich ta'limni tashkil etish huquqlari va majburiyatlari;
- v) boshlang'ich ta'lim jarayonini boshqarish asoslari;
- g) boshlang'ich ta'lim samaradorligini baholashning huquqiy omillari.

Ushbu normalarga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim tashkil etiladi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasi yo'lga qo'yiladi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qonunning 4-moddasiga binoan "o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlash majburiy" hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limga o'quvchilar 7 yoshga kiradigan yilida qabul qilinadi. Mazkur moddaga asosan bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dod rag'batlantiriladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim jarayoniga qabul qilishda ularga bilim berish, qobiliyatini rivojlantirish va iste'dodini ro'yobga chiqarish asosiy maqsad hisoblanadi. Bular bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi. Chunki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ayni ushbu qonun asosida faoliyat yuritishadi [4].

Qonunning 6-moddasiga binoan mamlakatimizda ta'lim tizimini quyidagilar tashkid etadi:

- davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, o'quv rejaları va o'quv dasturlari;
- ta'limni amalga oshiruvchi tashkilotlar;
- ta'lim sifatini amalga oshiruvchi tashkilotlar;
- ilmiy-pedagogik muassasalar;
- ta'lim sohasini boshqarish organlari.

Bu tizim asosida mamlakatimizda ta'lim amalga oshiriladi. Misol uchun, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi maktabgacha ta'limdan boshlab doktorantura ta'limigacha bo'lgan ta'lim jarayonining sifatini monitoring qiladi. Unda sifatli ta'lim berish, maqsadli tarbiyani amalga oshirish va ta'lim oluvchilarning o'quv-tarbiyalanganlik darajasini aniqlash masalalariga asosiy e'tibor qaratiladi. Shu jihatdan mamlakatimizda ta'lim tizimi yagona va uzluksiz hisoblanadi [5].

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalarini o'rganish. Ushbu qonunning 9-moddasiga binoan mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim o'n bir yillik bo'lib, unda boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni qamrab oladi. Bunda

boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar belgilangan: "Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantiradi". Bu o'rinda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarni bilim olamiga olib kiradi va o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlaydi. Mazkur o'rinda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarni nafapqat umumiy o'rta ta'limga, balki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ham tayyorlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining *savodxonligini* tarkib toptiradi. Unga ko'ra, 7 yoshli o'quvchilarda o'qish, yozish va hisobni o'rgatish ularni savodxonlik darajasini shakllantirish hisoblanadi. Ayni paytda, yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 2026 yilga borib o'quvchilarning savodxonligini tarkib toptirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarining vazifasi sifatida belgilangan. Demak, kelgusida boshlang'ich ta'limning savodxonlikni tarkib toptirish vazifasi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga o'tkaziladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur normani to'g'ri o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limning *bilim berish* vazifasi shundan iboratki, o'quvchilar dastlabki bosqichda aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo'yicha dastlabki tushunchalarga ega bo'lishadi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini tarkib toptirish, ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Ayni paytda, mazkur vazifasining ijrosi jarayonida o'quvchilarning layoqati fanlar kesimi asosida aniqlanadi va ularni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Boshlang'ich ta'limning navbatdagi vazifasi o'quvchilarga *malaka berish*dan iborat. Mazkur qonunning 3-moddasiga binoan, "malaka-shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar majmuidir". Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining malakasini tarkib toptirish deganda ularning mahoratlarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Aynan mana shunday tushunish boshlang'ich ta'limning malaka berish vazifasini mazmunini tashkil etadi.

Boshlang'ich ta'limning yana bir vazifasi o'quvchilarda *ko'nikma asoslarini* shakllantirishdan iborat. Ko'nikma - bu muayyan xarakterning tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarishdir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'nikma asoslarini tarkib toptirish deganda ularda bilim olish va tarbiyalanish jarayonida aniq va maqsadli xarakterlarni tarkib toptirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf

o'quvchilarida ko'nikma asoslarini tarkib toptirish ularning keyingi ta'limdagi faoliyati uchun asos hisoblanadi.

E'tibor berilsa ta'lim to'g'risidagi Qonunda boshlang'ich ta'limning vazifalari aniq belgilab qo'yilgan. Eslatib o'tish joizki, mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich (1-4 sinflar), tayanch o'rta ta'lim (5-9 sinflar) va o'rta ta'lim (10-11 sinflar) bosqichlariga bo'linadi. Bunda asosiy ta'lim va tarbiyaviy vazifa boshlang'ich ta'lim bosqichi zimmasiga tushishiga e'tibor berish kerak. Shu sababli mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli professional o'qituvchilar tayyorlash muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilanadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur normalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Qonunning 9-moddasiga binoan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida ta'lim oluvchilar soni 35 nafardan oshmasligi kerak. Demak, boshlang'ich sinflarda 35 nafar o'quvchi bitta guruh hisoblanadi va shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarning guruhlari ko'p bo'lib, asosiy e'tibor guruhlari kesimida sifatli boshlang'ich ta'lim berishga qaratiladi. Buning ma'nosi shuki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari sinflardagi guruhlari vositasida sifatli ta'lim berish malakasini egallashi kerak [6].

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'limning vazifalari aniq belgilangan holda, uning muhim tarkibiy qismi tarbiya masalasiga doir vazifalar belgilangan emas. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda tarbiya asoslari mazkur qonunning 4-moddasiga binoan shakllantiriladi. Unga ko'ra, o'quvchilar huquqlarining ustuvorligi, demokratik fazilatlarining tarkib toptirilishi va dunyoviy faoliyatga tayyorlanishi masalalari boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya asoslarini tashkil etadi. Shu sababli huquqiylik, demokratiklik va dunyoviylik tamoyillari boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan tarbiya jarayonining tayanchlari hisoblanadi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning muhim bosqich ekanligi hisobga olinib, mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli professional o'qituvchilar tayyorlash jarayoni amalga oshirilmoqda. Misol uchun ushbu qonunning 11-moddasiga binoan "fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega". Shu jihatdan nopedagog oliy ma'lumotli shaxslar ham ikkinchi oliy ta'limni olish vositasida boshlang'ich sinf o'qituvchisi kvalifikatsiyasiga ega bo'lish mumkin. Bu hol boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli o'qituvchilar tayyorlash ko'lamini kengaytiradi.

Diqqat qilinsa, ta'lim to'g'risidagi Qonunimizda boshlang'ich ta'limni tashkil etish asoslari huquqiy jihatdan tartibga solingan.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning boshlang'ich ta'limga oid sharhlarini o'zlashtirish. Ushbu qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalarini o'rganish oliy pedagogik ta'lim jarayonida muhim hisoblanadi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagilarga e'tibor berishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) qonuning umumiy tuzilishi va mazmunidan xabardor bo'lish;
- 2) qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalarini chuqurlashtirilgan tarzda o'zlashtirish;
- 3) boshlang'ich ta'limga oid normalar bo'yicha huquq, vazifa va majburiyatlarni o'rganish.

Qonunning umumiy tuzilishi va mazmuni mamlakatimizning ta'lim tizimi to'g'risida to'liq tushuncha beradi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uning mazmuni bo'yicha umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishi taqozo etiladi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, Respublikamizda maktabgacha ta'lim bosqichi O'zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni bilan ham tartibga solinadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan ta'limga oid yagona va tipik bo'lgan me'yoriy hujjat Ta'lim Kodeksini ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu Kodeksning mazmuniga ko'ra ta'lim tizimining har bir bosqichi, jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichining huquqlari, vazifalari va majburiyatlari aniq belgilab qo'yiladi.

Ushbu Qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalarini chuqurlashtirilgan tarzda o'zlashtirish ularning ma'no-mazmuniga e'tibor berish bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, har bir modda bir-birini to'ldirib kelishi mantig'iga diqqat qilish kerak. Unga ko'ra, bitta moddada aks etgan huquq va majburiyatlar navbatdagi moddalarda aniqlashtirib taqdim etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ushbu qonunni individual tarzda o'zlashtirishi kutilgan samarani beradi.

Qonunimizda boshlang'ich ta'limga oid huquq, vazifa va majburiyatlar aniq belgilab qo'yilgan. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining huquqlari ustuvor bo'lishi va o'qituvchilarning ta'lim berish texnologiyalarini erkin tanlash huquqiga egaligi masalalariga e'tibor berish kerak. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy vazifasi sifatida ta'lim olish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifalari esa o'quvchilarga sifatli ta'lim berish, jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda ularni tarbiyalash va o'quvchilarni keyingi ta'lim bosqichlariga yuksak darajada

tayyorlashdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining majburiyatlari maktab me'yoriy hujjatlariga va tartiblariga qat'iy rioya qilish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy majburiyati davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablarini bajarishdan iborat. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilar va pedagoglarning huquq, vazifa hamda majburiyatlarini aniq holda o'zlashtirishi taqozo etiladi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning boshlang'ich ta'limga oid sharhlarini o'zlashtirish. Mazkur qonunimizning boshlang'ich ta'limga oid normalarini sharhlar vositasida o'rganish muhim hisoblanadi. Bunday sharhlar quyidagi ko'rinishlarda taqdim etiladi:

- 1) bevosita Qonunning o'ziga berilgan sharhlar;
- 2) qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalariga maxsus berilgan sharhlar;
- 3) o'quv adabiyotlarida berilgan sharhlar.

Ta'lim to'g'risidagi qonunga muayyan o'zgarishlar yoki qo'shimchalar bo'lganida uning yangi nashrida bevosita bu holatlar aks ettiriladi. Shu sababli qonunni o'rganishda imkonqadar uning eng so'nggi nashriga tayanish tavsiya etiladi. Buning uchun rasmiy portallarda e'lon qilingan nashrga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalari huquqshunos, siyosatshunos va tajribali pedagoglar tomonidan maxsus sharhlanadi. Bunday sharhlar mamlakatimizda “O'zbekiston Respublikasi Qonunlari” majmuasida e'lon qilinadi va bunday majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan muntazam ravishda nashr etib boriladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mazkur manbadan foydalanish tavsiya etiladi. Ayni paytda, qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalari darsliklar, o'quv qo'llanmalar kabi o'quv adabiyotlarida ham sharhlab o'tiladi. Bunda asosiy e'tibor boshlang'ich ta'limga oid vazifalarning bo'lajak o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga qaratiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'quv adabiyotlarida berilgan sharhlar vositasida ham Qonunni o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

E'tibor berilsa, mamlakatimizda ta'lim to'g'risidagi Qonun umumiy ta'lim tizimi va boshlang'ich ta'lim bosqichining xususiyatlari to'g'risida aniq ko'nikma beradi. Kezi kelganda ta'kidlab o'tish lozimki, Qonunning normalari va uning sharhlarini belgilashda milliy qonunchiligimiz tajribasi hamda halqaro ta'lim to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarga asoslaniladi. Shu



sababli mazkur qonunimiz ekspertlar tomonidan yuqori baholangan.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limning qonun hujjatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni chuqur o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kiradi.

REFERENCES

1. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent, 2009.
2. Ahliddinov R. Maktab boshqaruvida ichki nazorat. – Toshkent, 1996.
3. Ahmedov R. O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi tizimini boshqarishning me'yoriy xususiyatlari. – Toshkent, 1997.
4. Mirqosimov M. Maktab boshqaruvining nazariy va pedagogik asoslari. – Toshkent, 1997.
5. Karimjonov A. Ta'lim tizimini boshqarish asoslari. – Toshkent, 2012 va h.k.
6. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovasiya va integrasiya. – Toshkent: 2021.



G.BARBADENSE L. НАВЛАРИНИНГ ҚИММАТЛИ ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРИНИ ОШИРИШГА ХИЗМАТ ҚИЛУВЧИ ЯНГИ ДОНОРЛАР ЯРАТИШ

Бахтияр Хушбакович Аманов

Чирчиқ давлат педагогика университети Генетика ва эволюцион биология
кафедраси мудири, б.ф.д.

Хумойиддин Сафар ўғли Амиров

Термиз агротехнологиялар ва инновацион ривожланиш институти ассистент
ўқитувчи

АННОТАЦИЯ

Взанинг *G.barbadense L.* туричи биохилма-хилликларини ўзаро дурагайлалш натижасида олинган F_4 ўсимликларида қимматли хўжалик белгилари, жумладан, битта кўсақдаги пахта вазни, тола узунлиги ва чиқими каби белгилар параллел равишда ортиши кузатилди. Бундан келиб чиқадики, F_4 ўсимликлари орасидан ўзида бир қатор қимматли хўжалик белгиларини мужассамлаштирган ноёб манбаларни ажратиб олиш мумкин.

Калит сўзлар: туричи, бошланғич манбалар, маданий тропик, оила, битта кўсақдаги пахта вазни, тола чиқими, вариация коэффициентини, донор.

ABSTRACT

A parallel increase in valuable economic traits, including cotton weight per boll, fiber length and yield, was observed in F_4 plants obtained by crossing *G.barbadense L.* with cotton biodiversity. It follows that among the F_4 plants one can single out unique resources embodying a number of valuable economic traits.

Keywords: intraspecific, primary sources, cultural tropic, family, weight of cotton per boll, fiber yield, coefficient of variation, donor.

КИРИШ

Маълумки, жаҳон энгил саноати юқори сифатга эга бўлган пахта толаларига муҳтождир. Ишлаб чиқарилаётган замонавий *G.barbadense L.* турига мансуб ғўза навларида битта кўсақдаги пахта вазни (2,5-3,5 г.) паст кўрсаткичга эгадир. Шунинг учун ингичка толали ғўза навларига фермер хўжаликларида экишга унча хоҳиш йўқдир.

Бизнинг олдимизга қўйилган асосий мақсад фақат унинг биологик ва хўжалик кўрсаткичлари эмас, балки тўқимачилик саноати ва фермер хўжаликларининг замонавий талабларига жавоб берадиган навларни яратишдан иборатдир.

Ўзанинг энг муҳим хўжалик белгиларидан битта кўсақдаги пахта вазни, тола узунлиги, тола чиқими каби қимматли белгиларини ўргандик. Бир қатор муаллифлар юқорида келтирилган қимматли хўжалик белгилар устида ўз изланишларини олиб борганлар [1; 4; 10; 11; 13; 14]. Н.Г.Симонгулян [9] ўзанинг *G.barbadense* L. навида тола узунлиги белгиси ҳам доминант, ҳам рецессив генлар ёки бу генларнинг турлича нисбати билан бошқарилишини таъкидлаган.

В.А.Автономов [5], В.А. Автономов, П.Ш.Ибрагимов [6] лар ўз изланишларида, дурагайлаш натижасида олинган F_1 , F_2 -ўсимликларида тола чиқими ота-она шакллари нисбатан оралик ўринни эгаллаши ҳамда ушбу белги бўйича кўрсаткичлари юқори бўлган ота-она шакллари томонига оғишини кузатганлар.

О.Х.Кимсанбаев [7; 8] олиб борган тадқиқотларида, ўзанинг *G.barbadense* L. турига мансуб F_1 -ўсимликларида кўсақ йириклигининг ирсийланиши тўлиқ устунлик ҳолатда кечиши, F_2 -ўсимликларнинг вариацион қаторида эса, олинган дурагайлар йирик кўсақли ота-она шакллари томонга оғанлиги ва йирик кўсақка эга бўлган ўсимликлар ҳосил бўлишини полимер генлар таъсирида эканлигини айтиб ўтган.

G.barbadense L. туричи хилма-хилликларининг F_1 -ўсимликларда битта кўсақдаги пахта вазни белгиси ижобий ва салбий доминантлик ҳамда ўта доминантлик, *subsp.vitifolium* ва Қарши-8 нинг реципрок F_1 комбинацияларида эса оралик ($h_p=0,04$ ва $h_p=-0,04$) ҳолатларида ирсийланди. Бу белгининг туричи ва турлараро F_2 ўсимликларидаги ижобий трансгрессияси асосида битта кўсақдаги пахта вазни 5,0-7,9 г. бўлган ноёб рекомбинант шакллар ажратиб олинган. F_2 ўсимликларда белгининг наслдан наслга берилиш коэффициенти (h^2) нинг 46,0-69,8 га тенглиги унинг намоён бўлишида 46,0-69,8 % генотипнинг ва 30,2-54,0 % ташқи муҳитнинг таъсири мавжудлиги аниқланган [2; 3; 12].

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ

Тадқиқотларимизда бошланғич манба сифатида иштирок этган ўзанинг *G.barbadense* L. туричи хилма-хилликларидан маданий тропик *ssp.vitifolium* кенжа тури ва



маданий Қарши-8 навида битта кўсақдаги пахта вазни белгиси бўйича 2,3-6,5 г. ни ташкил этди (1-жадвал).

Ўрганилган оилаларда битта кўсақдаги пахта вазни кўрсаткичлари юқори бўлиб 4,2-5,4 г. ни ташкил этди. Битта кўсақдаги пахта вазни белгиси бўйича нисбатан паст кўрсаткич ажратиб олинган О-7 оиласида (4,2 г.) кузатилди ва ўзгарувчанлик амплитудаси 3,9-4,6 г., вариация коэффиценти 7,6 % ни ташкил этди. О-2 оиласида битта кўсақдаги пахта вазни юқори (5,4 г.), ўзгарувчанлик амплитудаси 4,1-7,2 г., вариация коэффиценти эса 22,5 % ташкил этди (1-жадвал).

G.barbadense L. турининг туричи хилма-хилликларида тола узунлигини ўрганиш натижасида энг юқори кўрсаткич, кутилганидек маданий Қарши-8 навида (37,0 мм) кузатилди. Толанинг узунлигининг паст кўрсаткичи *ssp.vitifolium* кенжа турида (28,7 мм) аниқланди.

Туричи маданий тропик ва маданий навни ўзаро чапиштириш натижасида олинган оилаларда тола узунлиги белгиси 35,2-39,7 мм, ўзгарувчанлик амплитудаси 32-42 мм, вариация коэффиценти 1,64-6,54 %. Ажратилган оилалар ичида юқорида кўрсатилган тола узунлиги белгиси бўйича нисбатан паст кўрсаткич О-1 оиласида (35,2 мм) кузатилди ва ўзгарувчанлик амплитудаси 32,0-37,0 мм, вариация коэффиценти 4,19 % ни ташкил этди. Тола узунлиги белгиси бўйича юқори кўрсаткич О-3 оиласида (39,7 мм) кузатилди ва ўзгарувчанлик амплитудаси 38,0-41,0 мм, вариация коэффиценти эса 3,17 % эканлиги кузатилди (1-жадвал).

Тадқиқот учун олинган бошланғич манбаларда тола чиқими маданий Қарши-8 навида кўрсаткич юқори, яъни белги бўйича юқори (34 %) га тенг бўлди.

Тола чиқими белгиси бўйича нисбатан паст кўрсаткич 24,8 % ли натижа маданий тропик *subs.vitifolium* кенжа турида аниқланди.

Тажрибада ўрганилган F_4 -ўсимликларида тола чиқими 33,1-39,5 % гача бўлган ораликда жойлашди. Масалан, О-6 оиласида тола чиқими бўйича энг юқори натижа олиниб, тегишли равишда белги кўрсаткичи (39,5 %), ўзгарувчанлик амплитудаси 39,0-40,0 %, вариация коэффиценти 1,28 % намоён қилди, шу билан бирга F_4 -ўсимликларида эса энг паст тола чиқими О-2 оиласида (33,1 %), ўзгарувчанлик амплитудаси 31,3-34,6 %, вариация коэффиценти 3,39 % ни ташкил этди.

G.barbadense L. айрим туричи шаклларини дурагайлаш асосида олинган F₄-ўсимликларида қимматли хўжалик белгиларининг таҳлили

Бошланғич манбалар ва дурагай ўсимликлар	Битта қўсақдаги пахта вазни, г.			Тола узунлиги, мм.			Тола чиқими, %		
	$\bar{x} \pm S\bar{x}$	limit	V %	$\bar{x} \pm S\bar{x}$	limit	V %	$\bar{x} \pm S\bar{x}$	limit	V %
Бошланғич манбалар									
Қарши-8 нави	2,3 ± 0,13	2,0-3,0	17,9	37,0 ± 0,60	30,0-39,0	5,6	34,0 ± 0,63	30,0-36,0	5,8
ssp. vitifolium	6,5 ± 0,37	4,0-7,3	12,2	28,7 ± 0,63	26,0-32,0	6,9	28,4 ± 0,64	26,0-32,0	7,0
F₄-ўсимликлар									
Оила -1	4,9 ± 0,35	4,0-7,0	22,35	35,2 ± 0,47	32,0-37,0	4,19	36,7 ± 0,30	35,0-38,0	2,57
Оила -2	5,4 ± 0,38	4,1-7,2	22,51	38,8 ± 0,71	36,0-42,0	5,74	33,1 ± 0,35	31,3-34,6	3,39
Оила -3	5,0 ± 0,16	4,4-5,6	9,87	39,7 ± 0,40	38,0-41,0	3,17	33,9 ± 0,48	32,0-35,3	4,52
Оила -4	4,9 ± 0,26	4,2-5,9	16,70	38,0 ± 0,63	36,0-40,0	5,26	36,7 ± 0,26	36,2-37,7	2,23
Оила -5	5,2 ± 0,33	4,0-6,0	20,35	38,3 ± 0,48	37,0-40,0	3,99	39,5 ± 0,16	39,0-40,0	1,28
Оила -6	4,7 ± 0,13	4,3-5,1	8,67	35,6 ± 0,18	35,0-36,0	1,64	38,3 ± 0,36	37,0-39,2	3,01
Оила -7	4,2 ± 0,10	3,9-4,6	7,60	36,0 ± 0,53	34,0-38,0	4,65	37,6 ± 0,60	35,0-40,1	5,03
Оила -8	4,7 ± 0,18	4,1-5,4	11,85	38,5 ± 0,80	36,0-42,0	6,54	37,2 ± 0,26	36,1-38,0	2,20

ХУЛОСА

Олинган тадқиқот натижаларининг таҳлили шуни кўрсатдики, гўзанинг *G.barbadense L.* туричи хилма-хилликларини ўзаро дурагайлаш натижасида олинган F₄-ўсимликларида қимматли хўжалик белгилари, жумладан, битта қўсақдаги пахта вазни, тола узунлиги ва чиқими каби белгилар параллел равишда ортиши кузатилди. Бундан келиб чиқадики, F₄-ўсимликлари орасидан ўзида бир қатор қимматли хўжалик белгиларини мужассамлаштирган ноёб манбаларни ажратиш олиш мумкин.

REFERENCES

1. Абзалов М.Ф. Генетика и фенотипика важнейших признаков хлопчатника *G.hirsutum L.*: Автореф. Дисс. ... док.биол.наук.- М.: Институт общей генетики РАН, 1991. – 48 с.
2. Аманов, Б. Х. (2021). *G. BARBADENSE L.* ТУР ИЧИ ХИЛМА-ХИЛЛИКЛАРИНИ ДУРАГАЙЛАШ АСОСИДА ОЛИНГАН ЙИРИК КЎСАКЛИ ОИЛА ПОПУЛЯЦИЯЛАРИНИНГ АЙРИМ МОРФО-ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРИНИНГ УЗВИЙ БОҒЛИҚЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 856-863.
3. Аманов, Б. Х., & Закиров, Д. У. *G. BARBADENSE L.* ТУР ИЧИ ХИЛМА-ХИЛЛИКЛАРИНИ ДУРАГАЙЛАШ АСОСИДА ОЛИНГАН ЙИРИК КЎСАКЛИ ОИЛА ПОПУЛЯЦИЯЛАРИНИНГ АЙРИМ МОРФО-ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРИНИНГ УЗВИЙ БОҒЛИҚЛИГИ.
4. Холдоров, У. А., Хушбакович, А. Б., & Закиров, Д. У. ПЕРУ ҒЎЗА ТУРЛАРИНИ ТУРИЧИ ДУРАГАЙЛАШ ВА F₀

ДУРАГАЙ КЎСАК ВА КЎСАКЛАРДА ТЎЛИҚ УРУҒ ТУГИЛИШИ.

5. Абдиев Ф.Р. *G.barbadense* L. турига мансуб юкори авлод дургайлардан амалий селекцияга бошланғич материал яратиш: Автореф. Дисс. ... канд.биол.наук.- Т.: ЎзҒСУИТИ, 2011. – 23 б.

5. Автономов В.А. Наследование выхода и длины волокна у линейно сортовых гибридов F₁ *G.barbadense* L. на фоне инфицированы гоммозом // Вестник Аграрной Науки Узбекистана – Ташкент, 2005. – №(9). – С. 40-45.

6. Аманов, Б. Х., & Закиров, Д. У. *G. BARBADENSE* L. ТУР ИЧИ ХИЛМА-ХИЛЛИКЛАРИНИ ДУРАГАЙЛАШ АСОСИДА ОЛИНГАН ЙИРИК КЎСАКЛИ ОИЛА ПОПУЛЯЦИЯЛАРИНИНГ АЙРИМ МОРФО-ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРИНИНГ УЗВИЙ БОҒЛИҚЛИГИ.

7. Автономов В.А. Ибрагимов П.Ш. Ғўзанинг айрим дургайларида хўжалик жиҳатдан қимматли ирсий хусусиятларни тадқиқ қилиш // Пахтачилик журнали. – Тошкент, 1994. – №1 (2). – Б. 8-9.

7. Кимсанбаев О.Х. Наследуемость признаков, определяющих выход волокна гибридов F₂ хлопчатника *G.barbadense* L. // Вестник Аграрной Науки Узбекистана – Ташкент, 2004. – №4 (8). – С. 50-55.

8. Кимсанбаев О.Х. Выход волокна у гибридов хлопчатника // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. – Тошкент, 2005. – №1. – 14 б.

9. Холдоров, У. А., Хушбакович, А. Б., & Закиров, Д. У. ПЕРУ ҒЎЗА ТУРЛАРИНИ ТУРИЧИ ДУРАГАЙЛАШ ВА F₀ ДУРАГАЙ КЎСАК ВА КЎСАКЛАРДА ТЎЛИҚ УРУҒ ТУГИЛИШИ.

10. Симонгулян Н.Г. Генетика количественных признаков хлопчатника. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 3-124.

10. Саманов, Ш. А., & Аманов, Б. Х. (2020). Корреляция морфо-хозяйственных признаков у трехгеномных линий хлопчатника. Научно-практические исследования, (12-1), 76-78.

11. Соатова, Ф. Б., & Аманов, Б. Х. (2022). ҒЎЗАНИНГ ИНГИЧКА ТОЛАЛИ F₃ ДУРАГАЙЛАРИДА ҚИММАТЛИ ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРИНИНГ ЎЗГАРУВЧАНЛИГИ. Academic research in educational sciences, 3(2), 593-598.

12. AMANOV, B., MUMINOV, K., SAMANOV, S., ABDIEV, F., ARSLANOV, D., & TURSUNOVA, N. (2022). COTTON INTROGRESSIVE LINES ASSESSMENT THROUGH SEED COTTON YIELD AND FIBER QUALITY CHARACTERISTICS. SABRAO Journal of Breeding and Genetics, 54(2), 321-330.

13. Muminov, K., Ernazarova, Z., & Amanov, B. (2020). Cluster analysis of valuable economic traits in amphidiploid cotton hybrid plants. EurAsian Journal of BioSciences, 14(2).

14. Abdullaev, A. A., Rizaeva, S. M., Amanov, B. K., & Muminov, K. A. (2020). STUDYING AND ESTIMATION OF ECONOMIC VALUABLE TRAITS OF HIGHQUALITY VARIETY OF SPECIES *G. HIRSUTUM* L. FROM DIFFERENT ECOGEOGRAPHICAL ORIGIN GROUPS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 124-130.

ДУНЁ ВА РЕСПУБЛИКАМИЗ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДА ПИЛЛАЧИЛИКНИНГ ЎРНИ

Рамуза Парахатовна Мамбетова

Корақалпоғистон Кишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти
Ипакчилик ва Тутчилик кафедраси ассистенти

Фарида Байрам кизи Узакова

Корақалпоғистон Кишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти
Ипакчилик ва Тутчилик таълим йуналиши 3 босқич талабаси

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада дунё ва республикаимиз халқ хўжалигида пиллачиликнинг ўрни турли илмий далиллар ёрдамида таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: ипак, пилла, тола, ипакчилик, ипак курти, ёввойи ипак курти, ғумбак, капалак, элита, суперэлита.

КИРИШ

Инсон ўз ҳаёти давомида табиий ва сунъий толалардан фойдаланади. Хусусан, пахта, ипак, жун, канош ва бошқа хил толалардан турли газламалар, кийим-кечак, кўрпа-ёстиқ ва турли уй-рўзгор буюмлари тайёрланади. Табиий толалар орасида мустаҳкам, энг чиройли ва гигиеник жиҳатдан инсон учун энг фойдалиси ипак қуртлари ўраган пиллалардан чуватиб олинадиган ипак толаларидир. Табиий ипак тўқимачилик, радио, электроника, муҳофаа саноатлари ва медицинада кенг қўлланилади. Ипакчилик кўплаб мамлакатлар қишлоқ хўжалигида асосий ўринлардан бирини эгаллайди. Табиий ипак манбаи бўлган пилла етиштириш дунёнинг турли минтақаларида жойлашган мамлакатларда ривож топган. Табиий ипак толаларининг асосий қисми ипак курти ўраган дуб, айлант, клешивин ва тут ипак қуртлари ўраган пиллалардан олинади. Ёввойи ипак қуртларини хонакилаштириб, пилла етиштириш ва ундан нафис ипак толаларини олиш ҳамда бетакрор чиройга эга бўлган газламалар тайёрлаш бундан 4,5 минг йил аввал Хитойда амалга оширилган. Бошқа тарихий, хусусан, этнографик манбаларга қараганда табиий ипак етиштиришнинг ватани Туркистон замини бўлган. Тахминан 4 минг йил илгари ипак матолар тўқиш Фарғона водийси, Зарафшон дарёси бош қисмида бўлган. Бунга милоддан



аввалги иккинчи минг йилликдан бизгача етиб келган ипакли матолар далилдир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Дунё халқ хўжалигида пиллачиликнинг ҳозирги кундаги ҳолати. Бугунги кунда дунё бўйича ипакчилик соҳаси ривожланган 20 дан зиёд давлатларда 22-24 млн қути тут ипак қуртининг суперэлита, элита ва саноатбоп тухумлари тайёрланади ҳамда ишлаб чиқиладиган ипак қурти тухумларининг 80,1 фоизи Хитой Халқ Республикаси, 1,3 фоизи Ўзбекистон ва 6,0 фоизи бошқа давлатлар улушига тўғри келади. Ипакчилик соҳасида етакчи ҳисобланган Хитой Халқ Республикасида 200,7 минг қути, Ҳиндистонда 32,6 минг қути ва Ўзбекистонда 7-8 минг қути, бошқа давлатлар эса ўз эҳтиёжлари учун суперэлита ва элита тут ипак қурти тухумларини тайёрлайдилар. Ипакчилик ривожланган давлатларда 850-860 минг тоннадан зиёд пилла хомашёси тайёрланади, қолган бир қутидан олинадиган пилла ҳосили ХХР да 85 кг, Ҳиндистонда 80 кг ва Ўзбекистонда 57-59 кг ни ташкил этади. Бугунги кунда ипакчилик саноати дунёнинг етакчи тармоқларидан бири ҳисобланиб, ҳозирга келиб 60 дан зиёд мамлакатларда пилла ва ипакни қайта ишлаш йўли билан тайёр ипак матолари ишлаб чиқарилмоқда. "...дунё бўйича ипак ишлаб чиқариш охириги 5 йилда 15,7 фоизга кўпайиб, ялпи ипак маҳсулоти 192,694 тоннани ташкил этади. Хитой Халқ Республикасида 146000 тонна (82%), Ҳиндистонда 28708 тонна (16%), Ўзбекистонда 1100 тонна (0,6%) ни ташкил қилиб, қолган 1,4 фоизи Вьетнам, Таиланд, Бразилия, Шимолий Корея ва Туркия каби давлатларнинг ҳиссасига тўғри келмоқда. Ипак толасининг текислиги ва пиллаларнинг калибри бўйича бир хиллик даражаси ХХР, Ҳиндистон, Вьетнам ва Бразилияда 90-95% бўлса, Ўзбекистонда ўртача 50% га тенг. "...дунё бўйича ипак матоларининг халқаро савдо айланмаси 25 минг тонна ёки 2-2,3 миллиард доллардан ортиқни ташкил этмоқда. Бунда етакчи экспорт қилувчи давлатлар Хитой Халқ Республикаси – 49,2 фоиз, Италия 17,0 фоиз, Ҳиндистон – 7,1 фоиз, Франция – 6,1 фоиз, Япония – 4,5 фоиз, Корея – 4,4 фоиз, Германия – 2,5 фоиз, Буюк Британия – 2,1 фоиз ва Ўзбекистонда 0,005 фоизни ташкил этиши кузатишга тўғри келмоқда. Дунё миқёсида юқори метрик номерга (ингичка) эга ипак толаси берадиган пилла маҳсулотига талаб йил сайин ошиб бормоқда. Ипак маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи етакчи ХХР, Ҳиндистон, Италия, Франция ва Япония каби давлатлари пиллани қайта ишлаш корхоналарининг асосий талаби 3А, 4А, 5А типидagi ипак калаваларга қаратилган. Ингичка ипак толасидан нафис ипак матолари, жарроҳлик иплар ва электроника, авиация денгиз



флотида фойдаланиладиган ўта пишиқ табиий ипакдан тайёрланадиган товарлар ҳамда халқ хўжалигининг турли тармоқлари учун зарур маҳсулотлар ишлаб чиқарилади. Селекция ва наслчилик ишининг янги самарали услубиятларини ишлаб чиқиш орқали пилладан хом ипак чиқиши, толанинг умумий узунлиги, толанинг метрик номери (ингичкалиги), мустаҳкамлиги ва шу билан бирга турли иқлим шароитларга мос, пилла ҳосилдорлиги юқори зот ва дурагайларини яратиш борасида бир қатор ютуқларга эришилган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ипакчилик ўзбек халқининг ниҳоятда қадимий касбларидан бўлиб, унинг сир-асрорлари то ҳозирги кунларгача авлоддан-авлодга ўтиб келмоқда. Туркистон ўртасида ипакчилик тармоғини илмий асосда ривожлантириш мақсадида XIX аср охири – XX аср бошларида илмий ташкилотларга асос солинди. Хусусан, 1912 йилда Тошкент ипакчилик станцияси ташкил этилди ва 1927 йилга келиб унинг асосида Ўрта Осиё ипакчилик илмий-тадқиқот институти юзага келди (“Туркшелк” Ўрта Осиё акционерлик жамияти Бошқарув мажлисининг 1927 йил 12 ноябрдаги қарори асосида). Ушбу институт олимлари ва мутахассислари саъй-ҳаракатлари билан ипакчилик фанига асос солинди. Айниқса, қурт боқиш агротехникаси, тут ипак қурти генетикаси, селекцияси, наслчилик иши, тут селекцияси ва генетикаси, агротехникаси ва тут ипак қурти экологияси каби йўналишларда улкан ютуқларга эришилди. Тут ипак қурти жинсини сунъий равишда бошқариш, гетерозис, микдор белгилари генетикаси, биохимик генетика соҳасида олимларимиз эришган ютуқлар дунё биологолимлари томонидан тан олинди. Шунини таъкидлаб ўтиш жоизки, Туркистон ўлкасига етук олий маълумотли кадрларни тайёрлаш 1930 йилларда бошланади. 1934 йилга келиб, Тошкент қишлоқ хўжалик институти ташкил этилиб, унинг таркибида тутчилик ва пиллачилик кафедралари ташкил этилади. Мустақиллик йилларида ушбу институт Тошкент давлат аграр университети деб номланади. Бугунги кунга қадар ушбу олий таълим даргоҳида умумий 3000 дан зиёд ипакчилик агрономлари тайёрланиб келинган. Факультетни тамомлаган мутахассислар нафақат республикамиз балки Ўрта Осиё ва ҳамдўстлик давлатларида ҳам ўз илмий ва ишлаб чиқариш фаолиятларини олиб бормоқдалар. Мамлакатимизда фаолият олиб бораётган йирик олим ва мутахассислар томонидан яратилган янги ишламалар айниқса тут дарахтлари навлари, тут ипак қуртининг зотлари ва дурагайларини яратишда ҳам катта ютуқларга эришилган. Нафақат Ўзбекистонда, балки Ўрта



Осиё республикаларида ўстирилаётган тут навлари ва дурагайлари, кўпайтирилаётган ипак қурти зотлари, дурагайлари, қуртларни парваришlash агротехникавий қоидалари, тут ипак қурти наслчилик ишининг асосий услубий қоидалари, оқ пиллали ипак қурти дурагайлари парваришlash агротехнологияси, тут ва ипак қурти касалликларига қарши кураш чоратadbирлари, пиллаларга дастлабки ишлов бериш технологиялари, ипак қурти тухумлари, тут кўчатлари, пилланинг барча турларига давлатлараро ва республика стандартлари Ўзбекистон ипакчилик илмий тадқиқот институти олимлари ва мутахассислари томонидан яратилган. Ўзбекистон мустақилликка эришгач, олимларнинг тадқиқотлари янада самаралироқ бўлди. Кейинги йилларда тут ипак қуртининг йигирмага яқин янги дурагайлари яратилиб, давлат синовларига топширилиши ва улардан ўн тўрттаси районлаштириш учун қабул қилиб олинishi фикримизнинг далилидир. “Ўзбек ипаги” уюшмасининг 2001 йил 12 июнда чиқарган 56-сонли буйруғи асосида Ўзбекистон 5, Ўзбекистон 6, Турон 1, Ипакчи 1 x Ипакчи 2, Ипакчи 2 x Ипакчи 1 дурагайлари ташкил этувчи Орзу, Юлдуз, С-8, Ипакчи 1 ва Ипакчи 2 зотларини наслчилик станцияларида кўпайтириш ва уруғчилик заводларида саноатбот тухумларни тайёрлаш ишлари жадал суръатда олиб борилмоқда. Янги дурагайлarning энг муҳим хусусиятлари – ўраган пиллаларининг йирик, ипак толаси чиқиши юқори ҳамда пилла толасининг узун бўлиши билан изоҳланади. Ўзбекистон ипакчилик тармоғида салмоқли ютуқлар билан бир қаторда ҳали ўз ечимини кутаётган муаммоли масалалар ҳам бор.

Ипакчилик тармоғининг ривожланиш даражаси. Кейинги йилларда республикамизда ипакчилик амалиёти учун ниҳоятда муҳим бўлган йўналиш – такрорий қурт боқишда юқори пилла ҳосилдорлигига эришишнинг назарий ва амалий масалаларини тадқиқ этиш бўйича атрофлича изланишлар олиб борилмоқда. Бу борада, ипак қуртини ёз ва куз мавсумларига мослашган сермахсул зот ва дурагайлари яратиш, ноқулай паратипик омиллар таъсирини компенсациялаш, турли антисептиклардан насли қуртларни парваришlashда фойдаланиш бўйича муайян натижаларга эришилган ҳамда пиллачилик амалиётига кенг жорий этилган. Ёз ва куз мавсумларида такрорий қурт боқишга чидамли янги моновольтин зотлар иштирокида насли дурагайлари яратиш, такрорий қурт боқиш мавсуми учун уруғларни сақлашнинг оптимал муддатларини аниқлаш, генотипларни репродуктив ва пилла маҳсулдорлик белгилари бўйича генетик потенциалини тўлиқ намоён этиш имконини берувчи самарали услубиётларини ишлаб чиқиш муҳим илмий-амалий

муаммолардан ҳисобланади. Республикамизнинг ёз ва куз мавсумларида такрорий қурт боқишга чидамли ипак қурти дурагайларини яратиш бўйича бир қатор муайян натижаларга эришилмоқда. Аммо такрорий ипак қурти ёз ва куз мавсумларининг кескин ўзгарувчан, ноқулай табиий иқлим шароитида парваришlashга мос зот яратиш, пилла ҳосилини оширувчи агротехникаларни ишлаб чиқиш ва ишлаб чиқаришга жорий этиш, пилланинг маҳсулдорлик ҳамда технологик кўрсаткичларини ошириш борасидаги илмий тадқиқотларга етарлича эътибор қаратилмаган. Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда янада ривожлантиришга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясида қишлоқ хўжалигини хусусан, пиллачилик тармоғини ривожлантириш, унинг экспорт салоҳиятини ошириш масаласига алоҳида эътибор қаратилган. Бу йўналишда селекция ва наслчилик ишининг самарали усуллари кенг фойдаланган ҳолда мамлакатимизнинг кескин ўзгарувчан табиий иқлим шароитига чидамли, саноат корхоналари талабига жавоб берадиган янги зот ва насли дурагайларни яратиш, такрорий қурт боқиш учун тут ипак қурти тухумларини тайёрлаш, тухумларни совитгичларда сақлаш усуллари яратиш, уларнинг репродуктив ва пиллаларни маҳсулдорлик ҳамда технологик кўрсаткичларини яхшилашга оид илмий асосланган технология ҳамда услубийларни ишлаб чиқиш ва ишлаб чиқаришга жорий этиш илмий-амалий аҳамиятга эга бўлиб ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 мартдаги “Ўзбекистан саноат уюшмаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-2856-сонли, 2018 йил 12 январдаги “Республикада ипакчилик саноатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-3472-сонли ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 11 августдаги “2017-2021 йилларда пиллачилик тармоғини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида” ги 616-сонли бир қатор қарорлар қабул қилиниб, ушбу қарорлар соҳа ривожига асос бўлиб хизмат қилади. Мамлакатимиз Президенти ва Вазирлар Маҳкамаси томонидан пиллачилик қишлоқ хўжалиги ва саноатини ривожлантириш борасида қабул қилинаётган қарорларда тармоқни ривожлантириш ягона стратегияси ишлаб чиқилиб, уни барқарор ривожлантиришни таъминловчи, соҳани халқ даромад манбаига айлантириш ва дунё миқёсидаги нуфузини ошириш учун ипакчилик корхоналарини қайта жиҳозлаш, хорижий инвестицияларни жалб қилиш орқали ишлаб чиқариладиган тайёр маҳсулотлар сифатини кескин яхшилаш орқали ипакчилик тармоғи экспорт салоҳиятини ошириш билан дунё бозорига кириб бориш ва муносиб ўринни эгаллаш кўзда тутилган. Ушбу



қарорлар ижросидан келиб чиқиб, фермер хўжаликларида мавжуд тутзорларни кўриб чиқиш, уларни реконструкция (қайта тиклаш) қилиш, сув тежамкор суғориш технологияларини қўллаш орқали янги тутзорлар ташкил этиш; - фермер хўжалиklarининг тут ниҳоли ва кўчатига бўлган эҳтиёжини таъминлаш мақсадида Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда 30 га суғориладиган ер майдонларида тутчиликка ихтисослашган махсус фермер хўжалиklarини ташкил этиш;

-мавжуд насли уруғчилик станциялари ва уруғчилик корхоналарини қайта жиҳозлаш ва хорижий инвестицияларни юритиш; -насли уруғчилик станциялари ва уруғчилик корхоналарида тайёрланадиган суперэлита, элита ва саноатбоп тут ипак қурти уруғлари сифатини кескин яхшилаш ҳамда келгусида фермер хўжалиklarининг тут ипак қуртига бўлган эҳтиёжини тўлиқ таъминлаш;

-республика фермер хўжаликларида парваришланадиган тут ипак қурти уруғларидан тайёрланадиган пилла хомашёсини кўпайтириш ва унинг сифатини саноат корхоналари талабларига мослаштириш;

-пиллага дастлабки ишлов бериш корхоналарини қайта жиҳозлаш ва пиллага дастлабки ишлов беришда янги техника ва технологияларни жорий этиш;

-пилла йигирувчи корхоналарига инвестицияларни жалб қилиш ва уларни қайта жиҳозлаш орқали, дунё бозори талабларига жавоб берадиган хом ипак толаларини ишлаб чиқариш;

-тайёр ипак матолари ишлаб чиқарувчи тўқимачилик корхоналари фаолиятини қайта тиклаш, уларни хорижий дастгоҳлар билан янгидан жиҳозлаш орқали сифатли экспортбоп табиий ипак матолари ишлаб чиқариш.

Юқоридаги топшириқлар ижросини таъминлаш ҳамда уни ишлаб чиқаришга тўлиқ жорий этишда илмий тадқиқот институтлари ва Олий таълим муассасаларини жалб этиш:

-Ипакчилик илмий-тадқиқот институти ва Тошкент давлат аграр университетида ипакчилик ва тутчилик йўналишларида етук, малакали бакалавр, магистр ва илмий тадқиқотчиларни тайёрлаш;

-ипакчилик тармоғи илмий-тадқиқот ишларининг стратегик йўналишлари ва истиқболли мавзуларни белгилаш, соҳани жадал ривожлантириш ва юзага келадиган долзарб муаммолар бўйича илмий изланишлар олиб бориш орқали, ечимини қутаётган масалалар назарий ва амалий натижалари устида аниқ ечимларни ишлаб чиқиш;

TIL O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Guljan Azizbekovna Anarbekova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada til o‘qitish jarayonida bilish, leksik, grammatik, talaffuz tushunchalarini to‘g‘ri shakllantirish, talabalar ongida bilimlar sistemasini o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini to‘g‘ri tarkib toptirish innovatsion pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismi ekanligi, hozirgi kunda ta‘lim jarayonida bilim berishning samarali usullari, o‘qituvchi pedagoglar ko‘zlagan maqsadlariga erishishning kafolatlangan o‘qitish uslublari, talabalarda erkin fikrlash, mustaqil qaror chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradigan, ularni muammoli vaziyatlarda bilim malakalariga tayanib ish ko‘rishga zamin hozirlashga qaratilgan o‘qitish usullari pedagogik texnologiyaning eng ilg‘or xususiyati ekanligi ta‘kidlangan

Kalit so‘zlar: innovatsiya, metod, texnologiya, nutqiy mashq, o‘yin mashq metodi, ijodiy izlanish o‘yini.

ABSTRACT

In the article, the correct formation of knowledge, lexical, grammatical, pronunciation concepts, the ability to self-control the system of knowledge in the mind of students is a component of innovative pedagogical technologies, effective methods of imparting knowledge in the educational process today, guaranteed to achieve the goals set by teachers and pedagogues. teaching methods, teaching methods that form students' free thinking, independent decision-making skills and prepare them to work in problem situations based on knowledge skills are the most advanced features of pedagogical technology.

Keywords: innovation, method, technology, speech exercise, game method, creative search game.

KIRISH

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta‘lim tizimiga e‘tibori va uning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Bugungi kunda o‘zining mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy

qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvchi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyatlari yaratildi. Bugungi kunda ta'limda, xususan, til va adabiyot o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarda keng foydalanilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til o'qitish jarayonida bilish, leksik, grammatik, talaffuz tushunchalarini to'g'ri shakllantirish, talabalar ongida bilimlar sistemasini o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasini to'g'ri tarkib toptirish innovatsion pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismidir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida eng samarali, o'qituvchi pedagoglar ko'zlagan maqsadlariga erishishning kafolatlangan o'qitish uslublari, talabalarda erkin fikrlash, mustaqil qaror chiqarish ko'nikmasini shakllantiradigan, ularni muammolarini yechishlari, turli vaziyatlardan qiynalmasdan chiqib ketishlari uchun zamin hozirlashga qodir bunday o'qitish usullari pedagogik texnologiyaning eng ilg'or xususiyatidir.

Xususan, tilni o'qitishda bir qancha uslublarni qo'llagan holda amalga oshirish mumkin.

Tilni o'qitishning natijalari birinchi navbatda, mashqlar sistemasi orqali aniqlanadi, chunki til o'rganishdagi amaliy maqsad ya'ni, nutq faoliyatining barcha turlarini egallash mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Mashq deganda, ma'lum bir faoliyatni egallashga qaratilgan yoki shu faoliyatni o'quv jarayonlarida takomillashtirishga qaratilgan alohida yoki ketma-ket bajariladigan operatsiyalar yoki ko'nikmalarga adekvat ya'ni, mos bo'lishi kerak. Metodik adabiyotlarda mashqlarning turlicha klassifikatsiyalarini ko'rishimiz mumkin. Bu turlicha prinsiplarga asoslanadi. Masalan: kommunikativlik prinsipiga ko'ra, 3 tipdagi mashqlarni farqlashimiz mumkin:

Ma'lumki, har qanday badiiy asar asosida badiiy til yotadi. Yozuvchi til yordamida ma'lum bir o'zi tasvirlayotgan inson, ma'lum bir zamon, davr obrazini yaratadi. Asardagi voqealar qahramon-inson ichki olami, ruhiyati orqali tasvir maydoniga aylanadi. "Xullas, romanda yozuvchi uchun ichki dunyoning – ruhning kechinmalarini tashqi qiyofa, holat va xattiharakatlarda ko'rinishini tasvirlash, ya'ni dinamik prinsip asosiy mezondir" [5]. Shu ma'noda Mark Tven ham "Janna d' Ark" romanidagi har bir personajning tashqi

qiyofasi, yuz tuzilishi, mimikalari, eng muhimi nutqi orqali ularning ichki olamini, psixologiyasini ochib berishga intiladi.

Masalan, quyidagi parchada roviy shahzoda va uning a'yonlari ruhiyatini ochib bergan:

(Janna bo'lajak qirolga uning yuragini kemirayotgan teran sirni ochganda, undagi ikkilanish tarqagan edi. U qiz Xudo tomonidan yuborilganiga ishongan va agar ixtiyor unda bo'lganda edi, qizni darhol buyuk topshiriqni bajarishga yuborgan bo'lar edi. Biroq, u o'zi mustaqil faoliyat yuritolmasdi. Tremuyl va reymslik "hazrati tulki" uni yaxshi bilishardi. Ular nima deyishsa, shu bo'ladi, va ular shunday dedilar: – Hazrati oliylari, Siz qizning ovozlari siz va faqat Xudoga ayon bo'lgan sirni aytishdi, deyapsiz, ammo uning Xudosi shayton emasligini siz qaerdan bilasiz – u shayton xabarchisi emasmi?)

Roviy nutqidagi tasvirda shahzoda so'zlovchining ongida harakatlanmoqdaki, bu, avvalo, roman ichki olamining barcha unsurlari personaj xarakterini ichkaridan ochib berishga yo'nalmoqda, ikkinchidan, esa mazkur personajlar ruhiyati, xayolida dofin orqali Jannaga qarshi kurash niyati mavjud. Natijada ko'z o'ngimizda obrazlarning zimdan psixologik kurashi namoyon bo'lmoqda. Bu yerda ikki kurashuvchi tomonlarni bog'lab turuvchi bo'lajak qirol ruhiyati bo'sh va kuchsizligi ikkala tomonga ham ma'lum bo'lib, har ikki tomon ham shahzoda ruhiga, uning ichki kuchiga ta'sir o'tkazishga harakat qilishgan. Tasvirlanayotgan obrazning ichki olamidagi ikkilanish, uning voqelikni teran anglamasligi va qat'iyatsizligi orqali yozuvchi voqelikka o'zining munosabatini ham bildirgan. Bu yerga u garchi xolis, voqealar jarayoniga aralashmayotgandek tuyulsa-da, oxir oqibat mazkur betaraflikni bayon qilishdan maqsadi ko'rinadi. Bu o'ta murakkab, psixologik jihatdan qaltis vaziyatda qo'llaniladigan nozik usul bo'lib, aslida yozuvchi Jannaga o'tkazilgan bosim, uning ruhiyatiga ta'sirni ko'rsatmoqchi. Chunki oddiy dehqon qiziga qarshi chiqqan raqiblar kichik odamlar emas, tajribali, bilimli, jamiyatning yirik zodagonlari va diniy arboblari hisoblanadi. Zero, ularning bir ritorik murojaat va ikkita so'roqlari zamirida personajlar ruhiyati, yashirin niyatini oshkor qiluvchi ichki nutqi, qahramonlar xayolining funksiyasini kuzatish mumkin. Ular biri ruhoni bo'lgani holda Xudo nomidan aytilgan gapga qarshi chiqish orqali o'zining tilidagi gapi va asl maqsadida farq borligini, aslida uning ruhoniyatida allaqachon buzilish yuz berib bo'lganini o'zi anglamagan holda oshkor etib qo'yadi

Bundan tashqari bu parcha dialogik nutqning bir qismi bo'lib, roviy uni o'z sub'ektiv idroki orqali bayon etishida ong oqimining vositali shakli ko'rinadi. Ya'ni, u personajlarning ongidagi asosiy maqsad personaj vosita orqali ikkinchi tomonga yo'naltirilgan.

Lekin buni Janna eshitmaydi, ammo sezadi. Asarda Janna tasviri ham personajlarning ruhiy-sub'ektiv munosabati orqali ko'rsatilgan. Natijada ikki o'rtadagi psixologik ziddiyatning ochiq ko'rinishi ikki tomonning shahzodaga bo'lgan munosabati va turli mimikalari, psixologik vositalar orqali tasvirlangan psixologik belgilar sifatida yuzaga chiqadi.

- вақтини асосан интернет тизимида ўтказиши оқибатида марказий нерв системасидаги муоммолар, хотиранинг пасайиши;
- машғулотларнинг ҳаддан ташқари юкланиши ва гиподинамия ҳолати;
- кун давомида турли хил фаолият турларининг (таълим, ўйин ва меҳнат) мантиқсиз алмашинуви;
- кундалик режимнинг тўғри шакллантирилмаганлиги ва бошқа муаммолар.

Умумтаълим мактабларида 5-7 синф ўқувчилари орасида ўтказилган сўровнома натижалари уларда соғлом турмуш тарзи ва кундалик режимга нисбатан ижобий, онгли муносабатнинг шакллантирилмаганлигини аниқлаш имконини берди. Мактаб ўқувчиларининг дарсдан кейинги бўш вақтини унумли ва самарали ташкил қилиниши, шубҳасиз болаларни соғлом турмуш тарзига ижобий рағбатлантиришни шакллантириш ва соғлигига маъсулиятли муносабатда бўлиш, вақтнинг қадрига етишига ўргатиш биринчи навбатда мактаб ва оила ўртасидаги ташкил қилинган тўғри муносабатга ота-оналар ва ўқитувчилар жамоасининг мақсадли ташкил қилинган биргаликдаги фаолиятига боғлиқ. **Мактаб ўқувчиларининг дарсдан ташқари бўш вақтларини, шахсий ишини тўғри ташкил қилинишида маъсул таълим субъектлари қуйидагилардир:**

- ота-оналар;
- синф раҳбарлари;
- фан ўқитувчилари;



- кўшимча таълим ўқувчилари;
- тўгарак раҳбарлари;
- мактаб психологи;
- мактаб тиббиёт ходимлари ва ҳ.з.

Мазкур таълим субъектлари мактабда биргаликда соғлом турмуш тарзини ўқувчиларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларидан келиб чиқиб ташкил қилинишига маъсул бўлиб, синф раҳбарлари ота-она ва ўқитувчилар ўртасида бола шахси ривожланишида маънавий воситачи ролини ўйнаши лозим. Шу ўринда ота-оналар билан бирга синф раҳбарлари бу жабҳада асосий етакчи рол ўйнайди. Умумтаълим мактабларида 5-7 синф ўқувчилари билан олиб борилган сўровнома таҳлили боланинг дарсдан ташқари шахсий ишини индивидуал ва ёш хусусиятларига мос равишда ташкил қилиниши бўйича ота-оналаримиз етарлича малака ва кўникмаларга эга эмаслигини аниқлаштиради. Шу ўринда маҳаллий тадқиқотчиларимиздан Н.Кошанова синф раҳбарларининг функционал вазифаларини таҳлил қилган ҳолда, **“синф раҳбари”** тушунчасига шундай қуйидагича таъриф беради: **“Синф раҳбари – бу ота-оналар (боланинг қонуний вакиллари), ўқитувчилар ва бошқа таълим субъектлари билан биргаликда ўқувчининг индивидуал ўқув траекториясини ишлаб чиқувчи ва амалга оширувчи, умумэтироф этилган хулқ-атвор қоидалари ва талаблари асосида ўқувчиларнинг жамиятда муваффақиятли ижтимоийлашуви, ўз-ўзини ривожлантириши ва англаши учун кўмаклашувчи, бола манфаатини ҳар томонлама ҳимоя қилувчи таълим субъекти, жамият ва бола ўртасида маънавий воситачи, координатор”** [6;30]. Н.Кошанова ўқувчиларнинг дарсдан кейинги бўш вақтларини унумли ташкил қилишда синф раҳбарлари асосий йўналтирувчи таълим субъектларидан бири эканлигини ва бу борада таълим салоҳияти паст ота-оналар билан тизимли ишлаши кераклигига кенг урғу беради. Тадқиқотчи ўқувчиларнинг шахсий ишининг тўғри ташкил қилинишига лоқайдлик ҳолатининг мавжудлиги, таълим субъектларининг асосан дарс жараёнига кўпроқ эътибор қаратиши, аммо дарсдан кейинги ҳолатнинг назорат қилинмаслиги оқибатида болаларда қатъий кундалик режимнинг йўқлиги, соғлом турмуш тарзи қоидаларига риоя қилмасликларининг асосий сабаби сифатида кўрсатади.

Тартибли ҳаёт ўсиб келаётган боланинг жисмонан ва маънан нормал шаклланишида жуда муҳим. Бу энди мактабга қадам қўйган боланинг янги ҳаётга кўникиши ва дам олиш ва таълим жараёнини уйғунлаштиришига ёрдам беради, ҳамда



асабийлашиш, кўзгалувчанликни олдини олган ҳолда, кун давомида боланинг ишлаш қобилиятини сақлаб қолади. Уйқунинг миқдори ва сифати, овқатланиш ва ҳаракатчаннинг бола ёшига нисбатан меъёрида ташкил қилиниши мактаб ўқувчисининг соғлигига энг катта таъсир қилувчи омиллардан ҳисобланади. Уйқу миқдори 2-2,5 соатга меъёридан кам бўлган болаларда таълимий ўзлаштириш кўрсаткичи пасайиб боради.

Жадвал. Мактаб ўқувчиларининг ухлаш меъёри.

№	Синфлар	Уйқу вақти
1.	1-4 синфлар	10-10,5 соат
2.	5-7 синфлар	10,5 соат
3.	6-9 синфлар	9-9,5 соат
4.	10-11 синфлар	8-9 соат

Демак ҳар бир фаолият шаклларимизда сифатга эришиш учун белгиланган меъёрга риоя қилишимиз лозим. Бизнинг фикримизча, ўқувчиларнинг дарсдан кейинги шахсий ишини тўғри ва мақсадли ташкил қилиш уларнинг жамият талаблари асосида ҳар томонлама ривожланишида аҳамиятли эканлиги, соғлом турмуш тарзини шакллантириш самарадорлиги қуйидаги педагогик шарт-шароитларни яратиш ва амалга оширишга боғлиқ:

- соғлом ва маъсулиятли шахсни тарбиялашда оила ва мактабнинг фаол ҳамкорлигини таъминлаш;
- мактабдан ташқари вақтларда тарбиявий ва жисмоний соғломлаштирувчи ишларни ташкил қилиш;
- болаларда вақтга ва соғлиқга нисбатан қадриятли муносабатни шакллантириш;
- ўқитувчилар, ота-оналарнинг педагогик ва гигиеник билимларини ривожлантириш;
- турли хил фаолият турлари: ўқув, ўйин, меҳнат фаолият турларини оқилона алмашиш асосида ўқувчиларнинг кундалик режимида интеграциялашган ҳолатни юзага келтириш ва ҳ.з.

Тадқиқот ишимиз давомида қуйидаги тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Келажак авлодда соғлом имиджни шакллантириш бўйича оила ва мактабнинг биргаликдаги фаолиятини ташкил қилиш механизмларини ишлаб чиқиш лозим.

2. Соғлом авлодни тарбиялашда Халқ таълим вазирлиги ҳамда Соғлиқни сақлаш вазирлигининг мақсадли қўшма



лойиха дастурларини ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этиш лозим.

3. Таълим субъектларининг ўсиб келаётган болаларда соғлом турмуш тарзи кўникмаларини шакллантиришга қаратилган биргаликдаги фаолиятини мувофиқлаштириш асосида болаларнинг ҳаёти, соғлигини мустаҳкамлашга эришиш.

4. Ёшлар орасида соғлом турмуш тарзи ҳақида билимларни шакллантиришга маъсул бўлган ота-оналар, ўқитувчи-педагогларга услубий ёрдам кўрсатиш ишларини йўлга қўйиш.

5. Ўқув йилининг бошланиши ва якунида умумтаълим мактабларида олий таълим профессор ўқитувчилари, тиббиёт ва жисмоний маданият ходимлари, мактаб ўқитувчилари ҳамда ота-оналар иштирокида ўқувчиларнинг ўқув юки нормаси, жисмоний ҳаракатсизликни бартараф этиш ёки жисмоний юкларнинг ҳаддан ортиб кетишининг олдини олиш, умуман олганда соғлом турмуш тарзининг долзарб масалалари бўйича ўқув семинарларини ташкил қилиш.

6. Педагогика йўналишидаги олий таълим муассасаларида қайси фан ўқитувчиларини тайёрлашдан қатъий назар, бўлажак ўқитувчиларда соғлом турмуш тарзи ҳақида билим ва кўникмаларни шакллантиришда махсус чуқурлаштирилган фан киритилиши мақсадга мувофиқдир.

ХУЛОСА

Мактаб ўқувчиларининг дарсдан кейинги бўш вақтини унумли ва самарали ташкил қилиниши, шубҳасиз болаларни соғлом турмуш тарзига ижобий рағбатлантиришни шакллантириш ва соғлигига маъсулиятли муносабатда бўлиш, вақтнинг қадрига етишига ўргатиш биринчи навбатда мактаб ва оила ўртасидаги ташкил қилинган тўғри муносабатга, яъни мақсадли ташкил қилинган биргаликдаги фаолиятига боғлиқ. Шу ўринда ота-оналар билан бирга синф раҳбарлари бу жабҳада асосий етакчи рол ўйнайди. Ота-оналар боланинг ҳаётида дарс, ўйин ва овқатланиш, дам олиш вақтининг ёш хусусиятига қараб тўғри тақсимлашга, бола гўдаклигидаёқ соғлом турмуш тарзи қоидаларига амал қилиши, зарур бўлганда тегишли қўлланмалардан фойдаланиб ота-оналик вазифасини тўғри бажариши лозимлигини англашлари зарур. Шундагина биз жамиятда етук, ҳар томонлама соғлом авлодни тарбиялашдек шарафли ва маъсулти вазифани уддалай олишимиз мумкин бўлади.

REFERENCES

1. «Халқ таълими тизимидаги мактабдан ташқари таълим самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. 2019 йил 30 сентябрдаги президент қарори. www.Lex.uz
2. “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2018 йил, 14 августдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори.
3. О.Мусурмонова. Юқори синф ўқувчиларининг маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари // пед. доктори дисс. Т-1993. -Б.364.
4. В.А.Сухомлинский. Как воспитывать настоящего человека. -Киев.1975.-С.235.
5. С.А. Тоштемирова. Кластер ёндашуви асосида умумий ўрта таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш. //дисс. педагогика фанлари фалсафа доктори (PhD). Чирчиқ-2021. Б.-160.
6. Г.И.Куценко, И.Ф.Кононов Режим дня школьника. Москва. Медицина. 1987. -С.108.
7. Н.М.Кошанова. Умумтаълим мактабларида синф раҳбарлари фаолиятини ривожлантириш механизмлари //дисс. педагогика фанлари фалсафа доктори (PhD). Чирчиқ-2022. Б.-160.
8. А.Р. Шахриев. Педагогические основы оптимизации режима двигательной активности младших школьников во внеучебное время //дисс. пед. наук. канд. 13.00.01. Москва. -С.237.
9. О.П.Грицина. Гигиеническая оценка условий пребывания и состояние здоровья детей, посещающих организации дополнительного образования // 14.02.01.- Гигиена. Автореферат дисс. на соискание ученой степени кандидата медицинских наук. Владивосток-2018.-С.28.

ФАРҒОНА ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ҲУДУДИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Ю. И. Ахмадалиев

Фарғона давлат университети география кафедраси профессори, география
фанлари доктори

З. Х. Мадаминов

Фарғона давлат университети география кафедраси ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Маълумки озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш қишлоқ хўжалиги билан узвий боғланган. Ушбу мақолада Фарғона вилояти қишлоқ хўжалигида озиқ-овқат маҳсулотлари етиштириш ва унинг ҳудудий таркиби таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: озиқ-овқат маҳсулотлари, истеъмол, озиқ-овқат маҳсулотларини етиштиришнинг ўртача қийматлари, озиқ-овқат маҳсулотларининг аҳоли жон бошига тўғри келувчи миқдорий кўрсаткичи

ABSTRACT

It is known that food production is inextricably linked with agriculture. This article analyzes food production in agriculture of the Fergana region and its territorial composition.

Keywords: food products, consumption, average prices for food products, quantity of food products per capita.

КИРИШ

Маълумки мамлакат аҳолисини асосий озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминловчи тармоқлардан бири қишлоқ хўжалиги бўлиб, аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабнинг катта қисми маҳаллий қишлоқ хўжалигига боғлиқдир. Фарғона вилоятида 2021 йилда 28223,2 млрд сўмлик қишлоқ хўжалик маҳсулоти ишлаб чиқарилган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Вилоят 2021 йилда 790,1 минг т донли экинлар, 354,4 минг тонна картошка, 1400,5 минг т сабзавот, 158,2 минг т полиз экинлари, 371,1 минг т мева, 181,7 минг т узум, 175,5

минг т гўшт, 1077,8 минг т сут, 590,9 минг дона тухум, 12,2 минг т тонна балик етиштирилган.

Вилоятда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришнинг ҳудудий таркибига кўра маъмурий бирликлар ўртасида фарқларни кўриш мумкин. Донли экинлар асосан Қўштепа, Бағдод, Бешариқ, Риштон туманлари етиштирилса, картошка етиштириш Бағдод, Қўштепа, Қува туманларида етиштирилишини кўришимиз мумкин. Олтиариқ, Риштон, Тошлоқ, Қўштепа туманлари сабзаёт экинлари етиштиришда олдинги ўринларда туришини кўришимиз мумкин. Полиз экинлари етиштириша Қўштепа тумани бошқа туманларга нисбатан анча олдинда бўлиб, бу туман полиз экинлари етиштиришда ўзидан кейинги тумандан анча олдинда эканлигини кўришимиз мумкин. Мева етиштириш вилоятнинг Фарғона, Қува, Риштон, Бағдод туманларида юксак ривожланганлигини кўришимиз мумкин. Жумладан Фарғона тумани шафтоли ва олманинг турли туман навларини, Қува тумани анор, гилос каби меваларни етиштиришда нафақат вилоят балки Республикада ҳам етакчи ўринлардан бирида туради. Шунингдек Риштон тумани ўриклари ҳам анча машҳур. Вилоятнинг Олтиариқ туманида деҳқончилигининг анъанавий соҳаси бўлган узум етиштириш жуда юқори даражада ривож топган бўлиб, туман бу борада Республикада етакчилардан ҳисобланади.

Шунингдек, Фарғона тумани гўшт ишлаб чиқаришда, Олтиариқ, Бешариқ, Фарғона туманлари сут ишлаб чиқаришда, Бешариқ, Данғара туманлари тухум етиштиришда, Ёзёвон, Бешариқ, Бағдод туманлари балик етиштиришда вилоятда етакчи ҳисобланишади(1-жадвал).

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва у билан аҳолини таъминлаш долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Вилоят маъмурий бирликлари табиий шароити, аҳолининг меҳнат малакаси қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштириш ва аҳолига етказиб беришда муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Вилоят ҳудудининг асосий қисми текислик ҳудудларидан иборат бўлганлиги, фақат жанубий қисми тоғ ва тоғ олди, адирларнинг (Фарғона, Сўх, қисман Бешариқ, Олтиариқ, Қува туманлари) мавжудлиги ўзига хос ва мос қишлоқ хўжалик экинлари етиштиришни талаб этади.

Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштиришда маъмурий бирликлар ўрни таҳлили шуни кўрсатадики, Бағдод тумани қишлоқ хўжалигида (10 турдаги) озиқ-овқат маҳсулотларини етиштиришнинг ўртача қийматлари ҳисобланганда етакчи эканлигини кўришимиз мумкин. Бағдод туманида 10 та озиқ-овқат маҳсулотини етиштиришнинг ўртача қиймати энг паст, яъни 3,8 ни ташкил

этди. Бағдод тумани 1 марта биринчи ўринни (картошка етиштиришда), 4 марта иккинчи ўринни (донли экинлар, полиз, гўшт, балиқ) эгаллаган. Туманнинг узум етиштириш кўрсаткичи энг паст бўлиб, бу маҳсулотни етиштиришда иккинчи ўрин туради.

1-жадвал

Фарғона вилояти қишлоқ хўжалигида айрим озиқ-овқат маҳсулотларини етиштиришнинг ҳудудий таркиби (2021 йил, % ҳисобида)

№	Маъмурий ҳудудий бирлик	Донли экинлар	Картошка	Сабзаот	Полиз	Мева	Узум	Гўшт	Сут	Тухум	Балиқ
1.	Фарғона ш	0,3	1,5	1,0	0,2	1,4	0,4	5,4	1,2	6,4	1,5
2.	Марғилон ш	0,0	0,8	0,7	0,0	1,7	2,1	3,1	0,6	1,6	0,0
3.	Кўкон ш	0,2	1,2	0,3	0,0	0,3	0,2	1,0	0,5	1,1	0,0
4.	Қувасой ш	1,2	4,0	2,3	1,5	14,0	2,7	4,8	3,8	8,1	0,3
	туманлар:										
5.	Бешариқ	8,7	6,2	6,7	11,2	8,0	0,9	5,1	8,0	13,1	15,9
6.	Боғдод	8,8	10,3	6,8	13,0	8,4	3,6	7,5	6,9	6,7	17,3
7.	Бувайда	8,3	4,5	4,8	7,5	2,2	3,5	6,2	6,7	4,7	4,3
8.	Данғара	7,9	3,8	3,8	3,3	2,1	3,8	5,0	7,4	7,7	5,3
9.	Ёзёвон	6,7	5,8	3,3	2,6	1,5	2,6	2,7	3,9	3,6	24,4
10.	Қува	6,3	8,8	7,3	5,4	9,4	3,6	6,1	7,0	3,6	5,1
11.	Кўштепа	9,8	9,1	10,3	20,3	4,3	13,7	4,9	5,9	6,5	2,8
12.	Олтиариқ	5,6	6,8	14,2	12,4	4,3	32,0	7,2	9,2	3,7	1,6
13.	Риштон	8,7	3,9	11,2	6,4	8,6	2,7	5,3	5,8	4,2	2,5
14.	Сўх	0,7	5,4	0,6	0,0	2,5	0,0	1,5	3,1	1,3	0,1
15.	Тошлок	4,9	6,4	7,4	3,5	4,3	4,2	5,2	4,5	4,5	6,2
16.	Ўзбекистон	5,0	7,9	5,6	6,6	6,5	9,8	5,8	6,8	5,3	1,4
17.	Учкўприк	6,2	5,5	5,2	4,4	5,8	0,7	5,8	5,6	7,2	4,7
18.	Фарғона	2,8	4,7	5,6	0,4	13,5	12,9	13,6	7,8	5,6	0,7
19.	Фурқат	7,7	3,5	2,9	1,4	1,2	0,6	3,7	5,3	5,1	5,8
	Жами	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Манба: Жадвал Фарғона вилояти статистика бошқармаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан яратилган

Маъмурий бирликлар ичида Олтиариқ тумани озиқ-овқат маҳсулотларини етиштиришнинг ўртача қийматлари ҳисобланганда энг кўп биринчи (3 марта) ўринни олган. Жумладан туман сабзаот, узум, сут етиштиришда вилоятда биринчи ҳисобланишига

қарамай, донли экинлар, тухум, мева, балиқ етиштиришдаги ўрни анча пастлиги сабаб, туман умумий рўйхатда 4 ўринни банд этган.

Озиқ-овқат маҳсулотларини етиштиришнинг ўртача қийматлари ҳисоб-китобларига кўра Қўштепа тумани эгаллаган бўлиб, туман донли экинлар, полиз экинлари етиштиришда биринчи, картошка ва узум етиштиришда иккинчи ўринларни, сабзаот етиштиришда учинчи ўринни эгаллаган бўлиб, ўртача қиймат 5,6 га тенг.

Вилоятнинг қишлоқ хўжалигида озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи учинчи тумани Бешариқ тумани бўлиб, туман тухум етиштиришда етакчиликни, сут етиштиришда иккинчи, донли экинлар ва балиқ етиштиришда учинчи ўринларни банд этган. Ўртача қиймат 5,8 га тенг.

Озиқ-овқат маҳсулотларини етиштиришнинг ўртача қийматлари ҳисоб-китобларига Данғара (фақат тухум етиштиришда учинчи ўрин, Учкўприк, Қувасой шаҳри (фақат мева етиштиришда биринчи, тухумда учинчи), Ёзёвон (фақат балиқ етиштиришда биринчи), Фуркат туманлари паст кўрсаткичлар билан ажралиб турса, Фарғона шаҳри, Сўх тумани (фақат картошка етиштиришда 10 ўрин), Марғилон шаҳри, Қўқон шаҳарлари энг қуйи поғоналарни эгаллаган. Юқоридаги маълумотлар қишлоқ хўжалигида етиштирилган озиқ-овқат маҳсулотларининг миқдорий кўрсаткичлари ҳисобланади. Ишлаб чиқарилган озиқ-овқат маҳсулотларининг аҳоли жон бошига тўғри келувчи миқдорий кўрсаткичи вилоятнинг ўртача аҳоли жон бошига тўғри келувчи кўрсаткичлари билан солиштириш натижасида маъмурий бирликлар орасида турли туманликни кузатиш мумкин.

ХУЛОСА

Жумладан, донли экинлар етиштириш вилоятнинг Бешариқ, Бағдод, Бувайди, Данғара, Фуркат, Қўштепа, Риштон, Ёзёвон туманларида туманларида вилоят аҳолиси жон бошига тўғри келувчи кўрсаткичлардан юқори эканлигини кўришимиз мумкин. Қувасой шаҳри, Бағдод, Фуркат, Олтиариқ, Қўштепа, Кува, Сўх, Тошлоқ, Ёзёвон, Ўзбекистон туманларида картошка етиштириш аҳоли жон бошига тўғри келувчи вилоят кўрсаткичидан юқори эканлигини кўришимиз мумкин. Сабзаот етиштиришда аҳоли жон бошига тўғри келадиган вилоят кўрсаткичидан юқори бўлган маъмурий бирликларга Бешариқ, Бағдод, Фарғона, Олтиариқ, Қўштепа. Кува, Риштон, Тошлоқ, Ўзбекистон туманлари кирса, Бешариқ, Бағдод, Бувайда, Олтиариқ, Қўштепа, Ўзбекистон туманларида полиз экинлари етиштириш вилоят кўрсаткичидан юқори натижаларга эга. Мева етиштиришнинг

аҳоли жон бошига тўғри келувчи қийматлари Қувасой шаҳри, Бешариқ, Бағдод, Фарғона, Қува, Риштон, Ўзбекистон туманларида, узум етиштириш Фарғона, Олтиариқ, Қўштепа, Ўзбекистон туманлари ва Қувасой шаҳрида, гўшт етиштириш Қувасой шаҳри, Бағдод, Бувайда, Данғара, Фарғона, Фурқат, Олтиариқ туманларида, сут етиштириш Қувасой шаҳри ва Тошлоқ ва Учкўприк туманларидан ташқари барча туманларда, тухум етиштириш Қувасой шаҳри, Бешариқ, Бағдод, Данғара, Фурқат, Қўштепа, Учкўприк, Ёзёвон туманларида, балиқ етиштириш, Қувасой шаҳри, Бешариқ, Бағдод, Данғара, Фарғона, Фурқат, Олтиариқ, Қўштепа, Ёзёвон, Ўзбекистон туманларида вилоят кўрсаткичидан юқори натижаларга эга.

Умумий хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, Фарғона вилояти қишлоқ хўжалигида озиқ-овқат маҳсулотларини етиштириш минтақанинг табиий шароити, рельефи, иқлими, аҳоли жойлашуви, демографик таркиби, унинг меҳнат малакаси ҳамда бозор тақлифларини инобатга олиб тақлиф ва тавсиялар ишлаб чиқилиши мақсадга мувофиқ.

REFERENCES

1. Madaminov, Z. K. (2020). PRODUCTION AND CONSUMPTION OF GOODS OF PEOPLE'S CONSUMPTION AS AN OBJECT OF GEOGRAPHICAL RESEARCHES. *Экономика и социум*, (1), 61-63.
2. Мадаминов, З. Х., Салиджанов, С. О., & Сабилов, Т. С. (2019). ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ УСТРОЙСТВА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ТОВАРОВ НАРОДНОГО ПОТРЕБЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ПРИРОДА-НАСЕЛЕНИЕ-ХОЗЯЙСТВО (НА ПРИМЕРЕ КОМПЛЕКСНОЙ АГРОПРОМЫШЛЕННОСТИ). *Экономика и социум*, (10), 481-484.
3. Komilova, N. K., Hundayberganova, R. T., Murtazaev, I. V., Abdinazarova, N. O., & Madaminov, Z. H. (2019). Economic and geographic problems of improvement of industrial sectors and local structure of Uzbekistan. *J. Advanced Res. L. & Econ.*, 10, 1916.
4. Мадаминов, З. Х. (2019). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИИ. *Экономика и социум*, (10), 485-488.
5. Мадаминов, З. Х., Абдукаххоров, Л. Ш., & Алижонов, Н. У. (2022). ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА ИСТЕЪМОЛ ҚИЛИШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 88-93.



IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING UMUMIY RIVOJLANISHIDA MUSIQANING AHAMIYATI

Mastura Abduvahabovna Asdullayeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “San’atshunoslik fakulteti”

Musiqqa ta’limi kafedarsi o’qituvchisi

ANNOTATSIYA

Musiqqa terapiyasi-tanadagi va ruhiy kasalliklardan aziyat chekadigan bolalar va kattalarni davolash, reabilitatsiya qilish, o’qitish va tarbiyalashda musiqqa ta’siri yordamidan foydalanib musiqani his-tuyg’u bilan idrok etishga asoslangan psixoterapiya usuli. Kuy ohangining ritmik asosidan va ijro etilishidan kelib chiqib, musiqqa insonlarga ularning individual ichki kechinmalari va his-tuyg’ulariga qarab turli xil ta’sir etadi. Musiqani inson kayfiyatiga ta’sir etish maqsadida foydalanish mumkin.

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan guruhlarda musiqqa darslarining olib borilishi xaqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Musiqaterapiya, inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar.

ABSTRACT

Music therapy is a method of psychotherapy based on the emotional perception of music using the influence of music in the treatment, rehabilitation, education and upbringing of children and adults suffering from physical and mental illnesses. Based on the rhythmic basis of the melody and its performance, music has different effects on people depending on their individual inner experiences and feelings. Music can be used to influence human mood.

This article talks about conducting music lessons in groups with limited opportunities.

Keywords: Music therapy, inclusive education, children with disabilities.

KIRISH

Musiqqa terapiyasi-ko’pchilik insonlar o’zlaridagi psixologik zo’riqishni bartaraf etishda, tinchlanish va fikrlarini jamlashda, hissiy holatlarini yaxshilashda qo’llaydigan qadimiy va tabiiy usuldir.

Inklyuziv ta’limda musiqqa terapiyasidan foydalanishning maqsadi: hissiy idrok etish jarayonini rivojlantirish va tuzatish

(sezish, idrok qilish, namoyish qilish), harakatlanishni kuchaytirish, nutq faoliyatidagi tutulib qolish holatlarida (ijtimoiy va shaxsiy holatdagi keskin o'zgarish tufayli yuzaga keladigan tashvishlanishni olib tashlash) reabilitatsiyaning ijobiy- hissiy muhitini yaratish;

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shu o'rinda Karl Kenigning musiqa terapiyasidagi yondoshuviga murojaat qilamiz: Musiqa organizmga chuqur ta'sir etishi uchun bemorning o'zi faol harakatda bo'lishi (kuylashi, musiqa asboblariida ijro etishi, musiqani harakatlarida namoyon etish) kerak. Musiqa terapiya mohiyatini biz "maxsus" bolalar imkoniyatlarida ruhiy rivojlantiruvchi va ruhiy his-tuyg'u jarayonlariga ijobiy va davolovchi ta'sir etuvchi, bolaning zahiradagi kuchini san'atning barcha sohalarida va umuman hayotda o'zini boshqarishga to'g'ri yo'naltirishda ko'ramiz.

Mutaxassislar musiqa terapiyasini passiv va faol shakllarga ajratadilar. Avvalo bemorlarga o'zlarining ruhiy salomatligi va davolanish jarayoniga mos keladigan turli musiqiy asarlarni tinglashni tavsiya qilinadi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan kamida bir marotaba muloqot qilganlar ularning ko'ngliga yo'l topish qanchalik qiyinligini biladilar. Shu sababli, musiqada mavjud bo'lgan tabiiylik va imkoniyat so'nggi 2-3 o'n yillikda musiqa terapiyasining jadal rivojlanishining sabablaridan biri bo'lib kelmoqda.

Inklyuziv ta'limda musiqa terapiyasining foydali jihatlari quyidagilardir:

- jarayon ishtirokchilari o'rtasida ishonchni, o'zaro tushunishni mustahkamlashga yordam beradi;
- terapiya jarayonini tezlashtirishga yordam beradi, chunki ichki kechinmalar suhbatdan ko'ra musiqa yordamida osonroq ifodalanadi;
- musiqa his-tuyg'ularni faollashtiradi, ongli idrok etishni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi;
- musiqiy malakani bilvosita oshiradi, o'z-o'zini nazorat qilish va fikrlarini tartibga solish jarayoni paydo bo'ladi.

Davolashni qanchalik erta boshlansa, muvaffaqiyatga erishish ehtimoli shunchalik ko'proq bo'ladi. Shuning uchun, imkoniyati cheklangan bolalarni ikki yoshligidan boshlab musiqa terapiya yordamida davolash va rivojlantirish mumkin. Ikki yoshli bolalarda tashqi olam haqidagi tasavvur doirasi juda tor, nutqi yaxshi rivojlanmagan, asab tizimi, eshitish va vizual hislari kuchsiz, harakatlari muvofiqlashmagan, e'tibori noturg'un. Odatda, bunday bolalar tovushlarni taqlid qilish, oddiy musiqiy ohanglarni bo'g'inlab kuylab berish va talaffuz qilish ko'nikma, malakalariga ega

bo'lmaydilar. Bolalar musiqa bilan harakatlarini qanday muvofiqlashtirish kerakligini, bilmaydilar, eshitish va ko'rish orqali o'z hatti-harakatlari bilan tashqi signallarga munosabat biladira olmaydilar. Lekin ularda taqlidchanlik xususiyatlari bor, bu ham bo'lsa musiqiy -ritmik harakatlarda, ohanglarni hirgoyi qilishda va qo'shiq kuylashda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy faoliyat texnologiyasi sifatida Imkoniyati cheklangan bolalarda musiqa terapiyaning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Inklyuziv ta'limda bolalar bilan ijtimoiy faoliyat texnologiyasi sifatida musiqa terapiyasining afzalliklari quyidagilardir:

1. Mutlaq bezararlik;
2. Qo'llashning yengil va qulayligi;
3. Nazorat qilish imkoniyati;
4. Ko'p vaqt va bosim talab etuvchi boshqa davolovchi usullardan foydalanish zaruratini kamaytirish imkoniyati.

Maxsus tashkil etilgan ovoz kombinatsiyasi kompozitsiyasi yordamida psixofiziologik ta'sir qonunlariga muvofiq tashkil etilgan musiqa muvaffaqiyatli aks etishi va namoyon bo'lishi mumkin:

-Turli xil kayfiyat - quvonch, xursandlik, quvnoqlik, qayg'u, muloyimlik, tushkunlik, ishonch, tashvish;

- intellektual va irodali jarayonlar-qat'iyatlilik, g'ayratlilik, bosiqlik, g'amxo'rlik, harakatsizlik, irodasizlik, jiddiylik;

- Borliqning umumlashgan xususiyatlari ko'rinishi-kuch, yengillik, davomiyligi, yo'nalishi, kengligi, fazoviyligi;

- Harakatlarning xilma-xilligi xarakteristikasi- tez, mo' tadil, sekin, elastik, kuchli, bo'shang, egiluvchan.

Musiqiy ritmika tayanch va nutq faoliyatining buzulishida (tik xastaligida, duduqlanish, harakatlanishning nomuvofiqliligi, to'xtab qolishi) ritmni his etish, nutqda, nafas olishdagi kamchiliklarni davolashda foydalaniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kichik guruh mashg'ulotlari shaklida ritmik o'yinlar, nafas olish mashqlari, ma'lum bir ritmni tezlashgan va sekinlashgan sur'atda bajarish kabilarda namoyon bo'lib kelmoqda.

Musiqa terapiyasining ikki turini ko'rib chiqamiz: asboblardan foydalangan holda va musiqiy asarlarni kuylash yordamidagi musiqa terapiyasi. Birinchi tur quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- diagnostika;
- bolaning muammosiga mos keladigan asboblarni guruhini tanlash;

- bolaning o'zi afzal ko'rgan guruhdan musiqa asbobini tanlash;
- ushbu asboblarning har birining ijro etilishida musiqiy qismlarni tinglash va tanlov qilishni taklif qilish;
- bolalar tomonidan tanlangan cholg'u asboblari ijro etgan asarlar ro'yxatini aniqlash;
- yakunlovchi bosqich.

Musiqiy asarlar yordamida musiqa terapiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- diagnostika;
- musiqiy asar tanlash;
- yakunlovchi asar tanlash.

Inklyuziv ta'limda bolalar bilan musiqa asarlari va musiqa asboblariidan foydalangan holda faoliyat tashkil etish mumkin. Bu jarayonda klassik musiqa asarlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Tinglash uchun quyidagi asarlarni tanlash mumkin: Bax, List, Shopen, Raxmaninov, Betxoven, Motsart, Chaykovskiy, Shubert va boshqalar.

Cholg'u sozlaridan foydalangan holda musiqa terapiyasini o'tkazish texnologiyasi:

Avvalo, mutaxassis, ham psixolog sifatida bolaning ahvolini tashxislash, uning hissiy holatini aniqlagan holda bolaga muvofiq musiqiy kompozitsiyani tanlash kerak.

Tashxis qo'yish va muammolarni aniqlagandan so'ng, bolaning muammosiga mos keladigan asboblari guruhini tanlash kerak, shundan so'ng bir nechta vositalardan qaysi biri afzal ekani aniqlanadi. Buni quyidagi yo'llar bilan hal qilish mumkin:

- a) bola yoki o'smirning o'zi afzal ko'rgan guruhdan cholg'u asbobini tanlashi;
- b) Tanlangan musiqa asboblari har biri ijrosidagi asarlardan bir qismini tinglatish va tanlov qilishni taklif qilish;
- c) Ma'lum bir cholg'u asbobi ijrosidagi musiqa qismlarini tinglash. Yuqori ta'sir etuvchi musiqa asbobi tanlanadi.

XULOSA

Bir qator defektolog olimlarning ishlaridan biz musiqa terapiyasi turli xil differensiyalangan usullar tizimini o'z ichiga olganini ko'rishimiz mumkin, ularning ba'zilari, albatta, an'anaviy, boshqalari esa nutq

buzilishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o'zgartiriladi.

REFERENCES

1. Hasanov A. „Musiq va tarbiya”-T.O`qituvchi 1993.
2. Yusupova N. „Musiq savodi, metodika va ritmika” Toshkent 2010.Musiq nashriyoti.
3. M. С. Мухидинова “Мақтабгача таълим ташкилотларида ахборот-компьютер технологияларини музика тарбияси воситаси сифатида қўллашнинг хусусиятлари” 2020 yil
4. Ш. Р.Махкамова “Имконияти чекланган болалар ва хар томонлама етук авлодни тарбиялашда музиканинг ўрни” 2020
5. Махкамова Sh.R. Таълим жараёнида ўқувчи ва талабалар билимини баҳолаш усуллари ва методикаси // "Экономика и социум" №11(90) 2021//
6. Икрамов А.И. ва бошқалар. “Таълим самарадорлигини ошириш йўллари” мавзусидаги семинар тренинг материаллари. /Тренинглар учун қўлланма. – Т.: ЎМКХТМ, 2002. -184б.
7. Нишонов А. ва бошқалар. Баҳолаш методлари. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ЎМКХТРИ, 2003. – 156 б
8. Сарсенбаева Р.М. Тарбиявий ишлар методикаси. Ўқув қўлланма. – Т.:“Молия-иқтисод”, 2019. – 388 б.
9. Сарсенбаева Р.М. Иқтисодий фанларни ўқитишда қўлланиладиган интерактив методлар. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ТМИ, 2015. – 152 б
10. Сарсенбаева Р.М. “Касбий педагогика” ўқув фанини ўрганиш учун ишчи дафтар. Услубий қўлланма. –Т.: ТМИ, 2019. – 112 б.

STRUCTURAL, WORD-FORMING AND MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF COMPOUND SENTENCES IN ENGLISH LANGUAGE

Nasiba Urinovna Urinova

Master student at Termez State University

E-mail: urinova9898@gmail.com

ABSTRACT

This article is devoted to the compound sentences of the English language and morphologic syntactic analysis. At the same time, the article pays special attention to the types of sentences and clarified them with the help of brains. They are also translated into Uzbek language and their sentences are given too.

Keywords: compound sentence, derived sentence, derived sentence, syntactic analysis, morphological analysis, punctuation, English language, Uzbek language.

INTRODUCTION

A comparative characteristic of a simple sentence with a compound sentence. A general understanding of a compound sentence. Comparative characteristics of a compound sentence and a simple sentence A sentence composed of two or more simple sentences in terms of content, grammar and tone is called a compound sentence. Syntax section is directly related to compound words. The history of the study of syntax goes back to ancient times. Syntax refers to the doctrine of a sentence and its parts. This theory originated from the linguistic traditions of antiquity. Syntax (from the Greek word syntax - combination, structure) is considered a level of the language system and consists of word forms. The issue of syntax has been studied since ancient times and still issues of syntax are relevant. Syntax is considered a part of the science of grammar. It is known that the science of grammar consists of two parts, i.e. morphology and syntax.

MATERIALS AND METHODS

English, Russian and Uzbek scientists have approached the definition of syntax in a comprehensive way. In particular, the Russian scientist V. V. Vinogradov considers syntax to be a science that studies the rules and methods of combining words and sentences, as well as word combinations, their structure, function, and laws of development. "The scientist says that the characteristic feature of syntax is that each object of its

study functions as a structural element of a grammatical unit higher than itself: a word and its forms are a word and a sentence, a combination of words of various common sentences, and within a sentence, in turn, a simple sentence serves as a structural element of a compound sentence. [3] Thus, it confirms that syntax is the object of learning. Nowadays, the theory and teachings of V. Vinogradov have found their place in the textbooks of secondary schools, that is, the ideas of this scientist are relied upon in the education of schoolchildren.

RESULTS AND DISCUSSION

Compound sentences consist of two or more simple sentences that express a single complex idea.

There are two types of them:

*Compound Sentences

*Complex Sentences

1. A complex sentence consists of simple sentences that have equal rights and are not dependent on each other. Simple sentences that are part of a compound sentence are connected by conjunctions, and they are usually separated by commas: The signal was given, and the steamer moved slowly from the dock. The signal was given, and the steamer moved slowly from the dock. Signal berildi va paroxod dokdan sekin jo'nadi. I came home early, but he remained to the end of the concert. (Men uyga erta qaytdim, ammo u konsertning oxirigacha qoldi.)

2. In compound sentences, several simple sentences can be connected without a conjunction. In this case, they are separated from each other by a semicolon: The signal was given; the steamer moved slowly from the dock.

TYPES OF SUBJECT SENTENCES

1. The subordinate clauses act as a part of a sentence in a compound sentence. There are as many clauses in our language as there are clauses. They are divided into possessive clauses, participle clauses, complementary clauses, defining clauses and case clauses.

2. One, two or more clauses in a sentence can be represented by adverbial clauses, in other words, a compound sentence can contain several adverbial clauses:

As it was raining, we could not show our friends from London our new fruit trees. (Faqat bitta gap bo'lagi — sabab holi ergash gap bilan ifodalangan). Yomg'ir yog'ayotgani uchun biz yangi o'tqazilgan mevali daraxtlarimizni Londonlik do'stlarimizga ko'rsata olmadik.

SUBJECT CLAUSES

1. Possessive adverbs are possessive in a compound sentence. They are connected with prepositions using conjunctions and conjunctions such as who (whom), what, that, whether, if, whose, which, when, where, how, why:

That he has made a mistake is strange- Uning xato qilgani g'alati.

Whether they will come today is not known yet-Ular keladimi yo'qmi hali noma'lum.

Participial clauses act as participles in a compound sentence. They are connected with the main clause by means of conjunctions and linking words used in the possessive clauses. Complementary adverbial clauses act as an indirect complement or a prepositional complement in a compound sentence. Complementary clauses are connected to the main clause by conjunctions and conjunctions, which are used to connect the subordinate clauses to the main clause. In possessive, participle and complement clauses connected with the words whose, whom, which, what, when, where, how, why, the word order of demonstrative clauses is used. Interrogative sentence order is used only in independent interrogative sentences.

DIRECT AND INDIRECT SPEECH

A quote is a quote that conveys one person's speech to another person without changing it. Using an adverbial clause to complete a person's sentence is called a possessive sentence.

Quote: He has said: "The ship will arrive at the end of the week".

Verb: He has said that the ship will arrive at the end of the week.

Quotation marks are usually preceded by a comma. But long texts are preceded by a colon. In English, quotation marks are placed at the top of the line both at the beginning and at the end of the sentence. Quotational sentences are divided into demonstrative sentences, interrogative sentences and imperative sentences.

CONVERTING EXTENDED SENTENCES INTO SUBJECT SENTENCES-

The following changes are made in converting excerpted sentences into appropriate sentences. Commas and quotation marks between the main clause and the clause are omitted. The conjunction that is placed before the possessive clause, but this conjunction is often omitted. Turn interrogative sentences into possessive sentences. If the adverbial clauses are interrogative clauses, when they are converted into possessive clauses, they become complement clauses. Let's focus on two types of excerpted interrogative sentences:

a) special interrogative sentences beginning with who, which, whose, when, why, how many, how much, how long and other interrogative words;

РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ У ДОШКОЛЬНИКОВ – ВАЖНЫЙ ПРОЦЕСС

Д. Закиров, Д. Татаева, Р. Хамраев

Чирчикский государственный педагогический университет,
преподаватели кафедры генетики и эволюционной биологии
d.zakirov_76@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В статье освещены задачи, направленные на экологическое воспитание детей дошкольных учебных заведений, пробуждение в них уважения к окружающей среде, бережного и ответственного отношения к природе, на развитие экологических знаний детей дошкольного возраста. Также освещена суть задачи системной организации обучения природных предметов между системой дошкольного и школьного образования.

Ключевые слова: Система дошкольного образования, экологическое образование, этапы образования, эстетическое отношение, эмпатия, кластер, добрый спонсор, объекты природы.

ABSTRACT

The article highlights the tasks aimed at the environmental education of children of preschool educational institutions, the awakening in them of respect for the environment, careful and responsible attitude to nature, the development of environmental knowledge of children of preschool age. The essence of the task of systematic organization of teaching natural subjects between the system of preschool and school education is also highlighted.

Keywords: Pre-school education system, environmental education, stages of education, aesthetic attitude, empathy, cluster, good sponsor, objects of nature.

ВВЕДЕНИЕ

Сегодня система дошкольного образования является первичным, самым основным звеном непрерывного образования. Согласно научным выводам специалистов и педагогов, 70 процентов всей информации и сведений, которые получает человек в течение своей жизни, поступает к возрасту 5 лет. Уже один этот факт ясно показывает, какое значение имеет детсадовское воспитание в развитии наших детей как зрелых и всесторонних личностей. Поэтому в соответствии с указом

Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2017 года «О мерах по коренному совершенствованию управления системой дошкольного образования» и решением «Об организации деятельности Министерства дошкольного образования Республики Узбекистан Республики Узбекистан», в этой сфере была создана новая система [3].

Перед новым министерством поставлены задачи по разработке и реализации единой государственной политики в сфере дошкольного образования, расширению государственной и негосударственной сети дошкольных образовательных учреждений и укреплению материально-технической базы, обеспечению их квалифицированными педагогическими кадрами, резкому увеличению охват детей в дошкольных образовательных учреждениях, а также совершенствование образовательных процессов за счет внедрения современных образовательных программ и технологий, решения задач интеллектуального, духовно-эстетического, физического развития детей во всех аспектах, а также коренного повышения качества их подготовки для школы были установлены

Исходя из вышеизложенного, дети должны:

- нравственное и интеллектуальное развитие путем воспитания отношения человека к природе, формирования системы экологических знаний и представлений

- развивать эстетические чувства, видя и чувствуя красоту природы, любясь ею и стремясь ее сохранить

- организация системного воспитательного процесса, включающего в себя развитие ремесленного образования через участие детей в деятельности по уходу за растениями и животными, а также участие в охране и сохранении природы, является актуальным вопросом на сегодняшний день. [2,4].

Как сформировать у детей человеческое отношение к природе? Принимая во внимание возрастные особенности дошкольников, к которым относятся впечатлительность и эмоциональная чувствительность, чувство сострадания и сопереживания, что помогает ребенку проникнуть «из внутренней жизни другого существа», за счет того, что он чувствует боль других, чувство сострадания, сопереживание детей природе помогает выявить последствия стресса, заботиться о нуждающемся, защищать обиженного, помогать нуждающемуся, как правило, ухаживать за комнатными растениями, домашними животными, птицами и т. д. Кроме того, способность к сопереживанию должна постепенно быть направлена на развитие противоположных чувств к

действиям, причиняющим страдания всем живым существам. [4, 5].

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ

В соответствии с Постановлением Президента Республики Узбекистан «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» на 2017-2021 годы «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки педагогических кадров, переподготовки работников образования и их профессиональное развитие», обеспечение преемственности и последовательности образовательных этапов, создание современной методики обучения, совершенствование государственных стандартов образования на основе компетентностного подхода, разработка и внедрение учебно-методических комплексов нового поколения, и далее совершенствование системы переподготовки и повышения квалификации педагогов [1,3].

Также в статье «Экологическое воспитание - это воспитание нравственности, духовности и интеллекта», предоставленной Дош возраст.ру исследователем Е. С. Трусовой, прозвучал ряд предложений о реформах, направленных на формирование у детей гуманного отношения к природе. , развитие впечатлительности и эмоционального чувства дошкольников, или статья Г.А. Мелекесова, Н.Е. Ерофеевой «Образовательный кластер подготовки педагогических кадров» в Вестнике № 3 Оренбургского государственного университета, вышедшая в марте 2014 г., полностью освещает критерии формирования сознательного активное отношение человека у детей к природе.

Основная цель данной работы - сформировать у детей дошкольных образовательных учреждений понятие об окружающей среде, расширить их представления о природе, помочь им осознать, что все живое и неживое в природе связано друг с другом. Ведь очень важно показать детям, что они должны покровительствовать природе, беречь ее и замечать поступки других людей, сверстников и взрослых, давать им должную нравственную оценку и давать им должную оценку.

Объясняя детям, что все живое на земле взаимосвязано сложными системами, все они необходимы, взаимозависимы, потеря какой-либо связи есть потеря цепи, то есть нарушение биологического равновесия, и в то же время экологического состояния каждого из них и в то же время целенаправленно учить тому, что он должен существовать. [5].

Известно, что при формировании у детей осознанных и активных отношений человека с природой следует опираться на следующие критерии. Это:

- понимать необходимость бережного и заботливого отношения к природе, имеющей нравственное, эстетическое и практическое значение для человека;

- выработка норм поведения в природной среде и соблюдение их в практике и быту;

- проявление активных отношений с природными объектами, в том числе действенного ухода, умения оценивать действия других по отношению к природе [4].

В этом вопросе рекомендуется использовать ряд мероприятий и методов в дошкольных образовательных учреждениях.

- По возможности создание площадок с природными пейзажами во дворе учреждения. На участке рекомендуется безопасно размещать модели различной флоры и фауны, различных ландшафтов, макеты-прототипы гор, водопадов, рек, озер и других природных ландшафтов.

- Организация комнаты природы в учреждении. В первую очередь рекомендуется установить в комнате картины с изображением сцен природы, модели экологических ландшафтов, аквариумов, модели и изображения представителей флоры и фауны, а также различные модели других природных объектов.

- Не реже одного раза в неделю рекомендуется проводить мероприятия по произвольному сценарию в данном помещении или на площадке, организовывать использование установленного инвентаря в организуемых мероприятиях.

- Рекомендуется организация различных мероприятий, таких как игры, конкурсы рисунков, на которых показаны вредные последствия экологического ущерба, особенно химического, техногенного, природного и антропогенного воздействия.

- При участии большой группы детей посадка цветов в горшок, уход за маленькими растениями, предоставление информации о домашних животных не только повышает любовь детей к природе, но и создает основу для эффективного использования природных ресурсов.

Вышеуказанные мероприятия проводились в разных дошкольных образовательных учреждениях в несколько иной форме, и не исключено, что они будут проводиться и в дальнейшем, но вопрос регулярности, отсутствие установленного срока в достаточной мере тормозит разработку сознания ребенка о природе. Потому что этот образовательный процесс является важным фактором

освоения специального кластера, т.е. предметов «Окружающий мир», «Естествознание», «Ботаника», «Зоология», «География», «Физика» и «Биология», преподаваемых в средние школы. [6,7].

РЕЗУЛЬТАТЫ

